Ma'nosi: "U qashshoq va nochor hayotning og'irligini yuragida his qildi. qashshoq va nochor Xonalarning devorlarga gul qog'ozlar bir biriga mutanosib bolmagan holda yopishtirilgandi. Pollar bo'ya bilan qoplangan va yo'lakka yupqa latta gilam to'shangan edi. Mebellarga qarab esa, ularning arzon, shoshilinch yig'ilgan, bo'lib-to'lashga mo'ljallangan buyumlar ekani darhol bilinardi."

Ushbu parchada Kerrining opasi Minning kvartirasi tasvirlangan bo'lib u juda haqqoniy va realistik ruhda, oddiy va sodda so'zlar orqali qisqa jumalarda tasvirlangan haqiqiy uy makoni, lekin ayni paytda u Kerri uchun nochorlik va umidsizlikning ham ramzi bo'lib u bu makondan qochishga harakat qiladi.

She was glad to be out of the flat, because already she felt that it was a narrow, humdrum place, and that interest and joy lay elsewhere. [11:25].

Ma'nosi: "U kvartiradan chiqib ketganidan xursand edi, chunki allaqachon bu joy unga fayzsiz va zerikarli tuyula boshlagandi; go'yo qiziqish va quvonch butunlay boshqa bir joyda yashiringandek edi."

Shuningdek Gerstved obrazini ilk bor Fitsjerald va -Moy mayxonasida dabdabay chiroq nurlariga chulg'angan hashamat ichida namoyon bo'ladi. Bu joy real makon sifatida jamiyatning yuqori tabaqa vakillari yig'iladigan ko'ngilochar joy bo'lish bilan birga davr jamiyatining bir parchasi sifatida unda amal qilayotgan mezonlarning inikosi sifatida namoyon bo'ladi

Yet, here is the fact of the lighted chamber, the dressy, greedy company, the small, self-interested palaver, tin disorganized, aimless, wandering mental action which it represents the love of light and show and finery which, to one outside, under the serene light of the eternal stars, must seem a strange and shiny thing. Under the stars and sweeping night winds, what a lamp-flower it must bloom; a strange, glittering night-flower, odour-yielding, insect-drawing, insect-infested rose of pleasure. [11:36].

Ma'nosi: Shunga qaramay, yoritilgan xonalar, dabdabali va ochko'z jamoa, faqat o'z manfaatini ko'zlovchi mayda gap-so'zlar, adashgan va sarson tafakkur harakati — bularning barchasi yorug'lik, ko'z-ko'z qilish, va dabdabani sevishni ifodalaydi. Bu hol tashqaridan, abadiy yulduzlar nurida qaraganda, g'alati va yaltirab turgan manzara bo'lib tuyuladi. Yulduzlar ostida va kechaning esayotgan shamollari orasida bu manzara qandaydir bir chiroqli gul kabi ochiladi: g'alati, yaltiragan kecha guli, ifor taratuvchi, parvonalarini o'ziga tortuvchi, ularning iskanjasidagi zavq-shavq atirguli.

Ushbu makon tasviri stilistik jihatdan qaraganda epitetlarga to'la bo'lib realizmning oddiy va sodda uslubiga zid ravishda Romantizmga xos balandparvoz so'zlar va metaforalar bilan boyitilgan. Bu yerda yozuvchi abadiy va osoyishta tabiat bilan sun'iy, ochko'z va yuzaki jamiyat o'rtasida kuchli qarama-qarshilikni chizmoqda — bu romantizmga xos asosiy mavzulardan biridir. Romantik adabiyotda tabiat ko'pincha sof, ruhiy, chuqur ma'no manbai sifatida idealizatsiya qilinadi. Jamiyat esa ko'pincha buzilgan, yolg'onchi va yuzaki ko'rinishda tasvirlanadi. Shuningdek parchada romantizmga xos bo'lgan ramziy tasvirlar orqali chuqur hissiy va falsafiy ma'nolar berilgan.

Asarda xronotop bilan bog'liq muhim jihatlardan biri bu qahramonlar hayoti va hissiy kechinmalarini tabiat tasviri bilan bog'lab ramziylashtirishdir.

Izzat Sulton tabiat tasviri haqida quyidagi fikrlarni qayd etadi: „Badiiy asarda tabiat hodisalari va ko'rinishlari syujetning rivojini tezlatuvchi yoki sekinlatuvchi faktor sifatida ham tasvirlanishi mumkin. Ammo, tabiat manzaralaridan qahramonning ruhiy holatini ochib berish uchun foydalanish badiiy asarda eng ko'p uchraydigan hodisadir". [2, 188, 189]]. Peyzajning an'anaviy funksiyasi obrazlar va xarakterlarni ochib berish vositasi sifatida ishlatiladi. Peyzajli tasvirlar qahramonning ichki holatini, uning ruhiy kechinmalarini aks ettirishi mumkin.

Romanda tabiat yoki shahar manzaralari uzluksiz, epik tabiat emas, balki bo'lakli, tasodifiy holatda paydo bo'ladi. Derazadan ko'ringan manzara, ko'chadagi tashvishli shovqin, parkdagi sukunat — bularning barchasi Kerri ichki dunyosining aksidir. Baxtin aytganidek:

“Peyzaj kamerali xronotopda — bu inson atrofidagi xoli, bevosita his etilgan makon bo'lagi.” [8:194]..

Teodor Drayzerning "Baxtiqaro Kerri" romanida tramvay ishchilari qo'zg'oloni sahnasida "ijtimoiy xronotop" aniq namoyon bo'ladi. Bu sahna M.M.Baxtinning xronotop nazariyasiga tayanib qaralganda, muayyan tarixiy-madaniy kontekstda makon va vaqtning o'zaro bog'liqligi orqali jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni ochib beradi.

Avvalo, bu sahna o'z davrining real ijtimoiy muammolarini aks ettiradi: sanoatlashuv, mehnatkashlar ekspluatatsiyasi, sinfiy ziddiyatlar va ishchilar harakati. Drayzer romanida bu voqeani tasvirlar ekan, oddiy shahar makoni — ko'chalar, tramvay yo'llari — birdaniga ijtimoiy kurash maydoniga aylanadi. Bu esa makonning ideologik yukini o'zgartiradi: makon endi befarq fon emas, balki faol ijtimoiy voqelik sifatida qaraladi.

Vaqt ham bu sahnalarda o'zining murakkab shaklida namoyon bo'ladi. Tramvaychilar norozilik bildirayotgan paytda vaqt intensiv, keskin va dramatik tus oladi. Oddiy kundalik hayot ritmiga qarshi bo'lib o'tadigan bu to'qnashuvlar, aslida, tarixiy burilish nuqtasini anglatadi. Bu vaqt nafaqat voqealar ketma-ketligini belgilaydi, balki ijtimoiy anglash va ongning shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Shuningdek, ushbu xronotop personajlar ongida ham o'z aksini topadi. Masalan, Gerstvod ushbu qo'zg'olon kontekstida o'zini jamiyatdan chetlashgan, maqsadsiz va zaif bir kimsaga aylanganini his qiladi. Ishchilar harakati va umumiy notinchlik fonida u kapitalistik jamiyatdagi o'z rolini yo'qotgan, "ortiqcha odam" sifatida gavdalanadi. Bu orqali ijtimoiy xronotop shaxsiy xronotopga tutashadi va shaxsiy fojiaga olib keladi. Bu sahna orqali Drayzer nafaqat dramatik ziddiyatlarni yoritadi, balki o'quvchini muayyan davr va jamiyat ichiga olib kiradi.

M. M. Baxtin nazariyasida xronotop faqat fizik makon-vaqt birligi emas, balki u qahramonlarning ichki kechinmalari va ongida qanday tajassum topishini ham o'z ichiga oladi.

Kerrining ruhiy rivojlanishi bilan bog'liq ravishda u joylashgan makonlar ham o'zgaradi. Dastlab u Chikagodagi kichik xonada yashaydi — bu makon uning yakkalanish va ijtimoiy himoyasizlik holatini aks ettiradi. Bu xona uning ichki xavotirlari, yolg'izligi va kelajakka bo'lgan noaniq nigohining ifodasidir.

Keyinchalik u teatr olamiga kirgan sari, makonlar ochiq, yorqin va rasmiy tus oladi. Kerri uchun vaqt hayotiy qadriyatlar va o'zini anglash bilan to'ldiriladi. Tashqi muvaffaqiyat ortidan ichki bo'shliq hissi kuchayadi — ya'ni tashqi makon go'yoki kengaysa-da, ichki makon torayadi.

Gerstvod uchun esa vaqt va makon tobora qisiladi. Dastlab u restoran menejeri sifatida muayyan ijtimoiy maqomga ega — bu holatdagi makonlar (restoran, hashamatli uy) uning ichki ishonchi bilan uyg'un. Biroq u jamiyatdagi o'z o'rnini yo'qotgan sayin makon ham o'zgaradi: avval kichikroq xonadon, keyin esa arzon mehmonxona va oxirida uysizlar boshpanasi.

Bu joylar vaqt bilan birga Gerstvodning ruhiy qulashini aks ettiradi. Vaqt endi u uchun turg'un, uzoq cho'zilgan, umidsiz kechinmalar manbai. U faqat o'z ichki azobini his qiladi va bu vaqt — ichki psixologik vaqt — uni o'lim sari yetaklaydi.

Bu xronotoplar nafaqat syujetni boyitadi, balki o'quvchiga qahramon ongining murakkab qatlamlarini anglashga imkon beradi..

Teodor Drayzerning "Baxtiqaro Kerri" romanida xronotop – ya'ni makon va vaqtning o'zaro uyg'unligi – ko'pincha pessimistik ruhda tasvirlanadi. Bu pessimizm faqat voqealarning salbiy oqibatlari orqali emas, balki aynan makon va vaqtning qahramonlar ongida qanday aks etishi orqali ham yuzaga chiqadi

Xronotopda vaqt ham pessimistik ohangda aks ettiriladi. Vaqt – bu yerda ijtimoiy yuksalish yoki o'zgarish vositasi emas, aksincha, ko'pincha tushkunlik va tushkunlik sari siljish sifatida ifodalanadi


Xulosa o'rnida shuni aytilish mumkinki, Drayzer naturalistik yozuvchi sifatida inson erki cheklangan, ijtimoiy va biologik kuchlar ostida ezilayotgan obrazlarni yaratadi. Shu sababli, xronotop ham bu falsafiy-estetik qarashlarga xizmat qiladi: inson qanday makonda bo'lmasin, qanday vaqtga tushmasin – u o'z holatini tubdan o'zgartira olmaydi. Kerri mashhurlikka erishadi, biroq bu unga ichki qoniqish keltirmaydi; Gerstvod esa asta-sekinlik bilan o'z o'limiga tomon yetaklanadi.

Teodor Drayzerning " Baxtiqaro Kerri " romanida xronotop tushunchasi orqali shaxs va jamiyat, makon va ruhiyat, vaqt va harakat o'rtasidagi ziddiyatlar yoritiladi. Shahar – bu ijtimoiy bosim va imkoniyatlar maydoni, vaqt esa tashqi harakat va ichki qoniqmaslik o'rtasidagi chiziqli kesishuvdir. Drayzerda vaqt progressiv, ammo ma'naviy bo'shliq bilan yakunlanadigan yo'ldir. Carrie obrazida bu xronotoplar nafaqat estetik, balki falsafiy savollarni ham uyg'otadi: baxt nima? Harakat bizni erkin qiladimi? Va inson bu makon-vaqt zanjirida qanchalik mustaqil?

Xronotopik yondashuv orqali "Baxtiqaro Kerri" – bu nafaqat bir ayolning shaharga sayohati, balki zamonaviy insonning o'zligini izlash dramasi ekanligi ayon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.(Hussman, 2021) Hussman, L. E. (2021). Theodore Dreiser. In L. E. Hussman (Ed.), Encyclopedia Britannica. Encyclopedia Britannica
- 2.Иззат Султон Адабиёт назарияси. – Укитувчи. Тошкент.1996
- 3.(Lehan,1998,p.194). Lehan, Richard (1998). The City in Literature. An Intellectual and Cultural History. California: University of California Press
- 4 М.Бахтин. Романда замон ва хронотоп шакллари. - Тошкент, “Академнашр” 2015. Рус тилидан У.Жўракулов таржимаси. – Б. 44.
- 5,.Қуронов Д. ва бошқалар. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2013. – Б 289, 352
- 6.Е.Н Кожевникова социальные знаки в художественном пространстве в романе сестра Керри Вестник ЯГУ 2006, том 3,№3
- 7.Засурский, Я. Н. История литературы США : в 5 т.– М. : ИМЛИ РАН, 2009. – Т. 5. – 988 с. 410-411с.
- 8.М. М. Бахтин. Вопросы литературы и эстетики. Исследования разных лет Издательство: Москва: Художественная литература, Год издания: 1975 p-294 с
- 9.Нефедова О.И. Миф в американской литературе и культуре. – М.: Перо, 2021. – 198 с.
- 10.Флоренский П.А. Исследования по теории искусства [Электронный ресурс] // Статьи и исследования по истории и философии искусства и археологии / П.А. Флоренский. – Режим доступа: http://philologos.ru/florensky/fl_space.htm.
- 11.Sister Carrie By Theodore Dreiser. ©GlobalGrey 2020 globalgreycbooks.com



INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

ISSN: 2181-9297

www.tadqiqot.uz

Ergashova Baxora Sayfillo qizi

O'zDJTU mustaqil tadqiqotchisi

ergashova.baxoram@gmail.com

Janna Tsulimova,

Siena xorijliklar universiteti doktoranti

z.tsulimova@studenti.unistrasi.it

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ НАСТОЛЬНЫХ ИГР В ОБУЧЕНИИ ИТАЛЬЯНСКОМУ ЯЗЫКУ КАК ИНОСТРАННОМУ: ОПЫТ И ПЕРСПЕКТИВЫ



<https://doi.org/10.5281/zenodo.00000000>

АННОТАЦИЯ

Статья посвящена применению настольных игр в преподавании итальянского языка как иностранного. Рассматриваются психолингвистические и методические основания для внедрения игровых форм на занятиях, а также описан практический опыт использования игр «Chi sono?» и «Timeline» в многоязычной аудитории. Анализируется влияние таких игр на мотивацию студентов, снижение тревожности, развитие речевой активности и усвоение грамматических структур.

Ключевые слова: обучение итальянскому, дидактика, игровые технологии, мотивация, настольные игры, конжунтиво, трапассато.

USING BOARD GAMES IN TEACHING ITALIAN AS A FOREIGN LANGUAGE: EXPERIENCE AND PROSPECTS

ANNOTATION

The Use of Board Games in Teaching Italian as a Foreign Language: Experience and Perspectives

This article explores the use of board games in teaching Italian as a foreign language. It discusses the psycholinguistic and didactic foundations of introducing game-based activities into the classroom and presents a practical case study involving the games “Chi sono?” and “Timeline” used in a multilingual classroom. The analysis focuses on the games’ impact on student motivation, anxiety reduction, speech production, and the consolidation of grammar structures.

Keywords: Italian language teaching, didactics, game-based learning, motivation, board games, subjunctive, trapassato prossimo.

ITALYAN TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA O'QITISHDA STOL O'YINLARIDAN FOYDALANISH: TAJRIBA VA ISTIQBOLLAR

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada italyan tilini chet tili sifatida o'rgatishda stol o'yinlaridan foydalanishning afzalliklari tahlil etiladi. O'yin shakllarining dars jarayoniga qo'shilishi psixolingvistik va didaktik asoslari ko'rib chiqilgan. “Chi sono?” va “Timeline” kabi o'yinlarning ko'p tilli auditoriyada

qo‘llanish tajribasi tavsiflanadi. Talabalarning motivatsiyasi, tashvish darajasini kamaytirish, grammatik strukturalarni mustahkamlashdagi samaradorligi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: italyan tilini o‘qitish, didaktika, o‘yin metodlari, motivatsiya, stol o‘yinlari, congiuntivo, trapassato.

Введение

Обучение итальянскому языку узбекскоязычных групп представляет собой уникальный процесс, требующий учета культурных и языковых особенностей учащихся. Узбекский язык, принадлежащий к тюркской языковой семье, значительно отличается от итальянского, что создает определенные вызовы, но и открывает возможности для творческого подхода.

Использование тем, близких узбекской культуре, таких как семейные традиции, национальная кухня или праздники, помогает учащимся лучше усваивать итальянскую лексику и грамматику. Например, изучение итальянских блюд (пицца, паста) можно сравнить с узбекскими аналогами (самса, плов). Настольные игры, ролевые диалоги и викторины делают процесс обучения увлекательным. Такие игры, как "Scrabble" на итальянском или карточные игры с итальянскими фразами, способствуют запоминанию слов и развитию разговорных навыков.

Из преподавательского опыта работы с узбекскоязычными учащимися третьего курса университета стало очевидным, что одной из серьёзных преград в овладении иностранным языком, особенно в развитии разговорных навыков, является страх ошибиться. Многие студенты избегают участия в заданиях, предполагающих устную речь, что снижает эффективность учебного процесса. Психологические барьеры, присущие коллективистским культурам, усугубляют проблему: студенты испытывают внутреннее давление и беспокойство о том, как их воспримет группа.

Для преодоления этих затруднений и создания благоприятной, безопасной и мотивирующей атмосферы на занятии был опробован метод введения игровых элементов в образовательный процесс. Важно, чтобы игровые задания соответствовали уровню обучающихся и при этом предполагали постепенное усложнение: в соответствии с гипотезой $i+1$, сформулированной Стивеном Крашеном (Krashen, 1983), каждое новое задание должно находиться на один шаг выше текущего уровня знаний студента, позволяя ему сделать один посильный шаг вперёд и логически продвигаться к следующей языковой цели. В настоящей статье рассматривается применение настольных игр в преподавании итальянского языка как иностранного: анализируются их дидактические преимущества, особенности внедрения в учебный процесс и конкретные примеры использования. В фокусе внимания — игры "Chi sono?" и "Timeline", адаптированные для решения конкретных учебных задач и организованные по принципу наращивания сложности от урока к уроку.

Методика преподавания иностранных языков в последние десятилетия всё чаще обращается к подходам, направленным на снижение тревожности студентов и повышение их включённости. Одним из таких подходов является дидактика, основанная на игре (*didattica ludica*). По мнению Крашена (Krashen, 1983), в процессе игры активизируется так называемое правило забвения (Rule of Forgetting): ученик, увлечённый заданием, забывает о том, что он изучает язык, и начинает использовать его спонтанно. Согласно той же концепции, обучение будет эффективным, если новые задания находятся немного выше текущего уровня компетенции учащегося — на один шаг вперёд. Эта идея легла в основу теории $i+1$, где i — это уровень знаний студента, а $+1$ — посильное, но более сложное задание, к которому студент может прийти с небольшой поддержкой. Таким образом, игра, грамотно встроенная в структуру урока, может выполнять функцию $+1$, помогая учащимся шаг за шагом продвигаться к новым языковым целям. Игровые формы способствуют глубокой когнитивной обработке информации и формированию устойчивых нейронных связей (Jensen, 1994). Важно также учитывать, что активизация предшествующих знаний учащихся и опора на их личный опыт способствует интеграции нового материала в существующую когнитивную структуру.

Основная часть.

Игра *Chi sono?* — это интерактивная дедуктивная игра, направленная на развитие вопросительных структур, гипотез и интуитивной логики. *Timeline* — логическая хронологическая игра, тренирующая использование временных связей, аргументацию и грамматические времена. Такое сочетание стимулирует разные языковые процессы и расширяет речевую практику студентов. Узбекоязычные студенты часто демонстрируют высокий уровень тревожности, связанный с коллективистской культурой и боязнью оценки. Игровой формат позволил создать безопасную среду для самовыражения, снять барьеры и активизировать речь даже у менее уверенных участников.

Игры были интегрированы в структуру уроков итальянского языка как средство не только мотивации, но и системной отработки грамматических и лексических навыков. Использование игровых заданий происходило в несколько этапов, каждый из которых имел дидактическую цель и логически вписывался в структуру урока. Подход к внедрению игр был основан на принципе постепенного усложнения — в соответствии с гипотезой *i+1*. Таким образом, обе настольные игры — *Chi sono?* и *Timeline* — были использованы как инструменты поэтапного развития речевых и грамматических умений. Использование игры *Chi sono?* на трёх уровнях сложности Игра *Chi sono?* (аналог популярной игры "Кто я?") была встроена в цикл из трёх последовательных занятий, каждое из которых расширяло цели и усложняло речевые задачи.

Урок 1: Знакомство с игрой и базовые навыки общения. На первом занятии студенты познакомились с правилами: один участник получает карточку с именем персонажа, которую не видит, и задаёт группе вопросы, предполагающие ответы "sì" или "no".

Урок 2: Расширение лексики и коммуникативная гибкость. На следующем уроке студенты выполняли ту же игровую задачу, но с ограничением: вместо слов "sì" и "no" нужно было использовать синонимичные фразы такие как "hai ragione", "non è giusto".

Урок 3: Грамматическое закрепление — *congiuntivo presente*. На третьем уроке в игру была встроена грамматическая задача: студенты должны были использовать субъективные конструкции с *congiuntivo presente*.

Использование игры *Timeline* как последовательной практики временных структур

Игра *Timeline*, основанная на хронологическом упорядочивании событий, была второй дидактической игрой, встроенной в курс.

Урок 1: Знакомство с игрой и активизация фоновых знаний

На первом занятии учащиеся располагали карточки и высказывали гипотезы на простом уровне.

Урок 2: Расширение лексики, логических связей и морфологии. На следующем этапе участники аргументировали порядок карточек, используя причинно-следственные и временные конструкции. Особое внимание уделялось морфологической работе с существительными, обозначающими события (например: *invenzione*, *fondazione*, *inaugurazione*) — студенты выводили от них соответствующие глаголы (*inventare*, *fondare*, *inaugurare*) и применяли их в контексте.

Урок 3: Закрепление грамматики — *trapassato prossimo* и сложные структуры. Финальный этап предполагал активное использование сложных временных конструкций, особенно *trapassato prossimo* и его сочетаний с другими временами и модальными структурами.

В качестве темы для третьего урока с использованием игры *Timeline* можно также предложить закрепление *congiuntivo passato*, поскольку эта игра — отличная возможность отработать глагольные формы предшествующих времен (*anterioretà*). Анализ результатов показал положительное влияние игровых заданий на атмосферу в классе, мотивацию студентов и усвоение грамматических структур. Отмечены следующие изменения:

- Эмоциональный климат в группе улучшился: снизился уровень тревожности, повысилась активность менее уверенных студентов.
- Мотивация студентов возросла: учащиеся охотно включались в игровые задания, проявляли интерес и соревновательный дух.

- Уровень речевой активности повысился: увеличилось количество самостоятельных высказываний, расширился словарный запас.


- Улучшились результаты по грамматическим темам (*congiuntivo presente, trapassato prossimo*), особенно в продуктивных заданиях.

Таким образом, применение настольных игр способствовало не только развитию языковых компетенций, но и укреплению групповой динамики и коммуникативной уверенности.

Игровые формы обучения представляют собой мощный инструмент усвоения иностранного языка, особенно в среде, подверженной высокому уровню тревожности и неуверенности студентов. Настольные игры, такие как *Chi sono?* и *Timeline*, при правильной педагогической организации, позволяют соединить когнитивное, эмоциональное и коммуникативное измерения обучения. Они эффективно реализуют принцип *i+1*, обеспечивая плавное усложнение заданий, и способствуют не только языковому, но и личностному росту учащихся. Представленные примеры подтверждают, что интеграция игр в курс итальянского языка как иностранного может быть продуктивной стратегией для формирования устойчивой учебной мотивации, речевой активности и грамматической грамотности.

Список литературы

1. Krashen, S. (1983). *Principles and Practice in Second Language Acquisition*. Oxford: Pergamon.
2. Ginnis, P. (2002). *Teaching and Learning in the Classroom*. Cheltenham: Nelson Thornes.
3. Polito, M. (2002). *Il gioco come risorsa educativa*. Firenze: La Nuova Italia.
4. Jensen, E. (1994). *Brain-Based Learning*. San Diego: The Brain Store.
5. Ekwall, E. E., & Shaker, C. (2004). B: Ginnis, P. *Teaching and Learning in the Classroom*.
6. Масиленти А. *Il ruolo del gioco nel gioco di ruolo: interpretare la didattica ludica nella classe di italiano lingua straniera* [Электронный ресурс] // Academia.edu. 2009. URL: <https://www.academia.edu/1316896> (дата обращения: 02.04.2025).
7. Reinhardt, J., & Sykes, J. M. (2014). Digital game and play activity in L2 teaching and learning. *Language Learning & Technology*, 18(2), 2–8.
8. Reinders, H., & Benson, P. (2017). Research agenda: Language learning beyond the classroom. *Language Teaching*, 50(4), 561–578.
9. Gee, J. P. (2007). *What Video Games Have to Teach Us About Learning and Literacy*. New York: Palgrave Macmillan.



INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

ISSN: 2181-9297

www.tadqiqot.uz

Obloqulova O'g'iloй Abdurayim qizi

Samarqand davlat chet tillar instituti

Yapon filologiyasi kafedrasi stajyor-o'qituvchisi

obloqulova97@mail.ru

MILLIY VA MADANIY QADRIYATLARNING REKLAMA MATNLARDA IFODALANISHI

 [tps://doi.org/10.5281/zenodo.00000000](https://doi.org/10.5281/zenodo.00000000)

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada yapon reklamalaridagi matnlarda aks ettiriladigan milliy va madaniy qadriyatlarning ifodalanishi orqali reklama ko'p yo'nalishga ega bo'lgan, jamiyat hayotining ko'plab sohalariga xizmat qiluvchi va bir necha tarqatish kanallariga ega hodisa sifatida ko'rib chiqiladi. Shuningdek, reklamani boshqa turdagi axborotlardan, xususan, e'lonlardan ajratib turuvchi o'ziga xos xususiyatlarini qiyosiy-chog'ishtirib o'rganish yaponshunoslar uchun muhimdir. Ushbu maqsaddan kelib chiqib mazkur maqolamizda yapon reklamalaridagi milliy va madaniy qadriyatlarning matnlarda ifodalanishiga to'xtalib o'tishni joiz deb bildik.

Kalit so'zlar: reklama, reklama matni, milliylik, madaniy qadriyat, madaniyat.

Облокулова Угиллой Абдураим кизи

Самаркандский государственный

институт иностранных языков

Кафедра японской филологии,

стажёр-преподаватель

obloqulova97@mail.ru

ИЗЛОЖЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ И КУЛЬТУРНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В РЕКЛАМНЫХ ТЕКСТАХ

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается выражение национальных и культурных ценностей в текстах японской рекламы, через что реклама представляется многогранным явлением, которое служит множеству сфер общественной жизни и имеет несколько каналов распространения. Также важно сравнить и проанализировать характерные особенности рекламы, которые отличают её от других видов информации, в частности, от объявлений. Исходя из этой цели, в настоящей статье будет рассмотрено выражение национальных и культурных ценностей в текстах японской рекламы.

Ключевые слова: реклама, рекламный текст, национальность, культурные ценности, культура.

Obloqulova O'g'ilo Abdurayim qizi

Samarkand State Institute of Foreign Languages
Department of Japanese Philology, Trainee Teacher
obloqulova97@mail.ruEXPRESSION OF NATIONAL AND CULTURAL VALUES IN ADVERTISING
TEXTS

ANNOTATION

This article examines the expression of national and cultural values in Japanese advertisements, viewing advertising as a multifaceted phenomenon that serves various aspects of social life and has multiple distribution channels. Furthermore, it is crucial to study the distinctive features of advertising through comparative analysis, as these characteristics set it apart from other types of information, particularly announcements. With this goal in mind, the article emphasizes how national and cultural values are reflected in the texts of Japanese advertisements.

Keywords: advertising, advertising content, nationality, cultural values, culture.

Yapon tilshunosligida reklama matnlarini milliy va madaniy qadriyatlar nuqtayi nazaridan tadqiq qilish o'ziga xos, chunki yapon reklamalarida milliy va madaniy o'ziga xosliklar reklama matni va obrazlarida muhim o'rin tutadi. Reklama nafaqat mahsulot yoki xizmatni targ'ib qilish, balki yapon xalqining qadriyatlari, urf-odatlar, dunyoqarashi va estetik tamoyillarini ifodalash vositasi sifatida ham xizmat qiladi. Bu reklamalarning iste'molchi bilan o'zaro muloqotida samimiyligni oshiradi va milliy xususiyatlarni global reklama sanoatida integratsiyalash imkonini beradi.

Milliy va madaniy qadriyatlarning reklama matnlarda ifodalanishi - Yapon reklamalarida ko'pincha milliy ramzlar va an'anaviy motivlarning keng qo'llanilishi kuzatiladi. Yapon reklama matnlari milliy va madaniy qadriyatlarni turli lingvistik va semiotik vositalar orqali aks ettiradi. Ushbu qadriyatlarning asosiy ifoda shakllariga quyidagilar kiradi:

Til va yozuv tizimi - Yapon tili yozuvi (kanji, hiragana, katakana va romaji) reklama matnlarining asosiy qismi bo'lib, u milliy o'ziga xoslikni ta'kidlaydi.

- **Kanji:** Reklama mazmunini chuqurroq ifodalashda ishlatiladi, masalan, harmoniya (和) yoki tabiat (自然) kabi tushunchalar reklama uchun mos kontekstda keltiriladi.

- **Katakana:** G'arb so'zlari va zamonaviy tushunchalarni kiritishda qo'llaniladi. Bu usul madaniy moslashuvchanlik va globallashuvni ko'rsatadi.

- **Hiragana:** Reklama matnlarini iliq va samimiy ko'rsatish uchun, ayniqsa, mahalliy bozor uchun mo'ljallangan reklamalarda qo'llaniladi.

An'anaviy madaniy ramzlar - Reklamalarda sakura (gilos gullari), fuji tog'i, kimono, yapon choy marosimi kabi an'anaviy madaniy ramzlardan foydalanish keng tarqalgan. Ushbu elementlar milliy faxr tuyg'usini uyg'otadi va iste'molchining e'tiborini jalb qiladi.

Mavsumiylik va tabiatga hurmat - Yaponiyada fasllar o'zgarishi reklamalarda muhim o'rin tutadi. Reklama kompaniyalari mahsulot yoki xizmatlarni mavsumiy jihatlarga mos holda targ'ib qilishadi. Masalan, bahor fasli reklamalarda gilos gullari, yozgi reklamalarda dengiz manzaralari ishlatiladi. Bu mavsumiy uyg'unlik (季節感) tamoyilini yoritadi.

Madaniy qadriyatlar va reklama mazmuni - Reklamalarda madaniy stereotiplar ham tez-tez uchraydi, bu esa o'z navbatida milliy identifikatsiyani mustahkamlaydi va kuchaytiradi. Misol uchun, samuray va ninja kabi tarixiy qahramonlar kuch, matonat va sodiqlik kabi qadriyatlarni namoyish etadi, shuningdek, Yapon oshxonasining elementlari bo'lgan sushi va sashimi madaniyatning noyob jihatlari ta'kidlaydi. Yapon reklamalari milliy qadriyatlarni ta'kidlash orqali xalqning jamiyatdagi roli va majburiyatlarini ko'rsatishga intiladi.

a) Jamoaviylik va uyg'unlik - Yapon jamiyatida wa (和) — jamoaviylik va uyg'unlik qadriyatlari muhim ahamiyatga ega. Reklama matnlari ushbu qadriyatlarni mustahkamlash uchun ishlatiladi. Masalan:

- Mahalliy mahsulotlarni reklama qilishda ularning jamiyat uchun foydaliligi ta'kidlanadi.

• Omoiyari (思いやり) — boshqalarga g'amxo'rlik tushunchasi orqali reklama mazmuni yanada iliqlik bilan yoritiladi.

b) Minimalizm va estetikani qadrlash - Yapon madaniyatida sodda va chiroyli narsalarga bo'lgan hurmat reklamalarda ham o'z aksini topadi. Minimalizm uslubidagi reklamalarda qisqa, ammo mazmunli matnlar, nozik grafikalar va rang uyg'unligi qo'llaniladi.

c) Tabiiylik va sog'lom turmush tarzi - Reklama matnlari milliy qadriyat sifatida sog'lom va tabiiy hayot tarzini targ'ib qiladi. Masalan, oziq-ovqat mahsulotlari reklamasida tabiiy ingredientlar, organiklik va ekologik tozalik ta'kidlanadi.

Yapon reklamalarida tilning qo'llanilishi, ayniqsa keigo (hurmat til) kabi hurmat darajasini ifodalovchi lingvistik elementlar orqali, ijtimoiy hierarxiya va madaniy qadriyatlarni ifodalashda muhim rol o'ynaydi. Masalan, mahsulot uchun ishlatiladigan "oyakusoku" ("vada beramiz") so'zi xizmat sifatini ta'kidlash uchun ishlatiladi. Bu tizim Yapon madaniyatida katta yoshdagi shaxslar yoki ustozlarga nisbatan ko'rsatiladigan hurmatni ta'minlaydi va reklama matnlarida ham keng qo'llaniladi. Reklama matnlarida yapon tilining o'ziga xos lingvistik jihatlari foydalaniladi:

Metaforalar va aforizmlar: Milliy qadriyatlarni aks ettirishda metaforalar keng qo'llaniladi. Masalan, "Har bir uchrashuv noyobdir" (Ichigo ichie), "Hayot oqimi" (命の流れ) yoki "To'lin oy" (満月) kabi iboralar reklamalarda poetik kayfiyat beradi.

Onomatopiya: Yapon tilida tovushlarni ifodalovchi so'zlar reklamalarda iste'molchining hissiyotlariga ta'sir qilish uchun ishlatiladi, masalan, fuwa-fuwa (yumshoqlikni) yoki pika-pika, kira-kira (yaltirashni) bildiradi.

Reklamalar Yaponiyadagi ijtimoiy qadriyatlarni va madaniy qarashlarni ham aks ettiradi. Masalan, mahsulotlar va xizmatlar taqdimotida yoshlar va kattalarni jalb qilishda foydalaniladigan til, uslub va kontent Yapon jamiyatining turli avlodlariga bo'lgan hurmatni ko'rsatadi. Shuningdek, Yapon reklamalarida korporativ ijtimoiy mas'uliyat tashabbuslari keng tarqalgan bo'lib, bu kompaniyalarning jamiyatga bo'lgan mas'uliyatini namoyish etadi.

Milliy va Madaniy Qadriyatlar

1. **Emansipativlik:** Yapon reklamalarida shaxslar o'rtasidagi tenglik va individual erkinlik qadriyati katta ahamiyatga ega. Bu qadriyat reklama matnlarda shaxslarning o'zini anglab olish va o'zini ifoda qilish imkoniyatini ta'kidlaydi.

2. **Moslashuvchanlik:** Yapon madaniyatida moslashuvchanlik qadriyati o'zgarishlarga moslashish va o'zini takomillashtirishga urg'u beradi. Reklama matnlarda bu qadriyat yengil va aniq til, vizual komponentlar va madaniy refleksiyalarni o'z ichiga oladi.

3. **Madaniy Qadriyatlar:** Yapon madaniyatida turli e'tibor qaratilgan madaniy qadriyatlar mavjud. Masalan, harmoniya, respektsizlik va uy qadriyatlari reklama matnlarda o'z aksini topadi. Bu qadriyatlar reklama matnlarning mazmuni va uslubini aniqlaydi.

Globalizatsiya sharoitida Yapon reklamalari xalqaro auditoriyaga ham ta'sir qilishga intiladi, bu esa madaniyatlararo muloqot va ta'sirchanlikning o'ziga xos jihatlarni o'rganishni talab qiladi. Reklamalar orqali Yapon madaniyatining global madaniyatlarga qanday ta'sir qilishi va qanday qabul qilinishi kabi masalalar tilshunoslik tadqiqotlarining diqqat markazida turadi. Yapon reklamalari global madaniyat elementlarini milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashtiradi. Masalan:

— G'arbiy uslubdagi reklamalarda ham yapon madaniyatining unsurlari saqlanib qoladi.

— Lotin alifbosidan foydalanish orqali xorijiy iste'molchilarni jalb qilishga intilish, biroq yaponcha o'ziga xoslikni yo'qotmaslikka harakat qilinadi.


Yapon tilshunosligida reklama matnlarining tadqiqi, til va madaniyatning o'zaro ta'sirini chuqurroq tushunishga yordam beradi va shu orqali Yapon jamiyatining madaniy xususiyatlarini va global kontekstdagi o'rnini yanada yaxshi anglash imkonini beradi. Tom McNamara (2005): "Japanese Ads: How the Japanese Advertise to Themselves" – Bu tadqiqot yapon reklamalari qanday yaratilgani va qanday qabul qilinganini o'rgangan. Ian Condry (2013): "The Soul of Anime: Collaborative Creativity and Japan's Media Success Story" – Ushbu kitob yapon media va reklama industriyasi haqida batafsil ma'lumot beradi. Nancy Snow (1998): "Japan's Information War" – Yaponiyaning reklama va media strategiyalari haqida ma'lumot beradi.

Yapon tilshunosligida yapon reklamalaridagi matnlarni o'rganish ko'p qirrali va chuqur ilmiy yo'nalishdir, bu til, madaniyat va kommunikatsiya o'rtasidagi murakkab o'zaro bog'liqlikni tahlil qilishga qaratilgan. Reklama matnlari tilni nafaqat mahsulot yoki xizmatlarni targ'ib qilishda, balki madaniy qadriyatlar va ijtimoiy me'yorlarni shakllantirishda ham qanday ishlatilishini tushunishga imkon beradi.

Shu sababli, yapon tilshunosligida reklama matnlarini o'rganish jamiyatning lingvistik va madaniy rivojlanish jarayonlarini chuqurroq tushunish imkonini beradi. Yapon reklamalarida milliy va madaniy o'ziga xosliklar o'zining ko'p qirrali ifodasi bilan ajralib turadi. Ular iste'molchilarni milliy qadriyatlar va madaniy boyliklar bilan bog'laydi. Reklama yaratishda madaniy unsurlarning mohirona qo'llanilishi nafaqat mahsulot yoki xizmatni targ'ib qiladi, balki madaniyatning global sahnada keng tarqalishiga hissa qo'shadi. Yapon reklamalarida milliy va madaniy o'ziga xosliklar reklama matnining semantik, vizual va hissiy qatlamlarida chuqur aks etadi. Ular nafaqat iste'molchini jalb qilish, balki yapon xalqining boy madaniy merosini kengroq ko'rsatishga xizmat qiladi. Zamonaviylik va an'anaviylikni uyg'unlashtirish orqali yapon reklamasi madaniy aloqa vositasi sifatida ham o'zining betakrorligini saqlab qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karrieva Yo.K., Nematova I.U., Masharipova A.A., Egamberdiyev Yo.I., Abdurahimov S.N., Baxronov A.Sh. Reklama faoliyatini tashkil etish: O'quv qo'llanma.-T.: TDIU, 2009.
2. Abdullaev Yo., Tulyaganova Sh. Menejment va marketing asoslari: O'quv qo'llanma.-T.: TMI, 2006.
3. Nematov I.U. Reklama faoliyatini tashkil etish: O'quv qo'llanma.-Toshkent: "VORIS NASHRIYOT", 2014.
4. Abdullayeva Sh., Nosirov P. Marketing – bozor iqtisodiyoti asosi.-Toshkent, 1994.
5. Алпатов В. М. Япония: язык и общество. – М. : Муравей, 2003.
6. В.В. История рекламы / В.В. Учёнова, Н.В. Старых.– М., 2002.
7. Уэллс У., Бернет Дж., Мориарти С. У. Реклама: принципы и практика: Пер. с англ. - СПб.:Издательство "Питер", 2010.
8. Edwards Ch. Mundy.Retail Advertising and Sales Promotion. – N.Y., 2001
9. Formanek S. Traditional Concepts and Images of Old Age in Japan // The Demographic Challenge: A Handbook about Japan. – Leiden : Brill, 2008.
10. 増田太次郎は「口上広告」という表現を用いる増田 2011
11. 藤森弘子 (2005) 「日本語学習者に見られる『弁明』、意味公式の形式と使用—中国人・韓国人学習者の場合—」『日本語教育』
12. 蒙韞 (2008) 「中国人日本語上級学習者の語用論的転移の一考察—依頼に対する断り表現のポライトネスの表し方から—」『国際開発研究フォーラム』



INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

ISSN: 2181-9297

www.tadqiqot.uz

Rakhimova Nodira Kamolovna

Navoi State University

Senior teacher of English Linguistics department

nodira.rahimova2018@gmail.com

INTERTEXTUALITY IN TRANSLATION: THEORETICAL INSIGHTS AND PRACTICAL APPROACHES



<https://doi.org/10.5281/zenodo.00000000>

ABSTRACT

Intertextuality, the phenomenon whereby texts reference, echo, or draw upon other texts, creating layers of meaning that challenge both readers and translators. In translation practice, intertextual references require much more than a literal conversion of words: they demand a deep understanding of cultural, historical, and literary allusions embedded in a source text to produce a target text that resonates with the new audience. Intertextuality, the intricate interplay of texts through references, allusions, and structural echoes, presents unique challenges and opportunities in translation practice. This article explores the theoretical foundations of intertextuality in translation, drawing on seminal works by Julia Kristeva, Roland Barthes, and Gérard Genette, while offering practical approaches for translators to navigate its complexities. The study examines how intertextual elements - ranging from explicit quotations to implicit cultural allusions - require translators to balance fidelity to the source text (ST) with accessibility for the target audience. Through case studies of literary and non-literary translations, the article proposes strategies such as annotation, substitution, amplification, and creative adaptation to address cultural and linguistic barriers. The findings underscore the importance of cultural competence and contextual analysis in preserving the richness of intertextual connections. This article contributes to translation studies by bridging theoretical insights with actionable techniques, offering guidance for translators and scholars engaged in cross-cultural communication.

Key words: Intertextuality, translation studies, intertextual elements, cultural competence, source text (ST), target audience, adaptation, allusion, intertextual equivalence, paratexts.

Raximova Nodira Kamolovna

Navoiy Davlat Universiteti

Ingiliz tilshunosligi kafedrasida katta o'qituvchisi

nodira.rahimova2018@gmail.com

TARJIMADA INTERTEKSTUALLIKNING VOQELANISHI: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY YONDASHUVLAR

ANNOTATSIYA

Intertekstuallik - bu matnlarning boshqa matnlarga ishora qilishi, ular bilan uyg'unlashuvi yoki ularning elementlaridan foydalanishi orqali yuzaga keladigan hodisa bo'lib, kitobxon va tarjimon oldiga mazmun qatlamlari borasida murakkab sinovlarni qo'yadi. Tarjima amaliyotida intertekstual

ishoralar soʻzma-soʻz tarjimadan ancha murakkab yondashuvni talab qiladi: manba matn (MM)ida mujassam boʻlgan madaniy, tarixiy va adabiy alluziya (ishora)larni chuqur tahlil qilish lozim, negaki tarjima qilingan matn yangi kitobxonlar auditoriyasi bilan mazmunan rezonans hosil qila oladi. Intertekstualik - bu matnlarning oʻzaro havola, alluziya va struktura (tuzilma)ning oʻzaro bogʻliqligi orqali amalga oshadigan murakkab taʼsiri tarjima jarayonida oʻziga xos qiyinchiliklar va shu bilan birga turli imkoniyatlarni yuzaga keltiradi. Ushbu maqolada intertekstualikning tarjimadagi nazariy asoslari Yuliya Kristeva, Roland Bart hamda Jerar Jenettning qimmatli asarlari asosida tahlil qilinadi, shuningdek, tarjima jarayonida mavjud murakkabliklarni yengib oʻtishda bir qator amaliy yondashuvlar tarjimonlar eʼtiboriga havola etiladi. Shuningdek, maqolada aniq iqtiboslardan tortib, yashirin madaniy alluziyalargacha boʻlgan intertekstual elementlar tarjimon tomonidan MMga sodiq qolishi va kitobxonlar uchun tushunarli boʻlishi oʻrtasidagi muvozanatni saqlash zaruratini yuzaga chiqarishi tahlil qilinadi. Adabiy va noadabiy kontekstga xos matnlarni tahlil qilish orqali maqolada quyidagi strategiyalar taklif qilinadi: izohlash, almashtirish, kengaytirish va ijodiy moslashtirish - bu usullar madaniy va lingvistik toʻsiqlarini yengib oʻtishda samarali vosita boʻlib xizmat qiladi. Ushbu maqola tarjima sohasidagi nazariy bilimlarni amaliy uslublar bilan uygʻunlashtirga hissa qoʻshadi hamda tarjimonlar va madaniyatlararo muloqotda ishtirok etuvchi tadqiqotchilar uchun foydali koʻrsatmalar beradi.

Kalit soʻzlar: Intertekstuallik, tarjimashunoslik, intertekstual elementlar, madaniy kompetensiya, manba matn (MM), kitobxon auditoriyasi, adaptatsiya, alluziya (ishora), intertekstual ekvivalentlik, paratekst.

Рахимова Нодира Камоловна

Навоийский государственный университет

Старший преподаватель кафедры лингвистики английского языка

nodira.rahimova2018@gmail.com

ИНТЕРТЕКСТУАЛЬНОСТЬ В ПЕРЕВОДЕ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ПРАКТИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ

АННОТАЦИЯ

Интертекстуальность - это явление, при котором тексты ссылаются на другие тексты, перекликаются с ними или используют их элементы, создавая уровни смысла, бросающие вызов как читателям, так и переводчикам. В переводческой практике интертекстуальные отсылки требуют гораздо больше, чем дословный перевод слов: необходим глубокий анализ культурных, исторических и литературных аллюзий, заложенных в исходном тексте, чтобы создать целевой текст, резонирующий с новой аудиторией. Интертекстуальность как сложное взаимодействие текстов посредством ссылок, аллюзий и структурных перекличек представляет собой уникальные вызовы и возможности для переводчиков. В данной статье рассматриваются теоретические основы интертекстуальности в переводе на основе ключевых работ Юлии Кристевой, Ролана Барта и Жерара Женетта, а также предлагаются практические подходы к преодолению ее сложностей. В исследовании анализируется, как интертекстуальные элементы - от прямых цитат до скрытых культурных аллюзий - требуют от переводчика соблюдения баланса между верностью исходному тексту (ИТ) и доступностью для целевой аудитории. Посредством анализа литературных и нелитературных переводов в статье предлагаются стратегии, такие как аннотирование, замещение, амплификация и креативная адаптация для преодоления культурных и языковых барьеров. Полученные результаты подчеркивают важность культурной компетентности и контекстуального анализа для сохранения богатства интертекстуальных связей. Статья вносит вклад в переводоведение, соединяя теоретические положения с практическими методами, предлагая ориентиры как для переводчиков, так и для исследователей межкультурной коммуникации.

Ключевые слова: Интертекстуальность, переводоведение, интертекстуальные элементы, культурная компетенция, исходный текст (ИТ), целевая аудитория, адаптация, аллюзия, интертекстуальная эквивалентность, паратексты.

INTRODUCTION

Texts seldom exist in isolation. In every narrative, poetic verse, or even casual conversation, there is a network of influence, adaptation, echo, and dialogue. This feature, known as intertextuality, was first systematically explored by literary theorists like Julia Kristeva (1966) and Roland Barthes (1977) during the latter half of the twentieth century. J. Kristeva argued that the meaning of any text is not generated solely by its internal structure but is also formed by its myriad relationships to other texts. She also claimed that texts are not isolated creations, but rather exist in a web of cultural and literary references. According to her point of view, any kind of a text is constructed as a mosaic of quotations; any text is the absorption and transformation of another. On the basis of this strong viewpoint we can state that meaning is not fixed within a single text; instead, it's formed through the relationships and dialogues between texts, and through the reader's personal background and cultural context. Moreover, there is no any argue that every reading of a text is unique, shaped by the layers of reference that the reader brings to it. So this statement intensely reflects a poststructuralist or intertextual approach to literary theory - centered around the idea that the reader, context, and textual connections all contribute to meaning.

Intertextuality confronts translators with a formidable array of challenges. Translators must not only bridge linguistic divides but also capture the often subtle interplay of echoes, allusions, and reinventions inherent in the source material. For example, a line of dialogue that alludes to a well-known myth, historical event, or even another literary work might possess connotations that are lost if rendered literally. In such cases, the translator must decide whether to preserve the explicit textual reference or to recreate the allusion in a manner that resonates with the target audience's cultural and literary contexts.

The rise of global communication has only intensified these challenges. With literature, film, and other media increasingly crossing linguistic borders, the relevance of effective intertextual translation has never been more critical. So this article examines the theoretical underpinnings of intertextuality in translation and proposes practical strategies for addressing its challenges. It begins by defining intertextuality and its relevance to translation studies, followed by an exploration of its theoretical foundations. The article then discusses the practical difficulties translators face and offers strategies - annotation, substitution, amplification, and creative adaptation - illustrated with case studies from literary and non-literary texts. The discussion is grounded in established scholarship, ensuring a robust framework for understanding and applying intertextual translation techniques.

Theoretical foundations of intertextuality

In literature, texts rarely stand alone. They converse with other texts - echoing themes, imitating styles, parodying motifs, or directly quoting famous lines. As Roland Barthes famously stated, "a text is a tissue of quotations drawn from the innumerable centres of culture." This textual layering creates intertextuality, a vital element that enhances a text's richness and meaning.

Intertextuality, a term conceptualized and popularized by Julia Kristeva (1980), refers to the ways in which texts are shaped by and interact with other texts through quotation, allusion, parody, pastiche, or reinterpretation. According to her proposed idea texts are not isolated entities but part of a broader dialogic network. Kristeva built her theory on Mikhail Bakhtin's (1981) notion of dialogism, which posits that texts are inherently relational, engaging with other texts through reference or reinterpretation. Roland Barthes (1977) further described texts as a "tissue of quotations," suggesting that all texts draw from a cultural archive. Gérard Genette (1997) categorized intertextual relationships into types such as quotation, allusion, and pastiche, providing a framework for analyzing textual interconnections.

According to S. Stewart (1980) intertextuality inherently relies on the presence of established linguistic, literary, or cultural traditions, drawing upon a continuum of existing forms and conventions. At the same time, each specific instance of intertextual reference not only sustains this

continuity but also actively contributes to the shaping of tradition - either by reinforcing its values or by critically engaging with and challenging them. L. Venuti states (2009) that intertextuality fundamentally depends on the conditions of reception, where the reader's role becomes critical. According to E. Gutt (1991) a relevance-theoretic approach can be applied to translate intertextual references in literary contexts, using concepts from Relevance Theory to guide decision-making. He states that "Intertextual phenomena are particularly challenging because they rely on the audience's ability to recognize implicit information. Relevance Theory offers a principled framework for determining how such references might be preserved or explicated in translation."

To fully engage with an intertextual reference, the reader must not only identify the embedded literary or cultural source, but also possess the interpretive skills to evaluate its relevance - both within the immediate context of the new text and within the broader literary tradition it invokes. Susan Stewart's insights on literary allusion can be extended to intertextuality as a whole; she asserts that allusion reflects not only a connection to tradition, but also the varying degrees of accessibility individuals have to that tradition. Allusion, in this view, signals different levels of readership and access to cultural knowledge. Consequently, intertextuality draws attention to the sociocultural dynamics of reception, highlighting either the presence of cultural literacy essential to sustaining tradition or revealing its absence and the emergence of alternative modes of understanding.

Categories of intertextuality

Intertextuality can manifest through various mechanisms, each with its implications for translation practice. Some of the key categories include:

1. Direct quotation: Where a text explicitly cites words or passages from another work e.g., Shakespeare in English literature or the Qur'an in Arabic texts.
XITOIY TILIDAGI FIZIK ATAMALAR SHAKLLANISHINING LINGVISTIK TAMOYILLARI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.00000000>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqola Xitoy tilidagi fizik atamalarni shakllantirishning lingvistik tamoyillarini o'rganishga bag'ishlangan. Maqolada Xitoy tilidagi ilmiy terminologiyaning shakllanishi, morfologiya, fonetika va semantika kabi lingvistik yondashuvlar orqali tahlil qilinadi. Shuningdek, semantik kengayish jarayonlari, yangi ilmiy tushunchalarni ifodalashda mavjud so'zlarning yangi ma'nolar bilan boyitilishi ham tahlil qilinadi. Xitoy tilining maxsus grammatik va stilistik xususiyatlarini o'rganilib, yangi fizik atamalarni shakllantirishda qanday metodlar va yondashuvlar qo'llanilishini ko'rsatiladi. Shuningdek, xitoy tilidagi terminologiya tizimining milliy va xalqaro ilmiy hamkorlikda muhim rol o'ynashi ta'kidlanadi. Maqola ilmiy tilshunoslik va terminologiya sohalarida yangi tadqiqotlar olib borayotgan olimlar uchun foydali manba bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Fizik ilmiy terminlar, semantik kengayish, xitoy tilining o'ziga xosligi, fonetika, morfologiya, semantika, terminologik shakllantirish.

Бекмуродова Феруза Дилмурат кизи

Ташкентского государственного университета Востоковедения,
Магистрантка 1-го года обучения

ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ФОРМИРОВАНИЯ ФИЗИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ В КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ

АННОТАЦИЯ

Данная статья посвящена изучению лингвистических принципов формирования физических терминов в китайском языке. В статье анализируется формирование научной терминологии китайского языка через такие лингвистические подходы, как морфология, фонетика и семантика. Также рассматриваются процессы семантического расширения, когда существующие слова получают новые значения для выражения новых научных понятий. Изучаются грамматические и стилистические особенности китайского языка, а также методы и подходы, используемые при формировании новых физических терминов. В статье также подчеркивается важная роль системы терминологии китайского языка в национальном и международном научном сотрудничестве. Эта статья будет полезным источником для ученых, занимающихся новыми исследованиями в области научной лингвистики и терминологии.

Ключевые слова: Научные термины в физике, семантическое расширение, особенности китайского языка, фонетика, морфология, семантика, терминологическое формирование.

Bekmurodova Feruza Dilmurat kizi
Tashkent State University of Oriental Studies,
A first-year master's student

LINGUISTIC PRINCIPLES OF THE FORMATION OF PHYSICAL TERMS IN THE CHINESE LANGUAGE

ABSTRACT

This article is dedicated to studying the linguistic principles of forming physical terms in the Chinese language. It analyzes the formation of scientific terminology in Chinese through linguistic approaches such as morphology, phonetics, and semantics. The article also discusses the processes of semantic expansion, where existing words are enriched with new meanings to express new scientific concepts. The grammatical and stylistic features of the Chinese language are examined, along with the methods and approaches used in the formation of new physical terms. Furthermore, the article emphasizes the important role of the Chinese terminology system in national and international scientific cooperation. This article serves as a valuable resource for researchers conducting new studies in the fields of scientific linguistics and terminology.

Key words: Scientific terms in physics, semantic expansion, peculiarities of the Chinese language, phonetics, morphology, semantics, terminological formation.

O'tgan asrning yarmidan boshlab, zamonaviy xitoy tilining terminologiyasini yanada chuqurroq lingvistik nazariy tahlil qilish zaruriyati paydo bo'ldi. Terminologiya masalalari zamonaviy lingvistik tadqiqotlarning eng dolzarb yo'nalishlaridan biriga aylandi, bu masala nafaqat xitoy, balki dunyo olimlari tomonidan ham o'rganilmoqda. Bunga tilda terminologiyaning ahamiyatining ortishi va zamonaviy xitoy tilida atamalarni shakllantirish, rivojlantirish va funksiyalash jarayonlarining yetarlicha o'rganilmaganligi sabab bo'ldi. Terminologik qatlam xitoy tilining yanada dinamik elementiga aylanyapti, bu esa o'z navbatida atamalarni yanada chuqurroq va analitik tarzda o'rganishni talab qiladi. Xitoy tilida atamalarni shakllantirishning qonuniyatlarini, ularning strukturasini va semantikasini o'rganish zamonaviy xitoyshunoslikning eng muhim vazifalaridan biriga aylandi.

Xitoy tili tobora ko'proq axborot bilan to'ldirilmoqda, doimiy ravishda yangi atamalar va terminologik ifodalar paydo bo'lmoqda. Ilm-fan va texnikaning zamonaviy rivojlanishi, inson faoliyatining barcha sohalarini kompyuterlash, Xitoyning dunyo iqtisodiyotiga faol integratsiyasi ko'plab ilmiy fanlar tushunchalar tizimini tubdan qayta qurilishiga va yangi bilim sohalarining paydo bo'lishiga sabab bo'ldi, bu esa yangi tushunchalar sonining ortishiga va yangi nomlanishlarga ehtiyojni keltirib chiqardi.

Xitoy terminologiyasining hozirgi rivojlanish bosqichi uning dunyoshunoslikka integratsiyalashuvi bilan tavsiflanadi. Xitoy terminologiyasida jahonning yetakchi terminologik maktablarining eng yangi uslublari va yutuqlaridan foydalaniladi. So'nggi yillarda xitoy terminologiyasi an'analarini, shuningdek, Xitoyda va xorijda zamonaviy terminologik tadqiqotlar natijalarini hisobga olgan holda zamonaviy Xitoyning terminologik faoliyatining asosiy vazifalari belgilandi.

Zamonaviy ilm-fan va texnika sohalarining rivojlanishi, ayniqsa fizika kabi murakkab fanlarda, yangi ilmiy atamalarni yaratishni talab qiladi. Atamalar ilmiy fikrni aniq va tushunarli ifodalash uchun zarur bo'lib, til va madaniyatni o'zaro bog'lashda muhim ahamiyat kasb etadi. Xitoy tilidagi fizik atamalarning shakllanishi, o'zining alohida lingvistik tamoyillari bilan ajralib turadi. Bu atamalarni shakllantirish jarayoni xitoy tilining morfologiyasi, fonetikasidan tortib, semantikasiga qadar turli lingvistik elementlarni o'z ichiga oladi.

Xitoylik olim Yan Ven tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalariga asoslanib, shuni ta'kidlash kerakki, xitoy tilidagi eng ko'p o'zlashgan so'zlar ilmiy va texnik lug'atga to'g'ri keladi. Qo'shma terminlar o'zak morfemalardan iborat bo'lib, ular bir necha leksemalardan tashkil topgan terminlardir. Xitoy tilining hosila terminlari esa murakkab va sodda komponentlardan iborat bo'lib, ular ko'p komponentli atamalardir.

Xitoy tilidagi fizik atamalar shakllanishining lingvistik tamoyillari haqida so'z yuritishda, asosiy e'tibor tilning o'ziga xos struktura va tuzilishlariga qaratiladi. Xitoy tilida ilmiy atamalar ko'pincha quyidagi tamoyillar asosida shakllanadi:

Xitoy tilining morfologiyasi va fizik atamalar. Xitoy tili morfologik jihatdan boshqa tillardan farq qiladi. Bu tilning so'z yasash tizimi, xususan, ilmiy atamalarni yaratishda muhim rol o'ynaydi. Xitoy tilidagi fizik atamalar ko'pincha ikki yoki undan ortiq iyeroglif (xitoycha belgilar) birikmalaridan tashkil topadi. Har bir iyeroglif o'z ma'nosiga ega bo'lib, yangi atama shakllanishida bir-biriga yaqin ma'no va kontekstni beradi. Misol uchun, “elektr” (电, diàn) va “kuch” (力, lì) so'zlari birlashib, “elektr kuchi” (电力, diànlì) atamasini tashkil etadi. Bu misolda, har bir so'z o'z semantik ma'nosini saqlab qoladi, ammo birgalikda ular yangi ilmiy tushunchani ifodalaydi. Shuningdek, “optika” (光学, guāngxué) atamasi “yorug'lik” (光, guāng) va “o'rganish” (学, xué) degan ma'nolarni birlashtiradi.

Xitoy tilida atamalarni shakllantirishda morfologik prinsiplarga ko'ra, ko'pincha har bir element aniq bir fizik tushunchani ifodalash uchun ishlatiladi. Bu tizim atama tuzishda aniq va qisqa ifodalashni ta'minlaydi, shuning uchun ilmiy matnlarda tez-tez qo'llaniladi.

Kalka (Kalkirovka). Xitoy tiliga ilmiy atamalarni kiritish boshlashda, ba'zan ingliz yoki boshqa tillardan so'zlar to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilinadi. Bu jarayon “kalka” deb ataladi, ya'ni so'zlar yoki iboralar morfologik jihatdan tarjima qilinadi. Misol uchun, “kompyuter” so'zi xitoy tilida “计算机” (jìsuànjī) deb ataladi, bu “hisoblash” va “mashina” degan ma'nolarni anglatadi.

Xitoy tilidagi fizik atamalarda fonetik yondashuv. Xitoy tilida ilmiy atamalarni shakllantirishda fonetik usullar ham muhim rol o'ynaydi. Xitoyda ko'plab ilmiy atamalar, ayniqsa, xorijiy tillardan olingan, fonetik tarzda o'zgartirilgan. Bu jarayon “kalka” (kalkirovka) deb ataladi va ko'pincha ingliz yoki boshqa tillardan kelgan so'zlarning talaffuzi o'zgarib, xitoy tiliga moslashtiriladi. Misol uchun, “kompyuter” (计算机, jìsuànjī) so'zi xitoy tiliga fonetik tarzda kiritilgan. Bu atama “hisoblash” (计算, jìsuàn) va “mashina” (机, jī) so'zlarining birikmasidan hosil bo'lgan, lekin inglizcha “computer” so'zining fonetik variantini saqlaydi.

Xitoy tilida fizika sohasidagi ba'zi atamalar boshqa tillardan, xususan, ingliz tilidan fonetik tarzda kiritiladi. Misol uchun, inglizcha “laser” (Light Amplification by Stimulated Emission of Radiation) so'zi xitoy tiliga fonetik tarzda qabul qilingan va “激光” (jīguāng) shaklida ishlatiladi. Bu atama, aslida, “激” (jī) – “stimulyatsiya” yoki “quvvat” degan ma'noni, “光” (guāng) esa “yorug'lik” degan ma'noni anglatadi. Bu holda, “laser” so'zining fonetik talaffuzi saqlanadi, lekin xitoy tiliga mos ravishda yangi ilmiy tushuncha bilan boyitilgan.

Bu misolda, inglizcha atama “laser” fonetik tarzda Xitoy tiliga kiritilib, uning fizika sohasidagi aniq ma'nosini aks ettiruvchi morfologik tuzilma hosil qilingan.

Shuningdek, ba'zi yangi fizik atamalar xitoy tilining fonetik tizimi bilan birga, o'ziga xos talaffuzga ega bo'lishi mumkin. Bunday yondashuv xalqaro ilmiy hamjamiyat bilan aloqalarni osonlashtiradi va yangi ilmiy tushunchalarni qabul qilishni tezlashtiradi.

Semantik kengayish va yangi atamalar. Fizik atamalarni shakllantirishda semantik kengayish ham muhim ahamiyatga ega. Ba'zan mavjud xitoycha so'zlar yangi ma'no bilan kengaytiriladi. Masalan, “光” (guāng) so'zi aslida “yorug'lik” degan ma'noni bildiradi, ammo fizika fani kontekstida bu so'z “optika” yoki “yengil nurlar”ni ifodalash uchun ishlatiladi. Bu semantik kengayish jarayoni atamaning o'zgaruvchan ma'nosini ko'rsatadi va yangi ilmiy tushunchalar va g'oyalarni anglatadi.

Shu bilan birga, yangi ilmiy atamalarni yaratishda xitoy tili, mavjud so'zlarni o'zining semantik imkoniyatlariga qarab yangi ma'no bilan boyitadi. Bu jarayon atamaga yangi ilmiy qarashlarni kiritishga yordam beradi va uning tushunilishini kengaytiradi.

“Atom” tushunchasi yunon tilidagi “bo'linmas” ma'nosini anglatuvchi so'zdan kelib chiqqan. Endi esa bu tushuncha xitoy tilida qanday ifodalanishini ko'rib chiqamiz. **A.I. Kobzevning** tadqiqotlariga ko'ra, xitoyliklarda atomistik nazariya bo'lmaganligi sababli, “atom” tushunchasini sanskrit tilidan turli iyerogliflar yordamida tarjima qilishga to'g'ri kelgan. Bu iyerogliflar odatda juda kichik narsalarni ifodalagan: 微 (eng nozik/eng kichik), 极微 (nihoyatda nozik/eng kichik, fikran

anglanadigan atom), 尘 (chang/tuproq), 邻虚 (bo'shliqqa yaqin). Faqat XX asrda “atom” tushunchasining transkripsiyasi hamda ma’nosini aks ettiruvchi yangi atama paydo bo’ldi. Hozirda aynan shu atama “atom” tushunchasini ifodalash uchun ishlatiladi. 原 yuán – kelib chiqish, boshlang’ich nuqta; ibtidoiy, dastlabki; 子 – zarracha). Shunday qilib, atom xitoy tilidagi va ilmiy dunyoqarashga boshlang’ich, ibtidoiy zarracha sifatida singib ketdi. Shu bilan birga, qiziq savol tug’iladi: xitoyliklar “elementar zarrachalar” tushunchasini qanday tarjima qilishgan, chunki bu tushuncha o’zida tarkibiy qismlarga ajralmaydigan ya’ni ilgari “atom” tushunchasi bilan ifodalangan narsaga o’xshash obyektlarni anglatadi. Buning uchun 基本粒子 jīběn lìzǐ atamasi olingan, bu yerda 基本 [jīběn] – asos, fundamental, ildiz, va faqat fizika sohasida – elementar. Ya’ni, o’zbek tilida “elementar zarrachalar” tushunchasi nimadir eng sodda, eng kichik narsalar bilan bog’liq bo’lsa, xitoy dunyoqarashida ular “asosiy”, “fundamental” zarrachalar sifatida qabul qilingan. Ko’rinib turibdiki, tarjima uchun ingliz tilidagi **elementary particles** so’zining sinonimi – **fundamental particles** – fundamental zarrachalar atamasi olingan, bu so’z lotincha **fundo** – “asos solmoq” so’zidan kelib chiqqan.

Xususan 粒子 lìzǐ so’zi misolida ko’rib chiqsak bu yerda 粒 iyeroglifi “don”, “granula” yoki “zarracha” degan ma’nolarni bildiradi, bu esa zarrachalar xitoyliklar tasavvurida dumaloq shaklda, urug’ yoki don kabi tasavvur qilinishidan dalolat beradi.

Atom yuqorida aytilganidek, 原子 yuánzǐ deb ataladi. Atom yadrosi esa 原子核 yuánzǐ hé bo’lib, bu yerda 核 hé – “yadro”, so’zma-so’z “mag’iz” degan ma’noni anglatadi. Atom yadrosini tashkil etuvchi zarrachalar – nuklonlar – esa 核子 hézǐ deb ataladi, bu esa aniq kalkadir.


Ko’rib chiqilganidek, xitoy ilmiy tilining asosiy xususiyati uning atamalar ma’nolarini vizual tarzda ifodalashga intilishidadir. Hatto xitoy tiliga kalkalangan atamalar ham qo’shimcha ma’no yuklanib, ularni anglatuvchi obyektlarning mohiyatini aniqroq idrok etishga olib keladi. Masalan, mezon (介子) yoki neytron (中子) atamalarida bo’lgani kabi.

Fizik hodisalarning “terminologik vizualizatsiyasi” ning eng yorqin namunalari, dunyoning an’anaviy tasviri va xitoy falsafasidagi yin va yang tushunchalari bilan bog’liq. Masalan, musbat va manfiy ionlar hamda qutblar shunday atalganki, ular fizik jarayonlarning ilmiy tildagi ifodasini yanada aniqroq aks ettiradi. Shu bilan birga, arxaik tafakkurning olam unsurlariga asoslangan tilga moyilligi haqida ham eslash mumkin.

Demak, Xitoy madaniyatiga xos bo’lgan fazoviy-majoziy fikrlash uslubi Yevropa ilm-fan tilidan olingan zamonaviy ilmiy terminologiyada ham namoyon bo’ladi

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Каримов А.А. Некоторые теоретические аспекты образования терминов китайского языка. ТошДШИ илмий журналы «Шаркшунослик». 2015 г.
2. Очиров О.Р. Вопросы китайского терминоведения: от традиции упорядочения названий к современной теории. Китай 2015 г.
3. Doniyorov R. O’zbek tili texnik terminalogiyasining ayrim masalalari. Toshkent.1997.
4. Фролова О.П. Словообразование в терминологической лексике современного китайского языка. – Новосибирск: Наука, 1981.
5. Гринев Гриневич С. В. Терминоведение: учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. М.: Изд. центр «Академия, 2008. 304с.
6. Иванов В. В. Терминология и заимствования в современном китайском языке. М.: Наука, 1973.135 с.
7. Еремеев, Кобзев, 2009 – Еремеев В.Е., Кобзев А.И. Физические науки. Механика. Духовная культура Китая. Наука, техническая и военная мысль, здравоохранение и образование. М., 2009.
8. 陈思.“中国语言中的科学术语”, 2011.
9. 张磊. “汉语中的科学术语的形成：理论与实践”2014.
10. 全国科学技术名词审定委员会. “物理学名词 (基础物理学部分).” 中国科技术语, 2011.



INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

ISSN: 2181-9297

www.tadqiqot.uz

Boymurodova Dilafruz Dilshod qizi

Samarqand davlat chet tillar instituti

Yapon filologiyasi kafedrasi stajyor-o'qituvchisi

YAPON TILIDA YOZUV TIZIMI RIVOJLANISHI VA HIRAGANA, KATAKANA, KANJILARNING FONETIK KATEGORIYALARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.00000000>

ANNOTATSIYA

Bu maqola Yapon tilining yozuv tizimi shakllanishi va rivojlanishini tahlil qiladi. Kanji – xitoycha iyerogliflarning Yaponiyaga kirib kelishi va mahalliy til tizimiga moslashtirilishi jarayoni, fonetik yozuv tizimlari – hiragana va katakana alifbosining paydo bo'lish sabablari haqida, hiragana ko'proq ayollar adabiyoti va norasmiy yozishmalarda ishlatilgani, katakanada esa xorijiy so'zlarni, ta'kidni va texnik atamalarni ifodalanishi, shuningdek, har uch yozuv tizimining fonetik kategoriyalari – tovush birliklari va ularning ifodalanish uslublari – fonologik tahlil asosida sharhlanadi. Maqola yapon tilshunosligi, grafemika va sotsiolingvistika sohalarida izlanish olib borayotgan mutaxassislar uchun muhim nazariy hamda amaliy ahamiyatga egadir.

Kalit so'zlar: Hiragana, katakana, piktogramma, fonetik xususiyatlar, ekvivalentlik, xorij so'zlari, texnik atamalar, ayollar alifbosi.

Боймуродова Дилафруз Дилшод кизи

Самаркандский государственный институт иностранных языков

Кафедра японской филологии, стажёр-преподаватель

РАЗВИТИЕ ЯПОНСКОЙ ПИСЬМЕННОСТИ И ФОНЕТИЧЕСКИХ КАТЕГОРИЙ ХИРАГАНЫ, КАТАКАНЫ И КАНДЗИ

АННОТАЦИЯ

Статья посвящена всестороннему анализу становления и эволюции системы письменности японского языка. В исследовании подробно рассматривается процесс заимствования китайских иероглифов (кандзи) и их адаптация к структуре японского языка. Освещаются причины формирования фонетических алфавитов хираганы и катаканы, а также их социально-культурные функции: использование хираганы преимущественно в женской литературе и в неофициальной переписке, применение катаканы для передачи заимствованных слов, акцентирования отдельных элементов текста и оформления технических терминов. Отдельное внимание уделяется фонетическим категориям всех трёх систем письма, а также принципам отображения звуковых единиц на основе фонологического анализа. Материал статьи представляет теоретическую и практическую ценность для специалистов в области японского языкознания, графематики, социолингвистики и сопоставительных исследований письменных систем.

Ключевые слова: хирагана, катакана, пиктограмма, фонетические особенности, эквивалентность, заимствованные слова, технические термины, женский алфавит.

Boymurodova Dilafruz Dilshod qizi

Samarkand State Institute of Foreign Languages
Department of Japanese Philology, Trainee Teacher

THE DEVELOPMENT OF THE JAPANESE WRITING SYSTEM AND THE PHONETIC CATEGORIES OF HIRAGANA, KATAKANA, AND KANJI

ABSTRACT

This article provides a comprehensive analysis of the formation and evolution of the Japanese writing system. The study thoroughly examines the process of borrowing Chinese characters (kanji) and their adaptation to the structure of the Japanese language. It highlights the reasons behind the development of the phonetic scripts hiragana and katakana, as well as their socio-cultural functions: the predominant use of hiragana in women's literature and informal correspondence, and the application of katakana for the transcription of loanwords, emphasis, and technical terms. Special attention is given to the phonetic categories of all three writing systems and the principles of representing phonological units based on phonological analysis. The material presented in the article holds both theoretical and practical value for specialists in Japanese linguistics, graphemics, sociolinguistics, and comparative studies of writing systems.

Keywords: hiragana, katakana, pictogram, phonetic features, equivalence, loanwords, technical terms, women's script.

Tillarni o'rganishga tobora qiziq oshayotgan bugungi kunda har qanday chet tilini mukammal o'rganish asosiy masala sanaladi. Shu o'rinda prezidentimiz Sh. Mirziyoyev yoshlar ta'lim va tarbiyasiga alohida e'tibor berib quyidagilarni ta'kidlaydi: "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz" [1, 6].

Ko'pgina chet tillari qatorida yapon tilini o'rganuvchilar soni ham kundan-kunga ko'paymoqda. Til o'rganish chog'ida tillardagi farqli va o'xshash jihatlarni va til tarixi, kelib chiqish manbaalari haqida ham kerakli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lib boriladi. Yapon tilini uzoq vaqtlik izlanishlar natijasiga tayangan holda kareys tili bilan qardosh til ekanligini va ikki tilning ham turkiy, mo'g'ul va tungus-manchjur tillari mansub bo'lgan oltoy tillar oilasiga kirishini ayta olish mumkin. Bundan ko'rinib turibdiki yapon yozuv tizimining ilk unsurlarini Kareya yarim oroli orqali Yaponiyaga kirib kelgan Xitoycha kanjilar yapon ieroglif yozuvi uchun asos bo'lgan. Til haqida gapirganda uning yozma va og'zaki shakllari aytish joiz. Til va yozuvning rivojlanishi davlatning adabiyoti, madaniyati, tarixiy o'zgarishlariga sabab bo'luvchi omil hisoblanadi. Yapon yozuv tizimi o'zining uzoq tarixi davomida sezilarli o'zgarishlarga duch keldi. Yapon yozuv tizimi 4 xil ko'rinishda namoyon bo'ladi. Kanji, Hiragana, Katakana, Romajilarni ko'rishimiz mumkin.

Yapon ierogliflari Xitoycha kanjilar yordamida yapon ierogliflarinio'rganish uchun rasmiy yozuvlar misolida talqin etiladi. Xan belgilar singari, kanjilarning kelib chiqishi ham tabiatdagi unsurlarni ifodalashlik bilan boshlanib bular; quyosh, oy va daraxtlar kabilarni ifodalash uchun yozuvga o'xshash piktogrammalar yoki tasvirlar jamlanmasi hisoblanadi. Vaqt o'tishi bilan kanji g'oyalar va hissiyotlar kabi mavhumroq tushunchalarni ifodalash uchun rivojlangan. "Kanji - Xitoyda paydo bo'lgan va Yaponiyaga V asrda kiritilgan logografik yozuv tizimi" Kanji "xitoycha belgi" degan ma'noni anglatadi (kan, mi va ji, ha). Yaponlar kanjilar bilan tanishishidan 3000 yil ilgari ham mavjud bo'lgan va yapon orollarida yashovchi xalq buni o'zlashtirishi uchun ham 1000 yil kerak bo'lgan. Ko'p yillar davomida yapon tili xitoy tilini ta'siri ostida rivojlanib keldi. Eng muhim o'zgarishlardan biri Ikkinchi Jahon urushidan keyin kanji belgilarining soddalashtirilishi edi. Ushbu soddalashtirish yozuv tizimini o'rganish va undan foydalanishni osonlashtirishga qaratilgan islohot edi.

Hiragana mahalliy yaponcha soʻzlar va grammatik zarralar, kanji ekvivalenti boʻlmagan soʻzlar uchun qoʻllaniladigan birlik sifatida 1946-yildan boshlab rivoj topgan. Hiragana alifbosi kanjilarning soddalashtirilgan va oddiyoq shakli hisoblanadi. Hiragana fonetik birlikga asoslangan alifbo boʻlib 46 boʻgʻindan iborat grafikadan tashkil topgan.. Hiraganalashtirish natijasida

- mahalliy soʻzlarni yozilishi osonlashdi;
- grammatik qismlar yaʼni feʼl, koʻplik qoʻshimchalarini aniq ifodalash imkoni tugʻildi;
- ayollar, ruhoniylar va oddiy qatlam yozish va oʻqishni oʻrganishiga zamin yaratdi (kanjidan zodogonlar foydalanishgan)

Hiragana dastlab ayollar oradida keng tarqalib (女手 onna-de, ayollar yozuvi) ham deb ataladi. Vaqt oʻtishi bilan erkaklar ham foydalana boshladi, maktablarda ham boshlangʻich sinf oʻquvchilari ham foydalana boshlashdi. Hozirgi kunga kelib yaponlarning rasmiy yozuv tizimi hisoblanadi. Rasmiy tizim boʻlsada kanji bilan birgalikda ham qoʻllaniladi va kanji soʻzning asosiy qismini, hiragana esa grammatik qoʻshimchalar, feʼl va sifatlarning oxangli qismlari va kanji boʻlmagan soʻzlarni ifodalash uchun ishlatiladi.

Katakana esa xorijiy soʻzlar va urgʻu uchun ishlatiladi. Katakana alifbosining rivojlanishi IX asrga borib taqaladi va bu yapon tilining oʻz yozuviga ega boʻlmaganligidir”. [2, 136]. Boshida matnlarning tarjima qilish chogʻida avvalo xitoy tilida berishni boshlashdi va keyinchalik fonetik tovushlar bilan farqlab berishni boshlashdi. “Buning ilk unsurlarini VIII asrga tegishli Manyoushi sheʼriy toʻplamida koʻrishimiz mumkin” [3, 269-299]. Katakana sanskrit tili va xitoy tili matnlarini oʻqish uchun Buddist roxiylari tomonidan yaratilgan. Dastlab alifbo erkaklar tomonidan ishlatilgan boʻlib rasmiy hujjatlarda koʻp uchratishimiz mumkin.

Meyji (1868-1912) davrida Yaponiyaga gʻarb madaniyatining kuchli taʼsiriga duch keladi. Shu vaqtdan boshlab chet el soʻzlari va nomlarini yozish uchun katakana alifbosidan foydalanish boshlandi va bu til vakillariga taʼlafuz qilishni va tushinishni osonlashtirdi. 20-asrga kelib belgilarni birlashtirish va yanada soddalashtirilib standartlashtirildi. Eskirgan (ortiqcha) belgilar “Hentaigana” yoki “noodatiy kana” deb nomlanadi. Katakananing rivojlanishi boshqa madaniyatlarni yapon madaniyatiga kirib kelishi hozirgi zamonaviy yapon jamiyatini ifodalash uchun muhim vosita hisoblanadi. Katakana alifbosida 46 boʻgʻindan iborat grafikadan tashkil topgan. Har bir katakana belgisi maʼlum bir tovushni ifodalaydi va yapon tiliga xorijiy davlatlarning soʻzlarini taʼlafuz qilish imkoniyatini yaratadi. Tashqi tomondan katakana belgilari hiragana va kanjidan anchagina farq qilib ular;

Geometrik jihatdan

shakllar burchaklarga ega boʻlib boshqalaridan ajratib turadi. Katakana belgilari xitoycha belgilarning elementlaridan, qismi kanadan tashkil topgan.

Taʼlafuz va fonetikasi. Talafuzi juda sodda va tushinarli boʻlib, barcha boʻgʻinlar hiragana alifbosida ekvivalenti mavjud. Har bir belgi maʼlum tovushni ifodalaydi va ular yapon tilining fonetik xususiyatlariga aniq mos keladi. Bu moslashuvchanlik chet el soʻzlari va nomlarini yapon tiliga yozish uchun ideal vosita hisoblanadi. Katakananing asosiy maqsadi xorijiy soʻzlar va ismlarni ifodalash uchun ishlatildi. Misol uchun; ノート (no-o-to) “daftar” , コンピューター(konpyuta) “kompyuter”, エレベーター(erbeta) “lift” エアコン(eakon) “konditsioner” kabi soʻzlarni katakana alifbosida yozish xorijliklar oʻqish va tushinishini osonlashtiradi.

Katakana va hiragana alifbosi ham boʻgʻindir. Hiragana alifbosi yaponcha mahalliy yaponcha soʻzlarni yozish uchun ishlatiladi. Katakana va Hiragana va alifbosidagi 46 boʻgʻindan iborat boʻlib har biri oʻz ekvivalentiga iborat. Kelib chiqishi katan xarfi xitoycha belgilar va burchakli uslubga ega. Hiragana esa yumaloq va toʻlqinli shaklga ega. Foydalanilishi xorijiy soʻzlarni, nomlarni, atamalarni yozib olish va yaponcha matnni ajratib koʻrsatish uchun ishlatiladi. Katakana alifbosi feʼl va sifatlarning oxirlarida kanjida yozib boʻlmaydiganlari uchun. Shakli va tuzilishi katakana burchakliroq va yozilishi oson. Hiragana yumaloq va silliq. Yapon tilining qiziqarli jihatlaridan biri xorijiy soʻzlar osonlik bilan bir kontekst ichida kelishi va osonlik bilan oʻqilishi qulaylik yaratadi. Bulardan shuni koʻrish mumkin-ki Kana alifbosining oʻxshash va farqli qismlari haqida qiziqdan-qiziq malumotgalar bor. Hozirgi zamonviy yapon tilini oʻrganish chogʻida yapon yozuvini lotinlashtirish “romaji” ga duch kelamiz. Talabalar til oʻrganish jarayonida tizimga tushib olishini osonlashtirish uchun qoʻllaniladigan alifbo hisoblanadi. “Yapon yozuvini lotinlashtirish “romaji”

alifbo loyihasini ommalashtirish borasida 1885 yildan boshlab filologJeyms Kertis Hepburn sezilarli ishlarni amalga oshirgan.” “Boshqa ma'lumotlarga ko'ra, "Romadzikay" ("Lotin yozuvi uyushmasi") jamiyatiga kirgan yapon olimlari, Jeyms Hepburnning eng yaxshi yapon-ingliz lug'atining ikkinchi nashridan yapon so'zlarini yozish uchun inglizcha transkripsiyani o'zlashtirib, bir necha o'zgartirishlar kiritganlar (James Curtis Hepburn, 1815—1911) bo'lib, u o'zining yapon-ingliz lug'atida uni qo'llagan” Lotin yozuvi tizimi va yapon romaji yozuv tizimi orasidagi farqlar quyidagi holda tasniflasak bo'ladi: romaji tizimi “zu” o'rniga “dzu”, “e” o'rniga “ye”, “o” o'rniga “wo”, kabi ifodalanadi. “1886 yilda Jeyms Hepburn o'zining lug'atining uchinchi nashrida, “Romadzikay” jamiyati tomonidan ishlab chiqilgan transkripsiyani to'liq taqdim etadi. U o'zining ilgari yozgan transkripsiyasini mashhur yevropalik yaponshunos V. Astonning ta'sirida o'zgartirdi. Yuqoridagi voqealarga asoslanib, birinchi variant lotinlashtirish bir nechta nomlarga ega: Hepburn tizimi (ingliz tilida so'zlashuvchilarga), Hepburn-romaji — standart tizimi (Yaponiyada), eski romadji — “lotin yozuvi” shakllantirdi”. Bundan tashqari Hozirda romaji telegrammalarda, yapon-ingliz lug'atlarida, o'z shaklida olingan so'zlar va atamalar, transportda, kutubxona kataloglarida, yapon so'zlari va ismlarini transkripsiya qilishda (masalan, kompaniya nomlari) ishlatiladi, bu esa ularning chet elliklar tomonidan o'qilishi uchun qulaylik yaratadi. Bu borada “V. M. Alpatov yapon tilining lotinlashtirilishining uchta funksiyasini ajratib ko'rsatadi: Yapon yozuvini lotin alifbosiga o'tkazishni qo'llab-quvvatlovchilar tomonidan romaji ishlatilishi; Yapon tilini o'rganishda yordamchi vosita sifatida yapon so'zlarini transkripsiya qilish; Stilistika maqsadlarida qo'llanilishi” [1, 51]. XIX asrning o'rtalaridan boshlab, latin alifbosi tizimi tarafdorlari yapon yozuvini romaji tizimiga to'liq o'tkazishni taklif qilganlar. “Hozirda latin alifbosi tizimiga o'tishni qo'llab-quvvatlovchilar ko'p. Romaji tizimida bir nechta jurnallar chop etilmoqda, lekin ular ichida ba'zi maqolalar odatiy yapon yozuvida chop etiladi. Yordamchi maqsadlar uchun latin alifbosi yo'l belgilaridagi yapon yozuvlarini, mahsulotlarda, ikki tilli lug'atlarda, lingvistika adabiyotida, kartografiyada ishlatiladi” [1, 51]. Bu tadqiqotlarning natijasi shuni ko'rsatadiki yaponlar to'liq lotin alifbosiga o'tishmadi amma bu alifbomi ham o'z alifbolariga yozuv turi sifatida qo'shishdi va yordamchi vosita sifatida qo'llashgan. Bundan ko'rinib turibdiki ingliz tilida so'zlashuvchilar yapon tilini romaji asosida o'qishmoqchi bo'lishsa Hebburn ishlab chiqqan tizimi ishlatadi, chunki ingliz tilida so'zlashuvchiga bu yozuv tizimida yozilgan so'zlarni talaffuz qilish va tushunish osonlashtiradi. Bundan ko'rinib turibdiki o'zbek yaponshunosligida ham romaji tizimidan foydalanish til o'rganayaotgan qatlam va qiziquvchilar orasida yapon tili orqali madaniyatini, urf-odatini kengayishiga olib keladi. Bu tizim o'quvchilarga yapon xalqining dunyoqarashini tushuntirish uchun bir vosita bo'lib xizmat qiladi deb ayta olamiz.

Xulosa sifatida ta'kidlash mumkinki, yapon tilini o'rganish vaqtida alifboning tarixiy bosqichlari va hozirgi ko'rinishini aniq o'rganishni talab etadi. Bu aniqlik tilini to'g'ri tushinish, urg'ulardan o'rinli foydalanish, egallangan bilim va ko'nikmalarni samarali talqin qilish imkoniyatini yaratib beradi.

Tahlillar natijasiga nazar tashlaydigan bo'lsak til o'rganish vaqtida yapon xalq madaniyatini yoritishda, iqtisodiyot va texnika taraqqiyoti rivojida ham sezilarli hissa qo'shayotganligi aytib o'tish joiz. So'zlarning katakana alifbosida yozilishi bu chetdan kirib kelib hozirda ommalashayotganligini ifodalaydi. Bundan tashqari bir gap ichida yapon alifbosining 3 turini ham ishlatish imkoni mavjudligi buning yana bir o'ziga xos ekanligini ifodlaydi. Bu jarayonda so'zlar yozilishiga qarab so'zlarning estetik xususiyatlarini ochib berishi ham mumkn. Misol uchub kanjida yozilgan so'zlar chuqurroq ma'noni ifodalashda, katakana alifbosida yozilgan so'zlar g'arbdan kirganligini, hiragana alifbosida berilgan so'zlar tushinilish yengil va o'rganuvchilarda iliq munosabatni uyg'otishini ham aytib o'tish lozim.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezident Sh. Mirziyoyevning 2017-yil 7-fevraldagi “O'zbekiston Respublikasini yanadarivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi PF-4947-son farmoni, hujjatlar to'plami, 2017-y., 6-son
2. Алпатов В. М. Япония. Язык и общество. М.: Наука, 2000. 136 с

3. Алпатов В. М., Басс И. И., Фомин А. И. Японское языкознание VIII—XIX вв. // История лингвистических учений / под ред. А. В. Десницкой, С. Д. Кацнельсона. Л.: Наука, 2001. С. 262—299.
4. Фридрих И. История письма. М.: Наука, 2003. 436 с.
5. Coulmas F. The Blackwell Encyclopedia of Writing Systems. Oxford: Blackwell Publishers, 2006. 603 p.
6. Hadamitzky.W.Romanization.systems.URL:http://www.hadamitzky.de/english/lp_romanization_sys.htm (Retrieved 01 May 2014).
7. Маевский Е. В. Латинский алфавит в Японии: инкорпорация чужеродного // Вестник Московского ун-та. Сер. 13. Востоковедение, 1997. № 1. С. 3—12.
8. 増田太次郎は「口上広告」という表現を用いる増田 2011
9. 藤森弘子 (2005) 「日本語学習者に見られる『弁明』、意味公式の形式と使用—中国人・韓国人学習者の場合—」『日本語教育』
10. 蒙韞 (2008) 「中国人日本語上級学習者の語用論的転移の一考察—依頼に対する断り表現のポライトネスの表し方から—」『国際開発研究フォーラム』
11. Shuhratova V. J. Q. O'zlashma neologizmlarning yapon tilida ifodalanishi va badiiy asarlarda konsept sifatida kelishi //Academic research in educational sciences. – 2022. – T. 3. – №. 5. – С. 776-785.
12. Mamatqulova K. A., Amanullayeva K. M., qizi Shuhratova V. J. Considerations for teaching Japanese literature //International journal of health sciences. – T. 6. – №. S7. – С. 377-385.
13. Shuhratova V. J. Xaruki Murakamining “muvvatli qush solnomasi” romanida “yolg’izlik” konseptining ahamiyati //Вестник магистратуры. – 2022. – №. 5-1 (128). – С. 89-91.
14. Shuhratova V. J. “Qalb” romanida uchraydigan milliy-madaniy va o’ziga xos konseptlarning o’zbek tilidagi talqini //Экономика и социум. – 2022. – №. 10-1 (101). – С. 177-180.



Gulzor Baxriddin qizi Temirova
PhD Candidate, Uzbekistan State
University of World Languages

THE NATURE OF A JOURNALIST'S POSITION IN POLITICAL COMMENTARY AND ITS CONCEPTUAL ASPECTS

 <https://doi.org/10.5281/zenodo.00000000>

ABSTRACT

In the current era of development, politics is a constantly evolving field, and with it, the role of journalism in politics is constantly changing. This article discusses the importance of the journalist in the political environment and some of the advantages of political journalism. It also examines the situations and difficulties that journalists may encounter when covering political processes. Their various roles in the political process and the main aspects of the impact of their activities on the political environment are discussed.

Keywords: journalist, political journalism, media, political process, mass media, public, publishing

Гульзор Бахриддин кызы Темирова

Аспирант Узбекского государственного университета мировых языков

ПРИРОДА ПОЗИЦИИ ЖУРНАЛИСТА В ПОЛИТИЧЕСКОМ КОММЕНТАРИИ И ЕЁ КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ

АННОТАЦИЯ

В современную развивающуюся эпоху политика является постоянно развивающейся сферой, и вместе с ней постоянно меняется роль журналистики в политике. В статье рассматривается значение журналистской личности в политической среде и некоторые преимущества политической журналистики. В нем также рассматриваются ситуации и трудности, с которыми могут столкнуться журналисты при освещении политических процессов. Обсуждаются их различные роли в политическом процессе и основные аспекты влияния их деятельности на политическую среду.

Ключевые слова: журналист, политическая журналистика, СМИ, политический процесс, масс-медиа, общественность, издательское дело

Temirova Gulzor Baxriddin qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti tayanch doktoranti

SIYOSIY SHARHDA JURNALIST POZITSIYASINING TABIATI, UNING KONTSEPTUAL JIHATLARI

ANNOTATSIYA

Hozirgi rivojlanayotgan davrda siyosat muntazam rivojlanib boruvchi soha bo'lib, u bilan birga jurnalistikaning siyosatdagi o'rnini ham doimiy ravishda o'zgarib turadi. Ushbu maqolada jurnalist shaxsining siyosiy muhitdagi ahamiyati va siyosiy jurnalistikaning ba'zi afzalliklari muhokama qilinadi. Shuningdek, jurnalistlarning siyosiy jarayonlarni yoritib berishlarida duch kelishi mumkin bo'lgan vaziyatlar, qiyinchiliklar ham ko'rib chiqiladi. Ularning siyosiy jarayondagi turli rollari hamda faoliyatining siyosiy muhitga qiladigan ta'sirlarining eng asosiy jihatlari muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: jurnalist, siyosiy jurnalistika, axborot vositalari, siyosiy jarayon, ommaviy axborot, jamoatchilik, nashriyot.

Siyosiy jurnalistika bu siyosatdagi dolzarb voqealar haqida ma'lumot to'plash, baholash va tarqatish amaliyotidir. U ko'pincha siyosiy arboblardan, partiyalar, saylovlar va siyosatlarga e'tibor qaratadi. Siyosiy jurnalistika - siyosiy qarorlar, kompaniyalar va yangiliklarni yorituvchi jurnalistika sohasi. Bundan tashqari, nomzodlar haqida ma'lumot to'plash va ularning qilgan ishlari to'g'risida hisobot berishni o'z ichiga oladi. Bu siyosatga qaratilgan jurnalistikaning bir turidir. Ushbu jarayon "siyosiy hisobot" deb ham ataladi. Bu sohada faoliyat ko'rsatuvchi jurnalistlarning vazifasiga nafaqat yangilikni yetkazish, balki uni tahlil qilib, bu borada amalga oshirilayotgan ustuvor vazifalar to'g'risida hisobot berish ham kiradi. Siyosiy jurnalistika professional jurnalistikaning siyosiy voqealar, muammolar, kompaniyalar va boshqalarni yoritish va tahlil qilish bilan shug'ullanadigan bo'limidir.

Jurnalistika siyosatchilarning xatti-harakatlari haqida jamoatchilikni xabardor qilishning kuchli vositasidir. Jurnalistlarning bu borada faoliyat yuritishi esa siyosatchilarning mas'uliyatini oshirishga va saylovchilarga saylovlarda munosib nomzodga ovoz berishlarida yaqindan yordam beradi. Jurnalist davlatning ishonchli vakili sifatida siyosiy jarayonlarda xolis bo'lishi kerak. Bundan tashqari, o'zining subyektiv fikrlashlari, tahlillari orqali oddiy xalqning siyosiy ongini yuksaltirishda, huquqiy ongini oshirishda beminnat xizmat ko'rsatishi lozim. Bunda eng avvalo, jurnalistning o'zi bu sohada yuksak darajada bilim va salohiyatga ega bo'lishi maqsadga muvofiq. [Voronova, 2013, 300-307]

Jurnalistning siyosiy sharhdagi ahamiyati haqida gap ketganda, muhokamada nafaqat axborotni tarqatish, balki ommaga taqdim etilayotgan axborotning sifati va dolzarbligi ham baholanadi. Siyosiy jurnalistlar mamlakat demokratiyasida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ular har doim millat siyosatiga murojaat qilishda qatnashgan. Demokratiya himoyachisi rolini bajarishda ular vakili bo'lgan matbuot va siyosatchilar o'rtasida keskinlik ko'pincha kuchayadi. Jurnalistlarning siyosiy kuchi ko'p odamlarni qiziqtiradigan mavzudir [Toshpulatova N., Saidov F, 2019, 56]. Uning axboroti ba'zan millatning salbiy tomonlariga haddan tashqari ko'p e'tibor qaratishda, davlat siyosati bilan bog'liq muhim masalalarni juda soddalashtirishda yoki e'tibordan chetda qoldirishda, siyosiy tarfakashlikning qabul qilingan jihatida ayblanadi. Aslida, ular berayotgan siyosiy hisobotlar ommaviy axborot vositalari madaniyatining rivojlanishi va o'sishiga olib keladi. Bu esa oshkorlik, shaffoflik ustunlik qilayotgan jarayonlarga xalqning qiziqishini orttirib beradi. Jurnalistlar hamisha hukumat ustidan tergov olib borgani uchun davlat sektoridagi mansabdor shaxslarning mas'uliyati kuchaygan. Operativ jurnalistika siyosiy masalalarni efirga uzatish, etnik xilma-xillikni ko'rib chiqish va jamiyatga ta'sir etuvchi turli muammolarni hal qilish orqali jamiyatda demokratiyani targ'ib qilishning samarali vositasi sifatida qo'llanilgan. O'zbekistonda jamoat teleradiokompaniyalari barcha darajalarda mas'uliyat va demokratiyani ta'minlashning samarali vositasi sifatida tergov jurnalistikasining rolini oshirib beradi. Siyosiy jurnalistika tinchlik va ijtimoiy konsensus o'rnatishga yordam berdi. Bu ikki jihat bo'lmasa, demokratiya tahdid ostida qolishi muqarrar. Siyosiy jurnalistika hukumat va xalq o'rtasida tinch vositachilik platformasini taklif etadi. Ammo, agar har bir jurnalist "haqiqat, ezigulik va adolat" tarafdori bo'lsa, munozaralar, nizolar, har qanday masala yuzasidan har bir munozarada faqat bitta xulosaga kelishi mumkin. Axir, bitta haqiqat bor, garchi unga boradigan yo'l uzoq. Ammo muammoning faqat kognitiv, gnoseologik jihatini nazarda tutadigan bo'lsak,

yagona haqiqat haqidagi xulosa qonuniydir. Sof gnoseologik nuqtai nazardan, haqiqatan ham intilishi kerak bo'lgan yagona haqiqiy hukm bo'lishi kerak.

Jurnalistikaning "to'rtinchi hokimiyat" sifatidagi ta'siri qanchalik keng bo'lsa va uning jamiyatdagi faolligi qanchalik yuqori bo'lsa, turli ijtimoiy kuchlar tomonidan shunchalik ko'p tanqid qilinadi. Albatta, jurnalistlarning chiqishlari yuzasidan shikoyatlar, faktlarni yetarlicha bilimga ega emasligi, voqea-hodisalarni xolisona talqin qilayotgani, noto'g'ri pozitsiyani himoya qilishda biryozlama, bir yozlama yondashayotgani kabilar kabi ayblovlar ham tez-tez uchrab turadi. Bunday shikoyatlar turli ijtimoiy kuchlarning harakat erkinligi sharoitida, ayniqsa, ular o'rtasidagi keskin nizolar, g'oyalar va intilishlarning keskin to'qnashuvi davrida tez-tez uchrab turadi.

Agar jurnalistga, nashrga yoki dasturga nisbatan bunday da'volar haqiqatan ham asosli bo'lsa, u holda jurnalistik tanqidga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lish tabiiy holdir. Tanbehlar jurnalistning tutgan pozitsiyasi bilan kelishmovchilikdan kelib chiqsa, bu boshqa masala. Albatta, pozitsiya izchil ishlab chiqilishi, keng qamrovli, tizimli ravishda butun ijtimoiy masalalar doirasini qamrab olishi yoki aksincha, noaniq, qisman asoslangan, nomuvofiq, yomon ifodalangan bo'lishi mumkin. Jurnalist muayyan ijtimoiy qatlamlar va ularni qo'llab-quvvatlovchi tomonlarni himoya qilib, aniq va keskin gapirsa, u matnlarda ochiq namoyon bo'lishi yoki yashirin bo'lishi, bilvosita ifodalangan ko'rinishda namoyon bo'lishi va shunga mos ravishda o'z pozitsiyasi, partiyalar, guruhlar, biron-bir kuchlar nomidan "mustaqil", "sog'lom fikr" deb e'lon qilinishi mumkin. Biroq, har qanday holatda, ma'lum ijtimoiy kuchlarning manfaatlarini ifodalash, va himoya qilish sifatidagi pozitsiya jurnalistlarning hayotiy hodisalarga yondashuvini, ularni tushunish va baholashni, taklif etilayotgan echimlarning mohiyatini belgilaydi.

Siyosiy masalalar yoki sport muammolari bo'yicha o'z pozitsiyasini himoya qilish va kerak bo'lganda aniqlashtirish, tuzatish va rivojlantirish kerak. Biroq, o'zgacha bo'lganlar e'tirozlariga javob berish uchun quyidagi variantlardan biri etarli darajada etarli bo'lmaydi. Birinchisi, nohaq ko'rinadigan e'tiroz va ayblovlarni e'tiborsiz qoldirish va o'z holicha davom etish, faqat argumentni kengaytirish, to'ldirish va mustahkamlashdir. Oxir oqibat, agar ular jurnalist tomonidan qabul qilingan pozitsiyadan to'g'ri bo'lsa, o'zgachalar tomonidan qabul qilinmasa, unda kelishmovchilik epistemologik emas, balki ijtimoiy tekislikda yotadi. Shuning uchun, o'z holicha davom etish yanada qizg'in e'tirozlarni keltirib chiqarishi mumkin, bu esa kelishmovchilikning kuchayishiga olib keladi. Ikkinchisi, o'tkir qirralarni yumshatish, tekislash va norozilarning yaxshilik, haqiqat va adolat haqidagi g'oyalarga asoslangan e'tirozlari va dalillariga javoban keskin dalillarni olib tashlash orqali erishiladi.

O'zining ekstremal shaklida, bu o'z asarlaridan qiymat mulohazalari va xulosalarni yo'q qilish istagi. Ko'pincha sof ma'lumot bu faqat faktlarni yetkazish, o'z qarashlarini ifoda etishni istisno qilgan holda, guvohlarga voqealar haqida guvohlik berish imkoniyatini ta'minlaydi, deb o'ylashadi. Biroq, pozitsiya hali ham yashirin shaklda - suhbatdoshlar va mualliflarni tanlashda, material tanlashda, matnlarni qurishda, hatto foydalanilgan lug'atda ham ko'rinadi. Sof ma'lumot - bu illyuziya va ko'pincha zararli, agar u tomoshabinlar uchun to'g'ri g'oyalarni ishlab chiqishni qiyinlashtirsa. Uchinchi variant - tomoshabinlarga turli xil yondashuvlar, fikrlar va qarashlarni taklif qilish, shu bilan muvozanatli ma'lumotni taqdim etish, barcha nuqtai nazarlarni taqdim etish, lekin o'zingiznikini bildirmaslik. Jurnalist, albatta, auditoriyani jamiyatning turli qatlamlarida ishlab chiqilgan g'oyalarning to'liq to'plami bilan tanishtirishi uchun turli xil faktlar, qarashlar va fikrlarni etkazishi shart. Aks holda, biryozlamalik va bir yozlamalik muqarrar, bu esa maqbul echimlarni topishni qiyinlashtiradi. Ammo jurnalist o'z nuqtai nazarini faol e'lon qilmasdan va tasdiqlamasdan turib, o'zini bir qator qarashlarning passiv "diktori" roli bilan cheklab qo'ya oladimi?

Jurnalistik pozitsiyani ifodalashning har bir shakli o'z haqiqatiga ega. Birinchi holda, bu to'g'ridan-to'g'rilik va o'z qarashlarini himoya qilish; ikkinchisida - murosaga intilish, norozilikni hurmat qilish; uchinchisida - barcha hukmlarning xolis taqdim etilishiga g'amxo'rlik qilish. Alohida ishda pozitsiyani oshkor qilish (yoki yashirish) ning alohida holati sifatida ushbu shakllarning har biri mumkin va aslida o'zini namoyon qiladi. Biroq, mutlaqlashtirish va ularga rioya qilish jurnalistikaga doimo zarar etkazadi, chunki ular uning asl mohiyatini har tomonlama ijtimoiy yo'naltirish va xabardorlikka erishish omili sifatida to'liq namoyon bo'lishiga yo'l qo'ymaydi [Biagi, 2005, 147]

Binobarin, har qanday ommaviy axborot vositalari uchun printsiplial jihatdan muhim asos sifatida, ijtimoiy mavqening namoyon bo'lishining boshqa to'rtinchi shakli talab qilinadi, garchi u tarkibiy qismlar sifatida qayd etilgan uchtasini o'z ichiga oladi. Uning mohiyati dialektik ko'rinadi, chunki u o'z pozitsiyasini taqdim etish va bahslashda qat'iylikni va shu bilan birga boshqa ijtimoiy kuchlarga va ularning to'g'ri bo'lgan g'oyalari nisbatan bag'rikenglik bilan munosabatda bo'lishni talab qiladi, bu norozilarning haqiqiy ehtiyojlarini tushunish va hisobga olishning samimiy istagida namoyon bo'ladi. Shu sababli, ijtimoiy pozitsiyani namoyon qilishning to'rtinchi shaklidagi asosiy narsa - bu kelishmovchiliklarni keltirib chiqaradigan ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan muammoni hal qilishda umumiy yondashuv yoki hech bo'lmaganda o'zaro yondoshuvlar asosida murosaga erishish asosida izlash amalga oshiriladi.

Turli xil guruhlardan iborat zamonaviy, murakkab tashkil etilgan jamiyatda barcha ijtimoiy muammolarni hal qilishning umumiy jihati, shubhasiz, insoniyat taraqqiyoti jarayonida rivojlangan, barcha odamlarni birlashtirgan va har birining hayotining eng xilma-xil sohalarida: siyosat va iqtisodiyotda, davlat va shaxsiy hayotda, mamlakatlar va shaxslar o'rtasidagi munosabatlarda, xulq-atvori uchun zamin yaratadigan umuminsoniy gumanistik qadriyatlardir. Turli kuchlar tomonidan qarama-qarshilik va g'alaba sari kurashish istagi insoniyatning mavjudligiga tahdid solayotgan yangi tsivilizatsiya sari intilayotgan, o'zaro bog'langan yagona jahon hamjamiyatini shakllantirishning zamonaviy sharoitida jurnalistika uchun umuminsoniy insonparvarlik qadriyatlari alohida ahamiyat kasb etadi. Umumjahon insoniy qadriyatlar insoniyatning insoniyat vakili sifatidagi hayotining negizida ko'rinadi va biz XXI asrning yangi jahon tsivilizatsiyasi sari qadam tashlagan sari, ularning doirasi tobora kengayib boradi va ularning roli tobora ko'proq ahamiyat kasb etib, ijtimoiy hayotning tobora ko'proq sohalarini o'z ta'sir doirasiga qamrab oladi.

Albatta, jurnalistika uchun umuminsoniy qadriyatlar uning ijtimoiy mavqeining asosini ham tashkil qiladi. Biroq, hayot hodisalarini tushunish, baholash va hukm qilish jarayonida barcha umuminsoniy qadriyatlarga so'zsiz rioya qilish bir qator qiyinchiliklarga duch keladi. Birinchidan, ularning jurnalistning ijtimoiy pozitsiyasi doirasidagi harakati o'ziga xos bo'lishi va ular qo'llaniladigan vaziyatlarning o'ziga xos xususiyatlariga asoslanishi kerak. Shuningdek, odamlar tomonidan turlicha tushuniladigan erkinlik va adolatning abadiy talablarini ham aniq belgilash zarur. Ikkinchidan, va bu muhim emas, bu umuminsoniy qadriyatlar mavhum shaxs tomonidan qo'llanilmaydi va ular umuman inson ga nisbatan qo'llanilmaydi. Har bir aniq shaxs ma'lum bir guruh belgilarining tashuvchisi sifatida insoniyatga kiritilgan. Har bir inson ma'lum bir sinfga, millatga, mintaqaga, mamlakatga tegishli; Yosh, jins, kasbiy, ta'lim va boshqa xususiyatlar bilan tavsiflanadi. Va har bir guruh jamiyat hayotida tutgan o'rni va boshqa guruhlar bilan munosabatlarining tabiati bilan bog'liq holda, o'zining guruh manfaatlari va qadriyatlarini rivojlantiradi [Hanson, R. E., 2005, 87].

Jurnalistning o'zi hayotda va kasbiy faoliyatida ma'lum ijtimoiy guruhlarining xususiyatlarining tashuvchisi sifatida ishtirok etadi va shunga muvofiq, muayyan guruhlarining manfaatlari va qadriyatlarining vakili, vakili va himoyachisi sifatida ishlaydi. Ma'lum bir ijtimoiy guruh tomonidagi bu ijtimoiy mavqe nafaqat qoralanadi, balki qonunni buzmasdan amalga oshirilsa, ijtimoiy zarur va olijanobdir, chunki uning asosida shaxsning shaxsiy maqomida bo'lsa ham, g'amxo'rlik yotadi.

Qadimiy yapon tilining rivojlanish davrini ko'pgina tadqiqodchilar tomonidan Yaponiyaning tarixiy davrlari nomi bilan bog'lagan holda o'rganishni tavsiya qiladilar. Amerikalik yaponshunos olim John Bentli tomonidan esa bu davr quyidagicha ajratilgan.

(上代) Yapon tili rivojining qadimiy davri, Nara davri (700-800)

(中古) Yapon tili rivojining ilk o'rta asrlar davri, Heian davri


(中世) Yapon tili rivojining kech o'rta asrlar davri, Kamakura davri(1200-1378)/ Muromachi davri (1367-1573)

Yapon tili rivojining qadimiy davrida Yaponiya hududida yozuv kirib kelishi hisobida qadimiy yozma yodgorliklar, folklyor qo'shiq va she'rlar jamlanmalari, asarlar yozila boshlandi. Eramizga qadar bo'lgan davrda Yapon tili haqidagi ma'lumotlar Xitoy manbalarida qayd etilgan. Yozuvning kirib kelish jarayoni vaqtida ham yapon tili qadimiy grammatik tuzilishiga oid aniq ma'lumotlar manbasi kamchilikni tashkil etgan. Yozuv kirib kelgunga qadar bo'lgan davrda Yaponiya hududida qadimiy yapon tilida muloqot olib borilganligiga qaramasdan ushbu tilning qadimiy grammatik xususiyatlari aks etgan yaxlit ilmiy manbalar bizgacha yetib kelmagan. Bir necha asrlardan keyingina qadimiy asarlarning mazmunini hozirgi zamonaviy tilda tahrir etish uchun qilingan ilmiy yondashuvlarda qadimiy davr yodgorliklari yozilgan til grammatikasi o'rganila boshlangan. Yapon qadimiy madaniyati aks etgan ilk yozma manbalardan Noruto, Kojiki (712y), Nihongi (720), Manyoushuu (759) kabi yapon xalqining diniy, madaniy-ma'rifiy, mumtoz xalq folklyor ijodi namunalari aks etgan qo'lyozmalar hozirgi davrda ham jahon tilshunoslari diqqatini o'zida jamlagan qadimiy namunalar hisoblanadi. Yuqorida zikr etilgan dunyo qadimiy tilshunoslarining lingvistik nuqtai nazardan qoldirgan kelishiklar haqidagi tarixiy faktlari kabi ma'lumotlar Yapon qadimiy qo'lyozmalarida uchramaydi. Lekin ushbu qo'lyozmalarning tarjimalari ustida shug'ullangan olimlar qadimiy yapon tilidagi kelishiklar tizimi haqida ma'lumotlar berishgan. Kelishiklar soni hozirgi Nihongo kyōiku tizimidagi kelishiklar soni kabi 9 tani tashkil etgan. Kelishiklar nomlari alohida mavjud emas, lekin ular ko'rsatadigan 9 ta qo'shimchalar alohida ajratib ko'rsatilgan: が格 (ga kelishik qo'shimchasi), の格 (no kelishik qo'shimchasi), つ格 (tsu kelishik qo'shimchasi), な格 (na kelishik qo'shimchasi), に格 (ni kelishik qo'shimchasi), を格 (wo kelishik qo'shimchasi), と格 (to kelishik qo'shimchasi), より格 (yori kelishik qo'shimchasi), まで格 (made kelishik qo'shimchasi).

Kelishik qo'shimchalari hamda kelishiklik munosabati yozma yoki og'zaki nutqda aks etayotgan harakatning kimga yoki nimaga tegishliligi, qayerda qay vaqtda sodir bo'lishi, harakatning sababi, holati, joyi, boshlanish va tugallanish nuqtalari kabi muhim ma'lumotlarni tinglovchi yoki o'quvchiga yetkazishda muhim vazifalardan birini bajarib kelishi boisdan kelshiklik munosabati qadimdan o'rganib kelingan. U nafaqat nutq sathidagi ma'no anglatishdagi muhim vazifani balkim ma'lumotlar uzatishda grammatik jihatdan to'g'ri, tinglovchi yoki o'quvchida aniq va mukammal tasavvur uyg'otish kabi muhim ahamiyat kasb etuvchi omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Расулов Р. Умумий тилшунослик. -Тошкент. Фан, 2007. - Б. 255.
2. Turniyozov N., Rahimov A., O'zbek tili. – Samarqand.: Zarafshon, 2006. – 180 b.
3. Yunusova Barchinoy, O'zbek tili tarixi, Toshkent 2023
4. Bentley, John R. A descriptive grammar of early old Japanese prose / by John R. Bentley. p. cm. — (Brill's Japanese Studies library, ISSN 0925-6512; v. 15)
5. Лаврентьев А. М Типолгический анализ категории падежа в русском языке: дис. ...канд.филол.наук: 10.02.01 «Русский язык» / Лаврентьев Алексей Михайлович. – Новосибирск, 1999.
6. Li, Kai; Huang, Weifeng; 2007/10/01. On Ancient Chinese Classical Linguistics VL1/Macrolinguistics
7. Сунь Шуан. Семантическая интерпретация падежных форм в системах русско–китайского машинного перевода: на примере творительного падежа: дис... канд. филол. наук: 10.02.21 «Сравнительно–сопоставительное языкознание» / Сунь Шуан; Моск. гос. ун–т им. М.В. Ломоносова. – Москва, 2009. – 198 с.
8. Тавастшерна, С. С. / Становление и развитие лингвистической традиции в Древней Индии: дис. канд. филол. наук / Тавастшерна Сергей Сергеевич. – С.-Пб., 2009. – 193 с.
9. Шеремет В. В. Роль категорії відмінка у еквівалентному перекладі (на матеріалі оповідання А. – С. Пушкіна «Капітанська дочка» російською та турецькою мовами) / В. В. Шеремет // Вчені записки Таврійського національного університету імені В. І. Вернадського. Серія «Філологія. Соціальні кому нікації». – 2013. – Т. 26 (65), № 2. – С. 250–256.
10. Sapier, E. On Language: An Introduction to the Study of Speech. New York: Harcourt Brace and World. 1921.
11. Najmiyeva P.T, Uapon nutq sathida ko'makchi morfemalar roli, 2024/11/25, Foreign Linguistics and Linguodidactics, Special Issue – 5.



INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

ISSN: 2181-9297

www.tadqiqot.uz

Tilovova Go'zal Rustamovna

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti, katta o'qituvchi.

TERMINOLOGIYA VA LUG'ATSHUNOSLIKNING O'ZARO BOG'LIQLIGI

 <https://doi.org/10.5281/zenodo.00000000>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada zamonaviy tilshunoslikning muhim sohasi bo'lgan terminologiya va lug'atshunoslikning o'zaro bog'liqligi hamda ularning integratsiyasi bilan bog'liq dolzarb muammolar yoritilgan. Xususan, yangi ilmiy-texnik terminlarni milliy tillarga moslashtirish jarayonidagi qiyinchiliklar, jumladan, xalqaro standartlarga moslik, semantik aniqlik va foydalanuvchilarning qabul qilish darajasi muammolar sifatida ko'rib chiqilgan. Ushbu muammolarni hal etish uchun semantik tahlil, xalqaro standartlardan foydalanish, tilshunos va mutaxassislar hamkorligi hamda zamonaviy axborot texnologiyalarini jalb qilish kabi usullar taklif etiladi.

Kalit so'zlar. Terminologiya, lug'atshunoslik, semantik tahlil, xalqaro standartlar, tilshunoslik, axborot texnologiyalari, milliy til, termin moslashuvi.

Тиловова Гузал Рустамовна

Старший преподаватель университета экономики и педагогики.

ВЗАИМОСВЯЗЬ ТЕРМИНОЛОГИИ И ЛЕКСИКОГРАФИИ

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются актуальные проблемы взаимосвязи и интеграции терминологии и лексикографии, которые являются важными направлениями современной лингвистики. В частности, поднимаются вопросы сложности адаптации новых научно-технических терминов в национальные языки, включая соответствие международным стандартам, семантическую точность и степень принятия пользователями. Для решения этих проблем предлагаются такие методы, как семантический анализ, использование международных стандартов, сотрудничество лингвистов и специалистов, а также внедрение современных информационных технологий.

Ключевые слова. Терминология, лексикография, семантический анализ, международные стандарты, лингвистика, информационные технологии, национальный язык, адаптация терминов.

Guzal Tilovova Rustamovna

Teacher of the University of Economics and Pedagogy

THE INTERCONNECTION BETWEEN TERMINOLOGY AND LEXICOGRAPHY

ANNOTATION

This article addresses the pressing issues of the interrelation and integration of terminology and lexicography, which are significant areas in modern linguistics. Specifically, it highlights the challenges in adapting new scientific and technical terms to national languages, including compliance with international standards, semantic accuracy, and user acceptance. To resolve these issues, methods such as semantic analysis, utilization of international standards, collaboration between linguists and specialists, and the implementation of modern information technologies are proposed.

Keywords. Terminology, lexicography, semantic analysis, international standards, linguistics, information technologies, national language, term adaptation.

Kirish

Terminologiya va lugʻatshunoslik fanlari zamonaviy tilshunoslikda muhim oʻrin tutadi. Har ikki soha tilning turli jihatlarini oʻrganish bilan birgalikda, ular oʻrtasida yaqin oʻzaro bogʻliqlik mavjud. Terminologiya, asosiy maqsadi sifatida, ilmiy-texnik va boshqa maxsus sohalarida ishlatiladigan terminlarni aniqlash, tizimlashtirish va standartlashtirishni koʻzda tutadi. Lugʻatshunoslik esa til birliklarini, ularning semantikasi, tuzilishi va ishlatilishini oʻrganishga qaratilgan.

Tilning taraqqiyoti va uning turli sohalarida qoʻllanilishi natijasida yangi terminlarning yaratilishi va lugʻat tarkibining boyishi jarayoni kuzatiladi. Bu jarayon, oʻz navbatida, terminologiya va lugʻatshunoslikning bir-biriga bogʻliqligini taʼminlaydi. Har bir yangi termin til tizimiga qoʻshilganda, uning lugʻaviy maʼnosi va kontekstdagi qoʻllanilishi lugʻatshunoslik yordami bilan chuqurroq oʻrganiladi. Shu sababli, ushbu ikki sohani birgalikda tadqiq qilish, ilmiy va amaliy nuqtai nazardan, dolzarb masala hisoblanadi. Har ikki soha tilning turli jihatlarini oʻrganish bilan birgalikda, ular oʻrtasida yaqin oʻzaro bogʻliqlik mavjud. Biroq, ushbu sohalar kesishgan nuqtalarda bir qator muammolar mavjud.

Bugungi kunda yangi terminlarning yaratilishi va ularni milliy lugʻat tizimiga kiritishda bir necha dolzarb savollar paydo boʻlmoqda: terminlarning semantik aniqligi, ularning xalqaro standartlarga mosligi, ilmiy-texnik terminlarning milliy tillarga moslashuvi va yangi terminlarning til foydalanuvchilari tomonidan qabul qilinish darajasi. Ularning eng asosiylaridan biri ilmiy-texnik terminlarning milliy tillarga moslashuvi jarayonida yuzaga keladigan muammolardir.

Ushbu maqola aynan mazkur muammo, yaʼni terminlarning milliy tilga moslashuv jarayonidagi qiyinchiliklarga eʼtibor qaratadi va ularni bartaraf etish uchun amaliy takliflar beradi.

Metodlar

Mazkur muammoni hal qilish uchun quyidagi usullar taklif etiladi:

1. **Semantik tahlil:** Har bir yangi terminning maʼno maydoni chuqur oʻrganilib, uning mavjud til birliklariga mosligi va qarama-qarshi talqinlarning oldini olish maqsadida lingvistik tahlil amalga oshiriladi. Ushbu jarayon orqali terminning milliy til birliklariga qanchalik mos kelishini aniqlash, terminning sinonimlari va antonimlari bilan aloqalarini oʻrganish imkonini beradi. Shuningdek, terminning turli kontekstlarda qoʻllanilishi ham tekshiriladi, bu esa uning tushunarligini oshirishga xizmat qiladi.

2. **Xalqaro standartlarni koʻrib chiqish:** Terminlarning xalqaro darajadagi standartlashtirilgan versiyalarini oʻrganish va ularning milliy tilga mos variantlarini ishlab chiqish. Buning uchun xalqaro tashkilotlar va mutaxassislar tomonidan ishlab chiqilgan mavjud terminologik bazalar bilan ishlash lozim. Xalqaro standartlar asosida moslashtirilgan terminlar milliy til tizimiga kiritilganda, global darajada tushunarlikni oshirish va xalqaro hamkorlikni yengillashtirish imkoniyati yuzaga keladi.

3. **Tilshunos va mutaxassislar hamkorligi:** Yangi terminlarni ishlab chiqish jarayonida nafaqat tilshunoslar, balki sohaga oid mutaxassislarni jalb qilish orqali mazmun va maʼno nuqtai nazaridan yanada aniqroq variantlarni taklif qilish. Bu jarayon ilmiy-texnik terminologiya yaratishda xatoliklar va noaniqliklarni kamaytiradi. Masalan, texnik sohalarida ishlatiladigan terminlarning mazmuni faqat tilshunoslar emas, balki ushbu soha mutaxassislarining ham tahliliga muhtoj boʻladi.

4. Axborot texnologiyalaridan foydalanish: Yangi terminlarning amaliy qo'llanilishini sinovdan o'tkazish va samaradorligini baholashda zamonaviy axborot texnologiyalari va maxsus dasturlardan foydalanish tavsiya etiladi. Bu jarayon terminlarning onlayn platformalarda, elektron lug'atlar va interaktiv tahlil vositalarida sinovdan o'tkazilishini o'z ichiga oladi. Masalan, xalqaro tahlil qilish imkoniyatiga ega onlayn lug'at platformalari yoki mobil ilovalar yaratilishi mumkin. Google Translate va Linguee kabi xalqaro platformalardan foydalanish, shuningdek, maxsus mobil dasturlar (masalan, terminlarning semantik tahlili uchun Python asosida ishlab chiqilgan dasturlar) orqali terminologik jarayonlarni tahlil qilish imkoniyatlari mavjud. Ushbu texnologiyalar yordamida terminlarning turli foydalanuvchilar tomonidan qanday qabul qilinishi, ularning samaradorligi va aniqligi haqida real vaqt rejimida ma'lumot to'plash mumkin. Bundan tashqari, dasturlar orqali terminlarning o'quv jarayonlari va amaliy faoliyatdagi mosligi chuqur tahlil qilinadi va zarurat tug'ilganda tezkor tuzatishlar kiritish imkoniyati yaratiladi.

Natijalar

Ushbu usullarni qo'llash natijasida quyidagi natijalarga erishish mumkin:

1. Yuqori aniqlikdagi terminlar: Semantik tahlil orqali terminlarning lug'aviy va kontekstual mosligi ta'minlanadi, bu esa chalkashliklarning oldini oladi. Lingvistik tahlil jarayoni terminlarning ma'no aniqligini oshiradi va ularni boshqa tillarga tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni kamaytiradi.

2. Xalqaro darajada tan olinadigan terminlar: Xalqaro standartlarga asoslangan holda ishlab chiqilgan terminlar milliy va xalqaro darajada bir xil talqin qilinishini ta'minlaydi. Bu, o'z navbatida, milliy tilning xalqaro miqyosdagi raqobatbardoshligini oshirishga imkon yaratadi.

3. Foydalanuvchilar qabul qilishi: Axborot texnologiyalari yordamida terminlarning kundalik foydalanishda qanday qabul qilinishini aniqlash va zarurat tug'ilganda tuzatishlar kiritish imkoniyati yuzaga keladi. Real vaqt rejimida ma'lumot yig'ish, terminlarning amaliy hayotdagi samaradorligini tahlil qilish va foydalanuvchilar ehtiyojiga mos tuzatishlar kiritish imkoniyati oshadi.

4. Tilshunoslik va mutaxassislik sohalari integratsiyasi: Mutaxassislar va tilshunoslarning birgalikdagi faoliyati samaradorlikni oshiradi, natijada terminlar ham mazmunan, ham shaklan mukammallashadi. Ushbu jarayon terminologiyaning turli sohalarda qo'llanish imkoniyatlarini kengaytiradi va uning mantiqiy va semantik uyg'unligini ta'minlaydi.

Ushbu natijalar terminologiya va lug'atshunoslikning uzviy integratsiyasini ta'minlaydi va yangi terminlarni ishlab chiqish jarayonida muammolarni bartaraf etish uchun amaliy asos yaratadi.

Muhokama

Tadqiqot davomida aniqlangan muammolarni hal qilish uchun taklif etilgan usullar terminologiya va lug'atshunoslik o'rtasidagi aloqani yanada mustahkamlashga qaratilgan. Ayniqsa, xalqaro standartlar va mahalliy ehtiyojlarni uyg'unlashtirish orqali yuqori sifatli terminlar yaratish imkoniyati yuzaga keladi. Bunda xalqaro tajribalar va milliy ehtiyojlarning uyg'unlashuvi muhim o'rin tutadi.


Axborot texnologiyalari va zamonaviy dasturlar yordamida terminlarni tahlil qilish va ularning samaradorligini tekshirish, ularni foydalanuvchilar ehtiyojlariga moslashtirishda muhim yondashuv sifatida ko'zga tashlanadi. Ushbu yondashuv terminlarning lingvistik va amaliy jihatdan muvaffaqiyatli integratsiyasini ta'minlaydi.

Shuningdek, tilshunoslar va soha mutaxassislari o'rtasidagi hamkorlik ilmiy-texnik terminologiya sohasida dolzarb ahamiyatga ega. Ushbu hamkorlik yangi terminlarni yaratishda nafaqat aniq va tushunarli, balki kontekstual jihatdan mos bo'lgan terminlarni ishlab chiqishga xizmat qiladi. Natijada, terminologiya va lug'atshunoslik sohasidagi integratsiya nafaqat ilmiy nazariyani boyitadi, balki amaliyotda ham keng ko'lamli foydalanish imkoniyatlarini yaratadi.

Mazkur tadqiqot natijalari milliy tilning rivojlanishi va uning xalqaro miqyosdagi nufuzini oshirishda strategik ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, terminologiya va lugʻatshunoslikning birgalikdagi faoliyati yangi ilmiy yutuqlarga asos boʻlib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Razzaqova Oygul, and Toʻrakulova Sayyora. "TERMINOLOGIYA VA UNING TARIXI". Yosh Tadqiqotchi Jurnali, vol. 1, no. 4, May 2022, pp. 905-8, <https://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/364>.
2. Ochildiyeva, Kh G., D. S. Mirzaliyeva, and D. S. Makhmudova. "The Concept of Ethical Evaluation in Russian and Uzbek." European Journal of Research Development and Sustainability 2.2 (2021): 67-69.
3. Begmatov E. Hozirgi oʻzbek adabiy tilining leksik qatlamlari.–T.: Fan, 1982.
4. Даниленко В.П. Русская терминология. Опыт лингвистического описания,- М.,: Наука, 1977.
5. Hamidulla D. "Oʻzbek terminologiyasi". Toshkent: Yoshlar Nashriyot uyi, 2019.
6. Madvaliev A. Lugʻat va lugʻat turlari haqida. – Oʻzbek milliy leksikografiyasining dolzarb masalalari mavzuidagi ilmiy-nazariy anjuman materiallari toʻplami, ToshDOʻTAU. – Toshkent, 2017.
7. A. Omonturdiyev, Oʻ. Xoliyorov, G. Qorjovova. Zamonaviy oʻzbek leksikografiyasi: Tahlil va tadqiq. Termiz .2016. 22-bet.
8. [www. literature, uz](http://www.literature.uz)
9. [www. genhis philol.ru](http://www.genhis.philol.ru)
10. [www. library.ziynet.uz](http://www.library.ziynet.uz)



INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

ISSN: 2181-9297

www.tadqiqot.uz

Nilufar Abduraxmonova

filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston

milliy universiteti Kompyuter lingvistikasi va

amaliy tilshunoslik kafedrasini mudiri

Tirkashev Jasurjon Uktam o'g'li

O'zbekiston Milliy universiteti mustaqil tadqiqotchisi

OTLARNING SEMANTIK TASNIFIDA XALQARO STANDART TEGGLASH TIZIMLARIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.00000000>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o'zbek tilidagi ot so'z turkumiga oid leksemalarni semantik maydonlarga ajratish va teglash masalasi ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda so'zlarni ma'no jihatdan guruhlash va ularni iyerarxik tuzilmalarga joylashtirishning nazariy va amaliy jihatlari o'rganiladi. WordNet, FrameNet, USAS, PropBank, PDT, Vallex, Crovallex va Ukrainian Semantic Lexicon kabi xalqaro semantik teglash tizimlari tajribasi tahlil qilinadi. O'zbek tilidagi 1000 dan ortiq ot namunasi ISO 24617-8 standartlari va WordNet tasniflariga asoslangan holda 14 ta asosiy semantik maydon va ularning ichki bo'linmalariga ajratilib, teglar bilan belgilanadi. Tadqiqot jarayonida semantik maydon va iyerarxiya tushunchalarining farqlari, shuningdek, ularning o'zaro uyg'unligi qiyosiy tarzda taqdim etiladi. Olingan natijalar teglash tizimining 92% aniqlik darajasiga erishganini ko'rsatdi, bu esa ushbu metodning o'zbek tili uchun samaradorligini tasdiqlaydi. Semantik teglashning mashina tarjimasini, matn tahlili va axborot qidiruvi kabi sohalardagi amaliy ahamiyati muhokama qilinadi. Yakunda o'zbek tili uchun semantik korpus va lug'atlar yaratish bo'yicha takliflar berilib, kelajakdagi izlanishlar yo'nalishi belgilab chiqiladi. Ushbu ish o'zbek tilining leksik boyligini raqamli texnologiyalar doirasida chuqurroq o'rganish va xalqaro lingvistik tadqiqotlarda uning o'rnini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: semantik maydon, semantik iyerarxiya, teg, leksikologiya, ot so'z turkumi, WordNet, USAS, FrameNet, SRL, ISO 24617-8, semantik tasnif, korpus lingvistikasi, mashina tarjimasini, ontologik resurslar

Nilufar Abdurakhmonova

Doctor of Philological Sciences, Professor, National University of Uzbekistan

Head of the Department of Computer Linguistics and Applied Linguistics

Tirkashev Jasurjon Uktam o'g'li

Independent Researcher at the National University of Uzbekistan

ANNOTATION

This article examines the issue of classifying and tagging lexical units of the noun category in the Uzbek language into semantic fields. The study explores the theoretical and practical aspects

of grouping words by meaning and placing them into hierarchical structures. The experience of international semantic tagging systems such as WordNet, FrameNet, USAS, PropBank, PDT, Vallex, Crovallex, and the Ukrainian Semantic Lexicon is analyzed. Over 1,000 noun samples in the Uzbek language are categorized into 14 main semantic fields and their subcategories based on ISO 24617-8 standards and WordNet classifications, and assigned corresponding tags. The research highlights the differences between the concepts of semantic fields and hierarchies, as well as their interrelation, presented in a comparative manner. The results demonstrate that the tagging system achieved a 92% accuracy rate, confirming its effectiveness for the Uzbek language. The practical significance of semantic tagging in areas such as machine translation, text analysis, and information retrieval is discussed. In conclusion, recommendations are provided for creating semantic corpora and dictionaries for the Uzbek language, outlining directions for future research. This work contributes to a deeper understanding of the lexical richness of the Uzbek language in the context of digital technologies and strengthens its position in international linguistic studies.

Keywords: semantic field, semantic hierarchy, tag, lexicology, noun, WordNet, USAS, FrameNet, SRL, ISO 24617-8, semantic classification, corpus linguistics, machine translation, ontological resources

Нифулар Абдурахмонова

Доктор филологических наук, профессор, Национальный университет Узбекистана
Заведующая кафедрой компьютерной лингвистики и прикладного языкознания

Тиркашев Жасуржон Уктам угли

Независимый исследователь Национального университета Узбекистана

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается вопрос классификации и семантической разметки лексических единиц именного класса в узбекском языке по семантическим полям. В исследовании изучаются теоретические и практические аспекты группировки слов по значению и их размещения в иерархических структурах. Анализируется опыт международных систем семантической разметки, таких как WordNet, FrameNet, USAS, PropBank, PDT, Vallex, Crovallex и Ukrainian Semantic Lexicon. Более 1000 образцов существительных в узбекском языке были распределены по 14 основным семантическим полям и их подкатегориям на основе стандартов ISO 24617-8 и классификаций WordNet, а также помечены соответствующими тегами. В работе подчеркиваются различия между понятиями семантического поля и иерархии, а также их взаимосвязь, представленные в сравнительной форме. Результаты показывают, что система разметки достигла точности 92%, что подтверждает ее эффективность для узбекского языка. Обсуждается практическая значимость семантической разметки в таких областях, как машинный перевод, анализ текста и поиск информации. В заключение предлагаются рекомендации по созданию семантических корпусов и словарей для узбекского языка, а также определяются направления будущих исследований. Данная работа способствует более глубокому пониманию лексического богатства узбекского языка в контексте цифровых технологий и укреплению его позиций в международных лингвистических исследованиях.

Ключевые слова: семантическое поле, семантическая иерархия, тег, лексикология, имена существительные, WordNet, USAS, FrameNet, SRL, ISO 24617-8, семантическая классификация, корпусная лингвистика, машинный перевод, онтологические ресурсы

Kirish

Leksikologiya va kompyuter lingvistikasi sohasida soʻzlarni maʼnoviy jihatdan guruhlash va ularga teg qoʻyish muhim ahamiyat kasb etadi [1]. Xususan, ot soʻz turkumini semantik maydonlarga ajratish – yaʼni maʼno doiralariga koʻra guruhlash – ushbu soʻzlarning kompyuter tomonidan tushunilishi va qayta ishlanishini osonlashtiradi. Bunda har bir ot oʻzining tegishli semantik maydoniga, yaʼni maʼno jihatdan yaqin tushunchalar jamlanmasiga nisbatlanadi. Avvalo, semantik

maydon va semantik iyerarxiya tushunchalari bir-biridan farqlasak. Semantik maydon deb ma'lum bir tushuncha doirasiga oid bo'lgan, o'zaro mazmuniy aloqador so'zlar yig'indisiga aytiladi [2]. Masalan, ranglar semantik maydoni tarkibiga qora, oq, qizil, yashil, sariq, ko'k kabi rang nomlari kiradi [2].

Semantik iyerarxiya so'zlarni umumiylik-xususiylik munosabatlari – giperonimiya va giponimiya orqali tabaqalashtirib tizimga soladi. Bunda leksemalar “tur-jins” tamoyili asosida pog'onali tuzilma, daraxtsimon tasnif, hosil qiladi. Masalan, “jonivor” so'zi hayvonlar uchun giperonimik kategoriya hisoblanadi. Uning ostida sutemizuvchilar, undan pastroqda yirtqichlar, so'ngra mushuksimonlar va nihoyat yo'lbars kabi qator giponimik tushunchalar joylashadi [3].

WordNet kabi leksik ma'lumotlar bazasi millionlab so'z va atamalarni aynan shunday semantik tarmoqlarga ajratib, ularni ma'no iyerarxiyasi shaklida tartiblaydi [1]. WordNet korpus lingvistikada keng qo'llaniladigan semantik resurs bo'lib, unda so'zlar ma'no guruhlariga (sinsetlarga) va ularning iyerarxik munosabatlariga, masalan, hayvon – umumiy tushuncha, mushuk – uning xususiy holati kabilarga bo'lingan [1]. Shu bilan birga, FrameNet singari tizimlar so'zlarni ma'no doirasidan kelib chiqqan holda “frame” deb ataluvchi vaziyat modellari orqali bog'laydi. Unda fe'llar va ularga tegishli rol ya'ni otlar semantik rollar bilan belgilangan bo'lib, ushbu baza nafaqat ingliz tilida, balki portugal, xitoy, nemis, yapon, ispan va shved tillarida ham yaratilgan [1]. Semantik teglashning yana bir yondashuvi USAS (UCREL Semantic Analysis System) tizimi orqali amalga oshirilgan bo'lib, ingliz tilidagi so'zlarni 21 ta yirik ma'no kategoriyasi va ular ostidagi 200 dan ortiq kichik kategoriyalarga ajratib belgilaydi [1] [4]. USAS dastlab so'z turkumini (masalan, ot, fe'l) aniqlab, keyin maxsus SEMTAG semantik teglash dasturi yordamida har bir so'zga teg qo'yadi. Bu tizim matnlarda taxminan 92% aniqlik bilan avtomatik semantik teglashga erishganligi qayd etilgan [4]. Semantik teglash korpus lingvistikada keng qamrovli qo'llanishlarga ega. Mashina tarjimasidan tortib matn mazmunini tahlil qilishgacha va turli xil usullar shakllangan. Masalan, PropBank korpusida har bir fe'lga tegishli agent, pasayuvchi, manzil kabi semantik rol teglari biriktirilgan bo'lsa [1], Praga sintaktik-izohli korpusi (PDT) va uning valentliga oid lug'atlari (Vallex) ham fe'llar va ularning argumentlarini semantik rollarga ajratish bo'yicha yirik dastur va resurslarni taqdim etgan [5]. Shu bilan bir qatorda, so'zlarning leksik ma'nosini belgilashga ixtisoslashgan yirik korpus va lug'atlar ham mavjud – masalan, yuqorida aytib o'tilgan WordNet, FrameNet, USAS kabi tizimlar qatorida, Ukraina tili uchun yaratilgan Ukrainian Semantic Lexicon (USL), xorvat tili uchun Crovallex (Chex tilidagi Vallex lug'atining xorvat tiliga moslashtirilgan ko'rinishi) kabi resurslar ham semantik teglashda xalqaro tajribani o'zida mujassam etadi [5] [6]. Demak, otlarning semantik maydonlarga bo'linishi nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham axborotni qidirish, matnni tushunish, mashinani o'qitish kabi jarayonlarda muhim rol o'ynaydi [1].

Yuqoridagi ishlar ushbu mavzuning dolzarbligini ko'rsatadi. Mazkur maqolada ot so'z turkumiga oid leksemalarni semantik maydonlarga ajratish va ularni belgilash (teglash) masalasi ko'rib chiqiladi. Dastlab WordNet va boshqa xalqaro teglash tizimlaridan (SRL, USAS, FrameNet, PDT, Vallex, Crovallex, Ukrainian Semantic Lexicon, ACL antologiyasi semantik korpusi va b.) foydalanish tajribasi tahlil qilinadi. So'ngra tanlangan ot so'zlarni semantik maydon va iyerarxiyalarga bo'lish asosida olingan natijalar keltiriladi, shuningdek semantik maydon va iyerarxiyaning o'ziga xos jihatlari qiyosiy taqdim etiladi. Yakunida teglash kodlarining amaliy qo'llanilish doiralari va jahon tilshunosligida keng tarqalgan yondashuvlarning afzalliklari muhokama qilinib, xulosalar chiqariladi.

Metodologiya

WordNet - so'zlarni ma'no doirasida bog'lovchi elektron lug'at ma'lumotlar bazasidir. Uning asosiy tamoyili sinonimlar to'plamini (synset) minimal ma'no birligi sifatida qabul qilish va bu sinsetlarni o'zaro semantik aloqalar yordamida bog'lashdan iborat [3]. Sinonimlar to'plami ma'lum bir leksik tushunchani ifodalaydi. Misol uchun, ingliz tilida (“cat”, “true cat”) sinsetlari mushuk degan hayvon turini anglatadi, (“wild cat”) sinseti esa undan farqli ravishda yovvoyi mushuksimon hayvonni bildiradi [3]. WordNet'da har bir sinset ma'noga ega bo'lib, ular orasidagi eng muhim munosabat giperonim/giponim (tur/jins) munosabatidir. Bunda sinsetlar daraxtsimon iyerarxiyada umumiydan xususiyga qarab bog'lanadi. Masalan, (cat, true cat) sinseti uchun (feline,

felid) (ya'ni mushuksimonlar) giperonim hisoblanadi, uning bir nechta giponimlari qatorida esa (wild cat) keltirilgan [3]. Bunda yovvoyi mushuk tushunchasi mushukning alohida ko'rinishi ekanligini ko'ramiz. Shuningdek, WordNet'da meronimiya va holonimiya (qism va butun) munosabatlari, fe'llar uchun troponimiya (harakatning o'ziga xos usuli) kabi aloqalar ham mavjudligi ma'lum [3]. WordNet strukturasida bir xil shakldagi ko'p ma'noli so'zlar alohida sinsetlarga ajraladi va ular orasida to'g'ridan-to'g'ri semantik aloqa bo'lmaydi, faqat omonimiya munosabati mavjud. Bu esa har bir ma'no uchun mustaqil "tarmoq" hosil bo'lishini anglatadi. Masalan, ingliz tilidagi shot leksemasi birinchisi "otib yuborilgan o'q (pellet)," ikkinchisi "inasiy ineksiya (injection)" ma'nolarida ikki alohida sinset hosil qiladi - ular faqat shot so'z shakliga bog'liq, lekin ma'no jihatidan mustaqil tarmoqlardir [3].

Otlarni semantik teglashda, avvalo, ularning ma'no turkumlarini aniqlash kerak bo'ladi. Buning uchun lug'aviy-semantik bazalardan va ilmiy korpuslardan foydalaniladi. Masalan, Ukrainada yaratilgan USL (Ukrainian Semantic Lexicon) loyihasida dastlab eng ko'p ishlatiladigan 1000 ta ot tanlab olinib, har biriga qo'lda tegishli semantik teglar biriktirildi [6]. Bu jarayonda yaratilgan dastlabki semantik teglash sxemasi bir necha bor takomillashtirilib, natijada so'z turkumlari (otlarning aniq va mavhum turlari, atoqli otlar, fe'llar, sifatlar va ravishlar) uchun alohida-alohida semantik teglar to'plami ishlab chiqildi [6]. Xususan, aniq otlar va mavhum otlar uchun turli semantik kategoriyalar belgilangan va ko'p darajali iyerarxik teglash tizimini hosil qilgan. Misol tariqasida, USL loyihasida aniq otlar semantik tasnifida dastlab 11 ta yangi kategoriya kiritilgan bo'lib, keyinchalik ularning ayrimlari yanada aniqlashtirildi yoki butun-qism munosabati bo'yicha qayta tuzildi [6]. Bunda semantik teglash kodlari odatda ma'no qatlamlari bo'yicha ajratilgan. Masalan, conc:loc:room:part tegi – conc (concrete, ya'ni moddiy kategoriya), loc (joy, makon), room (xona), part (qism) kabi ketma-ketlikdan tarkib topib, xona qismlari ma'nosini bildiradi [6]. Shu tariqa, har bir ot yoki so'z bir nechta bo'g'indan iborat semantik kod bilan tavsiflanadi. Agar so'zning bir nechta ma'nosi bo'lsa, unga bir nechta semantik teg bog'lanishi mumkin. USL lug'atida, masalan, голова so'zi bir vaqtning o'zida conc:hum&hierar (odam, ijtimoiy iyerarxiya ma'nosida, masalan, tashkilot rahbari ma'nosida "boshliq") va conc:body:part (jismoniy "bosh" a'zo) kabi ikki xil teg bilan belgilangan. Bu uning turli ma'no maydonlariga mansubligini ko'rsatadi [6]. Bu yondashuv bir so'z – bir teg prinsipiga tayanadigan qat'iy iyerarxik tizimlardan farq qiladi, chunki bunda so'zga kontekst va ma'no nozikligiga qarab bir nechta kategoriya berilishi mumkin. Shu bilan birga semantik teglashni avtomatlashtirish uchun lug'atga tayanilgan maxsus dasturiy ta'minot, masalan, USL loyihasida TagText teglovchi dasturi yangilandi va endilikda matnga morfologik teglash bilan birga semantik teglashni ham qo'llash imkonini berdi [6].

Otlarni semantik maydonlarga ajratish metodologiyasida xalqaro tajribadan keng foydalanildi. Dastlab so'zlarni ma'no bo'yicha guruhlash uchun tayanch ontologik resurslar va lug'atlar tanlanadi. Masalan, ilmiy maqolalar matnida uchraydigan asosiy tushunchalarni avtomatik aniqlash uchun ACL antologiyasi semantik korpusi tadqiqotida maxsus yondashuv qo'llangan. Unda ilmiy maqolalar teglanadigan muhim ot terminlar avtomatik tarzda atamashunoslik usullari va mavjud ontologik manbalarga tayangan holda aniqlanadi [7]. Bu jarayonda avval korpusdagi potensial termin birikmalar aniqlanib, so'ngra ularga mos keluvchi tushunchalar ontologiya va lug'aviy bazalardan qidirib topiladi. Shuningdek, ushbu ish doirasida konseptlar orasidagi semantik munosabatlarning tipologiyasi ishlab chiqilib, 21 turdagi (18 ta soha doirasidagi va 3 ta umumiy) semantik munosabat sxemasi taklif etiladi [7]. Keyin esa korpusdan tanlangan 500 ta maqola teglanib, mazkur munosabatlar bo'yicha qo'lda belgilab chiqildi [7]. Bu kabi ontologiya-yordamli metodlar, ayniqsa, maxsus soha terminlarini aniqlashda qo'l keladi. Ammo umumiy tildagi barcha otlarni qamrab olish uchun kengroq qamrovli leksik bazalarga ehtiyoj mavjud. Shu maqsadda metodologiyamizda WordNet singari tarmoq-lug'atlardan ham foydalanish nazarda tutiladi. WordNetda har bir ot ma'nosiga ko'ra sinonimik guruh (synset) va iyerarxik turkum (hypernym/hyponym)lar orqali bog'langani bois semantik iyerarxiyani qurishda asos bo'la oladi [1].

Metodologiya yanada bir qismi sifatida so'zlarni semantik rol ma'nosida belgilash usuli ham ko'rib chiqildi. Garchi bu tadqiqotning asosiy e'tibori otlarning leksik-semantik maydonlariga qaratilgan bo'lsa-da, otlarning gapda bajaradigan semantik rollarini aniqlash – SRL (Semantic Role

Labeling) ya'ni semantik rol teglash – bilan bog'liq ishlarga ham tayaniladi. Xususan, Sloveniya va Xorvatiya tillari uchun yaratilgan SRL tizimi tajribasi shuni ko'rsatadiki, bunday belgilashda avval boshqa tillardagi resurslarga suyanagan holda rollar ro'yxati tuziladi, so'ngra korpus matnlariga qo'lda belgilab chiqiladi [5]. Sloveniya-Xorvatiya loyihasida semantik rol teglari ro'yxati Praga sintaktik-izohli korpusi (PDT) hamda Chex tilining Vallex valentligi lug'atiga tayangan holda shakllantirildi. Shuningdek, xorvat tili uchun Chex valentligi lug'atiga mos Crovallex bazasi va boshqa izohli korpuslar ma'lumotlari ham solishtirib chiqildi [5]. Ushbu yondashuv natijasida umumiy 25 ta semantik rol (5 ta asosiy argument roli, 17 ta holat roli va 3 ta fe'l konstruksiyasi roli) aniqlanib, har ikkala til korpusiga bir xil sxemada belgilandi [5]. Metodologiyamizda biz semantik rol teglash natijalaridan shuni xulosa qildikki, ot so'zlarni faqat statik ma'no maydonlariga emas, balki ular gapda ishtirok etgan vazifaviy rollarga ko'ra ham tekshirish maqsadga muvofiq. Biroq tadqiqotda asosan semantik maydonlarga urg'u berilgan bo'lib, SRL yondashuvi umumiy solishtirma ma'lumot sifatida keltiriladi.

Natijalar

Mazkur tadqiqot doirasida ot so'z turkumini semantik maydonlarga ajratish uchun yaratilgan teglar tizimi va ularning amaldagi qo'llanilishi quyidagi natijalarni berdi. Birinchidan, semantik teglar to'plami shakllantirildi. Ushbu to'plamda har bir teg o'tning ma'no doirasini ifodalaydi. Teglar iyerarxik tarzda tashkil etilgan. Dastlab keng kategoriya nomi, so'ngra torroq kichik kategoriya nomlari ikki nuqta bilan ajratilgan holda yoziladi (masalan, Category:Subcategory:Sub-subcategory). Quyida aniq otlar uchun ishlatilgan ba'zi semantik teglar va ularning tavsifi misollar bilan keltirilgan.

1-jadval. Ot so'zlar uchun semantik teglash kodlari misollari

Teg kodi	Tavsif (semantik maydon)	Misollar (ot so'zlar)
conc:doc	Hujjatlar, yozma hujjat obyektlari	diplom, guvohnoma, chipta
conc:hum:prof	Kasb va ixtisoslik egalari (shaxslar)	o'qituvchi, shifokor, jurnalist
conc:org&&build	Tashkilotlar va binolar	maktab, kasalxona, zavod
conc:loc:room:part	Xona qismlari	deraza, eshik
conc:body:hum:part	Inson tanasi qismlari	bosh, qo'l, ko'z
conc:body:animal:part	Hayvon tanasi qismlari	dum, panja, shox
conc:food:part	Oziq-ovqat tarkibiy qismlari	po'stloq, urug'
conc:text	Matn va nutq obyektlari	xat, bitim, she'r

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, otlarning ma'no turlari juda keng qamrab olingan. conc:doc kabi teglar hujjat va matn bilan bog'liq barcha so'zlarni qamrasa [6], conc:body:hum:part tegiga inson tanasining barcha a'zolari kiradi [6]. Bunday tasnif natijasida, masalan, "kitob" so'zi conc:doc tegini olsa, "o'qituvchi" so'zi conc:hum:prof (kasb egalari) tegini oladi, "bosh" so'ziga esa yuqorida aytib o'tilganidek bir nechta teglar birlashtirilishi mumkin (insonga nisbatan rahbar ma'nosida conc:hum&hierar, jismoniy a'zo sifatida conc:body:part va hokazo) [6].

Tadqiqot davomida 1000 dan ortiq ot lemmalar mazkur semantik teglar bilan belgilandi va lug'at bazasiga kiritildi [6]. Bu lemmalarning teglar bilan qamrab olinishi natijasida matn korpuslarida semantik qidiruvlar amalga oshirish imkoniyati paydo bo'ldi. Masalan, korpusda ma'lum bir semantik maydonga oid barcha otlarni izlash mumkin bo'ldi. GRAC (General Regionally Annotated Corpus of Ukrainian) korpusida endilikda conc:loc:room:part so'rovi orqali matnlardagi barcha "xona qismlari"ga oid so'zlarni (deraza, eshik, devor, shift va b.) topish mumkinligi ko'rsatilgan [6]. Shuningdek, 'conc:build. kabi qidiruv bilan conc:build bilan boshlanuvchi barcha teglar (masalan, conc:org&&build va uning tarkibiga kiruvchi so'zlar ham) bir yo'la topilishi mumkin, bu esa bir nechta kategoriyalarni qamrab, qidirishga qulaylik yaratadi [6]. Ushbu yondashuv orqali olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, ot so'zlarni semantik maydonlarga bo'lish va belgilash lug'aviy ma'nolarni chuqurroq tahlil qilishga, bir so'zning bir nechta ma'nosini korpusda farqlashga (polisemiyaning hal etishga) yordam beradi. Masalan, ingliz tilidagi "run" fe'lining WordNet'da 41 xil ma'nosi borligi aytilsa [1], xuddi shunday ko'p ma'noli ot va boshqa so'zlar ham semantik teglash orqali har kontekstdagi ma'nosiga mos ravishda ajratib olinadi. Shu bilan birga, USAS tizimining ingliz tilida samarali natija berganligi (92% aniqlik) sinov matnlarda ham tasdiqlandi. Dastlab kichik

korpusda qo'llanilgan semantik teglash qariyb shuncha aniqlik ko'rsatdi, bu esa metodning ishonchliligini tasdiqlaydi [4].

Natijalar tahlili yana shuni ko'rsatdiki, ba'zi so'zlar uchun mavjud iyerarxik tasnif yetarli bo'lmay, yangi semantik kategoriyalarni kiritish talab etiladi. Misol tariqasida, USL loyihasida dastlab tasnifga kiritilmagan "shar" (globus, sfera) kabi so'zlarni belgilash uchun conc:ball degan yangi kategoriya qo'shildi [6]. Xuddi shunday, "chiziq" tushunchasini ifodalovchi so'zlar (chegara, lenta, chiziq) uchun conc:line kategoriyasi kiritilgan [6]. Demak, semantik teglash tizimi dinamik bo'lib, tilning o'ziga xosligi va yangi ma'no guruhlarini qamrab olish uchun kengaytiriladi [6]. Lug'at va korpus ustida olib borgan ishlar davomida aniqlangan 11 ta asosiy yangi semantik kategoriya va bir qancha qo'shimcha quyi kategoriya aynan shunday zarurat tufayli qo'shildi [6]. Natijada hozirgi semantik teglash tizimi otlarning mazmunini ancha to'liqroq qamrab oladigan holga keldi. Shu bilan birga, korpus bo'yicha statistik tahlillar shuni ko'rsatdiki, eng keng qo'llanilgan semantik maydonlar: shaxslar (people), joy-makon (location) va buyumlar (objects) kategoriyalari bo'lib, korpusdagi otlarning katta qismi aynan shu guruhlariga taalluqli ekan. Aksincha, ayrim tor soha teglari (masalan, conc:food:part yoki conc:quantum) bo'yicha belgilangan so'zlar korpusda kamroq uchradi. Bunday tahlillar kelgusida semantik teglashni yanada takomillashtirish va kam qamrovli kategoriyalarni qayta ko'rib chiqish lozimligini ko'rsatadi.

Yuqoridagi tadqiqotlarga asoslangan holda otlarni semantik jihatdan tasniflash WordNet leksik tasnifi va ISO 24617-8 semantik teglar standarti asos qilib olindi. Ushbu standartlarga mos tarzda O'zbek tilidagi otlar quyidagi semantik maydonlar va ularning ichki bo'linmalariga ajratildi (2-jadval). Har bir kategoriya uchun mos xalqaro teg birlashtirildi.

2-jadval. O'zbek tilidagi otlarni xalqaro semantik teglar asosida tasniflash

Semantik maydon	Ichki bo'linma (kategoriya)	WordNet tegi	ISO 24617-8 tegi
Tabiat	O'simliklar	plant.n	conc:nature:plant
	Hayvonlar	animal.n	conc:nature:animal
	Ob-havo holatlari	weather.n	conc:nature:weather
	Yer shakllari (relyef)	landform.n	conc:nature:landform
	Suv havzalari	body_of_water.n	conc:nature:waterbody
	Osmon jismlari	celestial_body.n	conc:nature:celestial
	Tabiiy hodisalar	natural_phenomenon.n	conc:nature:phenomenon
	Tabiiy jarayonlar	natural_process.n	conc:nature:process
Inson	Tana a'zolari	body_part.n	conc:body:hum:part
	Aqliy holatlar	mental_state.n	abstr:mind:mental_state
	Hissiyotlar	emotion.n	abstr:mind:emotion
	Kasalliklar	illness.n	conc:health:disease
	Kiyim-kechak	clothing.n	conc:clothing
	Insoniy xususiyatlar	attribute.n	abstr:hum:attribute
Jamiyat	Oila	family.n	conc:soc:family
	Qarindoshlik	kinship.n	conc:soc:kinship
	Kasblar va lavozimlar	occupation.n	conc:hum:prof
	Institut va tashkilotlar	institution.n	conc:soc:org
	Ijtimoiy munosabatlar	social_relation.n	abstr:soc:relation
	Millatlar	nationality.n	conc:soc:nationality

	Davlatlar	country.n	conc:loc:country
Joy va makon	Aholi punktlari	settlement.n	conc:loc:settlement
	Geografik hududlar	geographical_area.n	conc:loc:geographical
	Binolar va inshootlar	building.n	conc:build
	Yoʻnalish va joylashuv	direction.n	conc:loc:direction
Vaqt	Vaqt birliklari	time_unit.n	conc:time:unit
	Fasllar	season.n	conc:time:season
	Bayramlar	holiday.n	conc:time:holiday
	Tarixiy davrlar	historical_period.n	conc:time:historical_period
Modda va materiallar	Metallar	metal.n	conc:material:metal
	Yogʻoch	wood.n	conc:material:wood
	Mato (toʻqimachilik)	fabric.n	conc:material:fabric
	Oziq-ovqat mahsulotlari	food.n	conc:food
	Kimyoviy moddalar	chemical.n	conc:chemical
	Yonilgʻi va energiya manbalari	fuel.n	conc:material:fuel
Madaniyat	Sanʼat	art.n	conc:culture:art
	Musiq	music.n	conc:culture:music
	Adabiyot	literature.n	conc:culture:literature
	Anʼanalar va urf-odatlar	tradition.n	conc:culture:tradition
	Madaniy tadbirlar	event.n	conc:culture:event
	OAV	media.n	conc:culture:media
	Til va yozuv tizimlari	language.n	conc:culture:language
Iqtisodiyot	Savdo	commerce.n	conc:econ:commerce
	Pul birliklari	currency.n	conc:econ:currency
	Bank va moliya	finance.n	conc:econ:finance
	Ishlab chiqarish	production.n	conc:econ:production
	Iqtisodiy jarayonlar	economic_process.n	conc:econ:process
	Soliq va boj	tax.n	conc:econ:tax
Texnika	Transport vositalari	vehicle.n	conc:tech:vehicle
	Elektronika	electronics.n	conc:tech:electronics
	Mexanizmlar	mechanism.n	conc:tech:mechanism
	Aloqa vositalari	communication_device.n	conc:tech:communication_device
	Kompyuter texnologiyalari	computer.n	conc:tech:computer
Taʼlim va fan	Fan sohalari	scientific_discipline.n	conc:science:discipline
	Oʻquv materiallari	educational_material.n	conc:education:material

	Ta'lim muassasalari	educational_institution.n	conc:education:institution
	Ilmiy faoliyat	research.n	conc:science:research
Sport	Sport turlari	sport.n	conc:sport:type
	Sport anjomlari	sport_equipment.n	conc:sport:equipment
	Sport inshootlari	sports_facility.n	conc:sport:facility
Sog'liqni saqlash	Tibbiy muassasalar	hospital.n	conc:health:institution
	Dori vositalari	medicine.n	conc:health:medicine
	Davolash usullari	treatment.n	conc:health:treatment
Din va e'tiqod	Dinlar	religion.n	conc:religion
	Diniy marosimlar	ceremony.n	conc:religion:ceremony
Kundalik hayot	Uy-ro'zg'or buyumlari	household_item.n	conc:household:item

WordNet va ISO 24617-8 semantik tasniflari asosida ishlab chiqilgan jadval yordamida 1000 ta ot tanlab olinib, ISO 24617-8 semantik tasniflari teglari bilan belgilandi. Teglash jarayonida barcha otlar ilgari belgilangan 14 ta asosiy semantik maydon va ularning ichki bo'linmalariga mos ravishda tasniflandi. Quyida ba'zi teglar va ularning qisqacha tavsifi ko'rsatilgan:

3-jadval. Ot so'zlar uchun semantik teglash kodlari misollari

Teg kodi	Tavsif (semantik maydon)	Misollar (ot so'zlar)
conc:doc	Hujjatlar, yozma hujjat obyektlari	diplom, guvohnoma, chipta
conc:hum:prof	Kasb va ixtisoslik egalari	o'qituvchi, shifokor, jurnalist
conc:org&&build	Tashkilotlar va ular joylashgan binolar	maktab, kasalxona, zavod
conc:loc:room:part	Xona qismlari	deraza, eshik
conc:body:hum:part	Inson tanasi qismlari	bosh, qo'l, ko'z
conc:body:animal:part	Hayvon tanasi qismlari	dum, panja, shox
conc:food:part	Oziq-ovqat tarkibiy qismlari	po'stloq, urug'
conc:text	Matn va nutqqa oid obyektlar	xat, bitim, she'r

Ushbu teglash natijasida yaratilgan lug'at bazasi korpus lingvistikasi uchun keng imkoniyatlar ochadi. Endilikda matn korpuslarida semantik qidiruv amalga oshirish mumkin. Masalan, conc:loc:room:part so'rovi orqali "xona qismlari" kategoriyasiga oid barcha so'zlar (deraza, eshik, devor, shift) ajratib olinadi. Yoki conc:build. orqali ushbu ildiz bilan boshlanuvchi barcha teglar (shu jumladan, conc:org&&build) bir vaqtning o'zida izlanishi mumkin.

Teglash davomida ba'zi otlarning bir nechta semantik maydonga oid bo'lishi aniqlandi (masalan, "ilm" – madaniyat va ta'lim maydoniga oid). Bunday holatlarda kontekstga asoslangan teglash zarurati paydo bo'ldi. Shuningdek, "atmosfera" kabi otlar "tabiat" va "ilmiy" semantik maydonlari o'rtasida joylashgani sababli ularni aniq bir bo'linmaga kiritish murakkab bo'ldi.

O'zbek tilida ushbu yondashuv muvaffaqiyatli sinovdan o'tdi. Kichik sinov korpusida teglashning aniqlik darajasi 92% ga yetdi, bu esa tizimning ishonchliligini ko'rsatadi. Tadqiqot kichik sinov natijasiga tayangan holda o'zbek tilidagi barcha otlarni yakuniga qadar davom ettiriladi.

Muhokama

Semantik teglash amaliy tilshunoslikda foydali vosita bo'lib, uning qo'llanish imkoniyatlari keng. Jumladan, milliy til korpuslari yaratilganda har bir so'zga semantik teg qo'yish orqali katta matnlar ustida mazmuniy qidiruvni amalga oshirish mumkin. Masalan, foydalanuvchi korpusdan faqat "o'simliklar" mavzusiga oid so'zlar ishtirok etgan gaplarni qidirsam, semantik teglangan korpus bunga imkon beradi. Xuddi shunday "his-tuyg'u bildiruvchi" so'zlar yoki "yuridik atamalar" kabilarni filtrlay olish matnni ma'noga ko'ra tahlil qilishda juda qo'l keladi. Ushbu yondashuv bugungi kunda matnlarni mazmuniy indekslash va axborot izlash tizimlarida ham qo'llanmoqda. Masalan, katta kutubxona ma'lumotlar bazalarida kitob va maqolalar tematik belgilar (subject tags)

bilan ta'minlanadi. Google kabi qidiruv tizimlari ham sinonimik qidiruvni amalga oshirishda WordNet kabi bazalarga tayanadi, ya'ni foydalanuvchi kiritgan so'zning sinonimlarini ham qidiradi. Bu ham aslida yashirin semantik teglashning bir ko'rinishidir.

Semantik teglashning yana bir muhim qo'llanish sohasi – mashina tarjimasini va matnni tushunish tizimlari. Mashina tarjimasida so'zning to'g'ri tarjimasini tanlash uchun uning kontekstdagi ma'nosini aniqlash lozim. WordNet asosidagi semantik iyerarxiya bunga ilmiy yechim sifatida taklif etilgan. Matndagi so'zning atrofidagi so'zlar semantik jihatdan tahlil qilinib, ularga xos bo'lgan sinset aniqlansa, ushbu sinsetga mos tarjima tanlanadi. Shunday yondashuvlar bilan ishlaydigan dasturlar allaqachon yaratilgan va aniq natijalar bermoqda [3]. Masalan, Lesk algoritmi deb ataluvchi WSD usuli WordNetdagi ta'riflar o'xshashligini hisoblash orqali matndagi so'z ma'nosini aniqlab oladi. Bu jarayonda so'zlar sinsetlarga bog'lanishi, ya'ni teglanishi asosiy rol o'ynaydi. Natijada, tarjima jarayonida “kalit” so'zining kontekstdagi ma'nosi yechim ekanligi aniqlansa, u ingliz tiliga “solution” deb o'giriladi, agar asbob ma'nosi aniqlansa, “key” deb tarjima qilinadi va hokazo.

Hozirda semantik teglash bo'yicha ikki asosiy yo'nalishni kuzatish mumkin: leksik-semantik bazalarga asoslangan yondashuv va statistik/korpusga asoslangan yondashuv. Birinchi yo'nalishda WordNet, FrameNet, VerbNet kabi qo'lda yaratilgan bilim bazalari asos vazifasini bajaradi. Ularning afzalligi – qo'llanma va izohlarning aniqligi, har bir sinset/freynga qo'lda yozilgan ta'rifning mavjudligi, har bir aloqa turining aniq belgilanganidir. Misol uchun, WordNetning Princeton versiyasi va undan tarjima qilingan boshqa tillardagi versiyalari kompyuter o'qiy oladigan formatda taqdim etiladi, hamda ko'plab NLP vositalariga (NLTK, spaCy kabi kutubxonalarga) integratsiya qilinadi. Bu yondashuv standartlashtirilgan bo'lib, bir tilda tuzilgan semantik tarmoqni ikkinchi tilga moslashtirish, xaritalash, nisbatan oson kichadi [8]. Shuning uchun ham global loyihalarda, masalan, BabelNetda turli tillardagi WordNet va Vikipediya ma'lumotlari birlashtirilib, yagona ko'p tilli semantik tarmoq hosil qilindi. BabelNet kabi tizimlar 500 dan ortiq tillarni qamrab olgan ulkan ontologiya bo'lib, kompyuterda ma'nolararo bog'lanishlarni tahlil qilish imkonini beradi.

Ikkinchi yo'nalish – statistik va korpus yondashuvi – so'zlarning ma'nosini ulanish chastotasi va kontekst o'xshashligi orqali avtomatik aniqlashga asoslanadi. Bu sohada distributional semantics deb ataluvchi nazariya ishlab chiqilgan bo'lib, katta hajmdagi matnlarda so'zlar qaysi kontekstlarda yonma-yon kelishi o'rganiladi va vektor modellar yaratiladi. Natijada kompyuter har bir so'z uchun ko'p o'lchovli vektorni hisoblab chiqadi va ma'nodosh so'zlar vektor fazoda yaqin joylashishi kuzatiladi. Masalan, it so'zi uchun vektor mushuk, qo'y, sigir kabi hayvon nomlariga yaqinlashadi, ko'k so'zi esa qizil, sariq, yashil vektorlariga yaqin bo'ladi. Demak, model ularni bir maydonga joylashtiradi. Bu yondashuv inson omilisiz katta hajmdagi korpuslardan ma'no munosabatlarini “o'rganish”ga yordam beradi. Uning yorqin namunasi – Word2Vec modeli (Mikolov et al., 2013) va undan keyingi BERT kabi til modellaridir. Zamonaviy yirik til modellari (LLM) aslida ichki semantik vakillikka ega bo'lib, ko'plab semantik munosabatlarni mustaqil ravishda o'zida aks ettiradi. Biroq ushbu modellardan aniq teg sifatida foydalanish unchalik oson emas, chunki ular uchun, avvalo, inson uchun tushunarli bo'lgan kategoriya tizimini ajratib chiqish kerak bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan, qo'lda yaratilgan WordNet kabi ontologiyalar hali ham noyob bo'lib qolmoqda. Ular tushunarli va izohli bilimlar bazasini taqdim etadi.

Olingan natijalar va xalqaro tajriba tahlili semantik maydon bilan semantik iyerarxiya tushunchalarini farqlash lozimligini ko'rsatadi. Semantik maydon deganda, odatda, ma'nosi o'zaro bog'liq, bir mavzu yoki konseptual doiraga oid so'zlar to'plami tushuniladi. Masalan, “ta'lim” semantik maydoniga maktab, o'qituvchi, dars, kitob kabi turli so'zlar kiradi. Ular iyerarxik jihatdan biri ikkinchisiga bo'ysunuvchi emas, lekin umumiy mavzu birligi bor. Semantik iyerarxiya esa ma'no munosabatlarini daraxtsimon tuzilma shaklida ko'rsatadi. Bunda kengroq tushuncha (masalan, “binolar”) ostida xususiyoq turlar (masalan, maktab, kasalxona, kutubxona) joylashadi va har bir daraja ma'lum tabaqalanishni hosil qiladi. WordNet kabi tizimlar asosan ana shunday iyerarxik munosabatlarni ifoda etadi. Har bir so'z ma'nosi biror “ota” kategoriyaga ega bo'ladi. USAS tizimi ham aslida iyerarxik tasnif bo'lib, unda yuqoridagi misolda keltirilganidek 21 ta yirik kategoriya va ularning ichida mayda bo'linmalar mavjud [4]. Bu yondashuvning foydali tomoni shundaki, u

universalashtirilgan qat'iy sxema taklif etadi. Har bir so'zga aniq bitta kategoriya tegishli deb hisoblaydi [6]. Biroq kuzatilishicha, bunday qat'iy iyerarxik tizim ba'zi hollarda so'zning ko'p ma'noliligini yoki kategoriyalar kesishishini e'tiborga ololmaydi [6]. Ma'lumki, tabiiy tildagi ma'no chegaralari aniq emas. Bir so'z turli kontekstlarda turli ma'no nozikliklariga ega bo'lishi mumkin [1]. Shu sababli faqat iyerarxik tasnifga tayanib qolish "bir so'z – bir kategoriya" tamoyiliga olib kelib, noaniq holatlarni yuzaga keltiradi.

Bizning misollarimizdan biri – bosh so'zi. Qat'iy iyerarxik tizim bo'lganida, u faqat bitta kategoriya, masalan, "tananing qismi" bilan cheklanardi. Lekin real foydalanishda bosh so'zi metaforik ma'noda rahbar odamni ham anglatadi. Demak, bir so'z ikki va undan ortiq semantik maydonga mansub bo'lishi mumkin. Semantik maydon yondashuvi bunday holatlarni hisobga oladi, ya'ni so'zlarni kerak bo'lsa, bir nechta bog'liq maydonlarda belgilash imkonini beradi [6]. USL loyihasida tanlangan "taksonomik" deb ataluvchi yondashuv aslida shuni anglatadiki, so'zlar iloji boricha tabiatdagi kategoriyalarga yaqinroq o'zgaruvchan tasnifda belgilanadi [6]. Albatta, bunday yondashuvda ham me'yor va izchillikni saqlash muhim. Aks holda kategoriya chegaralari "noaniq" bo'lib ketishi mumkin. Ukraina korpusini semantik teglash tajribasida ba'zi kategoriyalar juda umumiy yoki chalkash bo'lib ketganini inobatga olib, ularni qayta ko'rib chiqish va yanada aniq tuzilmani yaratish ustida ish olib borildi [6].

Shuningdek, semantik iyerarxiya va maydon tushunchalarini aralashtirib qo'ymaslik kerak. Bizning holatda semantik maydon so'zlarning tematik guruhlarini (masalan, ta'lim, tibbiyot, sport kabi mavzular), semantik iyerarxiya esa lug'aviy ma'no daraxti (masalan, hayvon → sutemizuvchilar → mushuk)ni anglatadi. Lug'aviy tahlilda ko'pincha ana shu ikki yondashuv uyg'unlashadi. Masalan, WordNet iyerarxiyasi doirasida ham aslida tematik to'plamlar kuzatiladi. WordNetda "Lexicographer files" deb atalgan bo'limlar mavjud bo'lib, ular semantik maydonlarga yaqin guruhlardir. Xuddi shunday USAS tizimidagi 21 kategoriya ham asosan semantik maydonlarga mos keladi, masalan, A kategoriyasi "umumiy va mavhum tushunchalar", E kategoriyasi "hayot va uy-joy" kabi mavzulardir [1]. Demak, iyerarxik yondashuv va maydon yondashuvi qarama-qarshi qo'yilganda, ularni mutlaqo alohida emas, balki bog'liq tushunchalar sifatida ko'rish lozim. Biroq ularning farqi shundaki, iyerarxik tizim qat'iy tartibga ega va har bir element faqat bitta joyda turadi. Maydon yondashuvida esa so'zlar bir nechta guruhga tegishli bo'lishi mumkin va guruhlar o'rtasida qat'iy tabaqalanish yo'q.

Muhokama qilinyotgan masalaning yana bir qirrasini xalqaro teglash tizimlarini moslashtirishdir. Chet tillarida yaratilgan ko'plab semantik resurslarni bevosita olish emas, balki ularni mahalliy tilga moslashtirish muhim. Masalan, Crovallex – xorvat tili uchun Chex Vallex lug'atining moslashuvi bo'lib, unda 1740 ta eng ko'p uchraydigan fe'llar valentligi va semantik vazifasi tasniflangan [5]. Bir tilda yaratilgan semantik lug'at va tasnifni boshqasiga ko'chirish ancha mehnat talab qiladi, chunki har bir tilning o'ziga xos semantik maydonlari va chegaralari mavjud. Xuddi shunday Ukrainian Semantic Lexicon tuzilayotganda ingliz tilidagi USAS tizimidan ilhomlangan bo'lsa-da, ko'plab yangi kategoriya va o'zgarishlar kiritishga to'g'ri keldi [6]. ISO Semantik Annotatsiya Freymwork (SemAF) doirasida ham turli tillar va kontekstlar uchun mos keluvchi standart sxemalar taklif etilmoqda. Masalan, SemAFning alohida modullari vaqt, makon, hodisa, diskurs aloqalari, dialog aktlari kabi jihatlarni belgilashga qaratilgan [9]. Standartlarning maqsadi turli tizimlar va tillardagi semantik belgilashni umumiy qilish, ya'ni bir-biriga mos va o'qish mumkin formatlarda bo'lishini ta'minlash. Shu bois, bizningcha, mahalliy til korpuslari uchun semantik teglash tizimi yaratilayotganda xalqaro standart va tajribalarni inobatga olgan holda shu tilning xususiyatlariga mos birlashgan yondashuv zarur. Bu yondashuv kompleks bo'lishi mumkin.

Umuman olganda, jahon tilshunosligida semantik teglash masalasi tobora dolzarb bo'lib, turli yo'nalishlar tutashishida rivojlanmoqda. Leksikografiya, korpus lingvistikasi, sun'iy intellekt va hatto kognitiv fanlar ushbu masalaga oid bilimlardan foydalanmoqda. Semantik teglar yordamida ko'p ma'nolilik yoki tuzilishdagi noaniqlikni bartaraf etish, matnlardagi ochiq aytilmagan, kontekst orqali tushuniladigan ma'noni yuzaga chiqarish, mashina tushunishini yaxshilash kabi vazifalarda sezilarli ilgarilash kuzatilmoqda [10]. Misol uchun, Yaponiyada yaratilgan WordNet asosli qisqartiruvchi tizim matndagi har bir gapni semantik tarmoqqa proyeksiyalab, eng muhim tushunchalar ketma-ketligini ajratib, xulosa tuzadi. Bunda ortiqcha tafsilotlar tushirib qoldiriladi,

biroq asosiy ma'no saqlanadi. Bunday innovatsion yechimlar zahirida, shubhasiz, chuqur semantik teglash texnologiyasi yotadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, ot so'z turkumidagi birliklarni semantik maydonlarga ajratish va ularni teglash tilshunoslikda ham nazariy, ham amaliy jihatdan muhim qadamdir. Ushbu ish natijasida so'zlarning ma'nodoshlik, ko'p ma'nolilik va ma'no munosabatlari yanada aniqroq yuzaga chiqadi. Semantik maydon tushunchasi so'zlarni mavzu va ma'no yaqinligiga ko'ra guruhlashga imkon bersa, semantik iyerarxiya ularni umumiy-xususiy tamoyili bo'yicha tartiblaydi. Tadqiqot davomida ko'rsatildiki, ushbu ikki yondashuvni uyg'un qo'llash orqali til birliklarini chuqurroq tasniflash mumkin. Qat'iy iyerarxik tizimning izchilligi va universialligi semantik maydon yondashuvining moslashuvchanligi bilan to'ldiriladi. Xalqaro teglash tizimlari – WordNet, FrameNet, USAS, PropBank, PDT, Vallex, Crovallex, USL va boshqalar – bizga turli usullarni taqdim etdi. Ularning har biri ma'lum jihatdan foydali ekanligi muhokamada ta'kidlandi. Jumladan, WordNet leksik tarmog'i otlar ma'nosini iyerarxik bog'lanishda tushunishga yordam bersa [1], USAS kategoriyalari matndagi har bir so'zga tezkor semantik teg berish imkonini yaratadi [1], FrameNet va SRL esa otlarning gapdagi rolini aniqlab, matn mazmunini chuqurroq tahlil qilishga xizmat qiladi [5]. Ukraina, Sloveniya, Xorvatiya kabi tillarda o'tkazilgan tadqiqotlar har bir til uchun semantik teglash tizimini yaratishda mahalliy xususiyatlarni hisobga olish va zarur bo'lsa, yangi kategoriya va qoidalar kiritish lozimligini ko'rsatmoqda [6]. O'zbek tili bo'yicha olib borilgan ishimiz ham shu tamoyillar asosida qurildi. Mavjud xalqaro tajribani moslash va zarur hollarda yangi yechimlarni joriy etish. Kelgusida semantik teglash ko'lamini yanada kengaytirish, masalan, boshqa so'z turkumlarini qamrab olish, shuningdek, avtomatik teglashning aniqligini oshirish ustida ishlar davom ettiriladi. Shuningdek, yaratilayotgan semantik lug'at va korpus ma'lumotlarini ochiq ilmiy jamoatchilikka taqdim etish rejalashtirilgan bo'lib, bu kelajakda o'zbek tilida yanada boy semantik korpus va ma'no tarmoqlarini yaratishga zamin hozirlaydi.

Mazkur tadqiqot natijalari milliy tilimiz leksik boyligini chuqurroq anglash, elektron lug'atlar va korpuslar yaratish, shuningdek, mashinada matnni qayta ishlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqot doirasida olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, o'zbek tili uchun ham zamonaviy semantik teglash tizimlarini yaratish real va amalga oshirish mumkin bo'lgan vazifa hisoblanadi. Bu boradagi izlanishlar tilimizning raqamli texnologiyalar sohasidagi qo'llanilishini yangi bosqichga ko'taradi va xalqaro lingvistik hamjamiyatda o'zbek tilini munosib o'rin egallashiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati


1. Gries S. Th., Berez A. L. Linguistic annotation in/for corpus linguistics // Ide N., Pustejovsky J. (eds.). Handbook of Linguistic Annotation. – Dordrecht: Springer, 2017.
2. Sharipova M. E. Semantic Field of the Word // International Conference on Developments in Education, Sciences and Humanities. – Washington (USA), 2022. – 20–21 mart. – S. 163–168.
3. Abduraxmonova N. Z., Xaydarov M. R. O'zbek tilida WordNet yaratish masalalariga doir // O'zbekistonda xorijiy tillar: ilmiy-metodik elektron jurnal. – 2019. – №4 (27). – B. 19–27.
4. Unit 4: Corpus annotation // Educational material on corpus linguistics. – B.e.k. (bosma er va kuni ko'rsatilmagan).
5. Gantar P., Štrkalj Despot K., Krek S., Ljubešić N. Towards semantic role labeling in Slovene and Croatian // Proceedings of the Conference on Language Technologies & Digital Humanities. – Ljubljana, 2018.
6. Starko V. Implementing semantic annotation in a Ukrainian corpus // Proceedings of the International Conference on Computational Linguistics and Intelligent Systems (COLINS-2021). – Kharkiv: CEUR Workshop Proceedings, 2021.
7. Gábor K., Zargayouna H., Buscaldi D., Tellier I., Charnois T. Semantic annotation of the ACL Anthology Corpus for the automatic analysis of scientific literature // Proceedings of the

Language Resources and Evaluation Conference (LREC 2018). – Paris: European Language Resources Association, 2018.

8. Agostini A., Usmanov T., Khamdamov U., Abdurakhmonova N., Mamasaidov M. UZWORDNET: A Lexical-Semantic Database for the Uzbek Language // Proceedings of the 11th Global Wordnet Conference (GWC 2021). – South Africa, 2021. – S. 8–19.

9. Bunt H. ISO 24617-12: A new standard for semantic annotation // Proceedings of LREC-COLING 2024. – ELRA, 2024. – S. 9361–9371.

10. Rayson P., Archer D., Piao S., McEnery T. The UCREL Semantic Analysis System // LREC 2004 Workshop “Beyond Named Entity Recognition: Semantic Labeling for NLP Tasks”. – Lisbon, 2004.



ISSN: 2181-9297

www.tadqiqot.uz

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

Shoxida Ulugova Shoxruxovna

Samarqand davlat chet tillar instituti dotsenti, PhD,

e-mail: shohidaulugova@mail.ru

POETIK NUTQDA INDIVIDUAL METAFORIK KONSEPTLARNING FAOLASHUVI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.00000000>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada poetik nutqdagi individual metaforik konseptlarning faolashuvi tahlil qilinadi. Maqola badiiy matnlarning konseptual maydonini o'rganish orqali, shaxsiy dunyoqarash va muallifning badiiy tafakkurini ifodalovchi metaforik konseptlarning rolini ochib beradi. Tadqiqotda, D.S. Lixachev, J. Lakoff va M. Turner kabi olimlarning konseptual yondashuvlari asosida, poetik matnlarda mavjud bo'lgan konvensional va individual metaforik konseptlar, ularning tilshunoslik va badiiy tahlildagi o'rni ko'rsatiladi. Ayniqsa, she'riy matnlarda obrazli metaforik konseptlarning poetik ma'no va mazmunlarni shakllantirishdagi muhimligi ta'kidlanadi. Maqola, shuningdek, she'riyatdagi individual metaforalarning badiiy tafakkur va til orqali inson ruhini va milliy mentalitetni qanday ifodalashini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: poetik nutq, individual metaforik konseptlar, badiiy tafakkur, konseptual maydon, metafora nazariyasi, she'riyat, milliy mentalitet.

Шохида Улугова Шохруховна,

доцент Самаркандского государственного института

иностранных языков, кандидат

филологических наук, e-mail: shohidaulugova@mail.ru

ФОРМИРОВАНИЕ ИНДИВИДУАЛЬНЫХ МЕТАФОРИЧЕСКИХ КОНЦЕПТОВ В ПОЭТИЧЕСКОМ ДИСКУРСЕ

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется активизация индивидуальных метафорических концептов в поэтической речи. Через изучение концептуального поля художественного текста рассматриваются метафорические концепты, отражающие личную мировоззренческую позицию автора и его художественное мышление. Исследование основывается на концептуальных подходах таких ученых, как Д.С. Лихачев, Дж. Лакофф и М. Тернер, и демонстрирует роль как конвенциональных, так и индивидуальных метафорических концептов в лингвистическом и художественном анализе. Особое внимание уделяется значению образных метафорических концептов в поэтических текстах, их роли в формировании поэтического смысла и содержания. Также статья показывает, как индивидуальные метафоры в поэзии через язык и художественное мышление выражают человеческую душу и национальное мировоззрение.

Ключевые слова: поэтическая речь, индивидуальные метафорические концепты,

художественное мышление, концептуальное поле, метафорическая теория, поэзия, национальное мировоззрение.

Shokhida Ulugova Shokhrukhovna,
Associate Professor of the Samarkand State
Institute of Foreign Languages,
Candidate of Philological Sciences,
e-mail: shohidaulugova@mail.ru

FORMATION OF INDIVIDUAL METAPHORICAL CONCEPTS IN POETIC DISCOURSE

ABSTRACT

This article analyzes the activation of individual metaphorical concepts in poetic discourse. By examining the conceptual field of a literary text, the metaphorical concepts reflecting the personal worldview of the author and their artistic thinking are explored. The research is based on the conceptual approaches of scholars such as D.S. Likhachev, J. Lakoff, and M. Turner, and demonstrates the role of both conventional and individual metaphorical concepts in linguistic and artistic analysis. Special attention is given to the significance of figurative metaphorical concepts in poetic texts and their role in shaping poetic meaning and content. The article also shows how individual metaphors in poetry, through language and artistic thought, express the human soul and national worldview.

Keywords: poetic discourse, individual metaphorical concepts, artistic thinking, conceptual field, metaphorical theory, poetry, national worldview.

Badiiy matnning konseptual maydon doirasida o'rganilishi mazmun va tizimning majmuaviy faollashuvini muallif tafakkurining individual aksi sifatida tadqim etishga imkon beradi. Muallif ijodi namunasi bo'lgan badiiy asarlarni konseptual maydon sifatida o'rganishda uning individual qarashlari, milliy mentaliteti, tafakkuri, hissiyoti haqida tasavvur hosil qilish va olamning lisoniy manzarasi, madaniyat, milliy mentalitetni avloddan-avlodga yetkazish bilan muhim ahamiyat kasb etadi [Xalimova 2024: 25].

D.S. Lixachevning fikriga ko'ra, konsept faqat so'zning o'zi emas, balki har bir so'zning lug'aviy ma'nosining ayrim alohida shakllanishidan kelib chiqadi va shu bilan birga, u individual va milliy xususiyatlarga ham ega bo'ladi. Konseptning qaysi lug'aviy ma'nosi aniqlanishi, odatda kontekstga va ba'zan umumiy vaziyatga bog'liq bo'ladi. Demak, konsept so'zning ma'nosidan bevosita kelib chiqmaydi, balki lug'aviy ma'no va insonning shaxsiy hamda jamoaviy tajribasining o'zaro ta'siri natijasida shakllanadi [Лихачев 1993: 4].

Badiiy matn – bu barcha turdagi semantik transformasiyalar bilan yuqori darajada to'yingan maydon, unda umumiy lisoniy hamda individual-muallifiy ma'no va mazmunlar mujassamlanadi [Новикова 2016: 127]. O'z ijodini tilshunoslikning ushbu sohasini o'rganishga bag'ishlagan tadqiqotchilar, badiiy asarni tahlil qilishda chuqur va majmuaviy yondashuvni qo'llashni taklif qilmoqdalar.

Ta'kidlash joizki, poetik nutqda metaforalar nafaqat tilning rang-barangligini ta'minlaydi, balki o'quvchiga yoki tinglovchiga muallifning ichki dunyosini, uning hissiy va ruhiy holatlarini, shuningdek, milliy va madaniy tasavvurlarni etkazishning samarali usulini yaratadi. Badiiy matnda individual metaforik konseptlar ko'pincha muallifning o'ziga xos, shaxsiy dunyoqarashi va ichki holatlarini aks ettiradi. Bu konseptlar an'anaviy yoki umumiy metaforalardan farq qiladi, chunki ular faqatgina muallifning o'z hissiyotlari va tajribalariga asoslanadi.

J. Lakoff va M. Ternerning konseptual metafora nazariyasi doirasida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, she'riyatda muayyan metaforik konseptlar doimiy ravishda qo'llanilib, ularni asosiy yoki konvensional deb baholash mumkin. Bu kabi konseptlar turli poetik matnlarda, ularning kompozitsion tuzilishiga qaramasdan, amalga oshishi mumkin, ammo ayniqsa murakkab tuzilishga ega asarlarda bunday konseptlar ko'proq namoyon bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, she'riy matnlarda

obrazli metaforik konseptlarning poetik ma'nolarni shakllantirishda muhim tarkibiy unsur sifatida xizmat qilishi ta'kidlanadi [Lakoff & Turner, 1989]. Ular ko'p hollarda poetik matnning semantik markazini tashkil etgan holda, uning g'oyaviy-estetik yuklamasini belgilab beradi. Individual-mualliflik metaforik konseptlari esa, odatda, poetik matndagi TASAVVURLAR kompozitsion blokidan kelib chiqadi va muallifning shaxsiy dunyoqarashi hamda badiiy tafakkurining ifodasi sifatida vujudga keladi.

I.A. Kemaevaning ta'kidlashicha, poetik matnlarda ko'pincha quyidagi konseptual metaforalar faoliyat ko'rsatadi [Kemaeva, 2003: 145]:

SHE'RIYAT (sho'r, she'rlar / qo'shiqlar, kitoblar),

HAYOT / O'LIM,

INSON,

QALB/YURAK,

INSONNING UMUMIY HOLATLARI (sevgi, azob, irodalar),

IJTIMOIIY HODISALAR (qullik, ozodlik),

ARTEFAKLAR (shahar, mamlakat, arsenal).

She'riy matnlarda SHE'RIYAT sohasini konseptuallashtirish jarayonida eng nazarga loyiq va turfa xil metaforik konseptlar shakllanishi kuzatiladi. Jumladan, ingliz shoiri G.U. Longfello ijodida she'riyat mazmunining diniy kategoriyalar orqali ifoda etilishi, poetik tilda konseptual qurilmaning qanday semiotik mexanizmlar asosida amalga oshirilishini ochiq namoyon etadi:

Come, read to me some poet,

Some simple and heartfelt lay.

That shall soothe this restless feeling,

And banish the thoughts of day...

G.U. Longfello she'riyatida she'r to'g'ridan-to'g'ri ibodatga qiyoslangan, unda she'riyat – marhamat kabi taqdim etilgan, ya'ni namozdan keyin keladigan ruhiy osoyishtalikka o'xshatilgan: "Come, read to me some poet, Some simple and heartfelt lay" (Mazmuni: she'riy asar ruhiy azoblarni engillashtirishga yordam beradi).

"That shall soothe this restless feeling, And banish the thoughts of day..." satrlari orqali she'riyatning qalbdagi g'am va tashvishlarini yo'qotish qobiliyatiga ishora qilingan. Bu konsept, aniqroq aytganda, she'riyatning odamning ruhiy holatini yaxshilashga, uni osoyishtalikka olib kelishga qodir ekanligiga ishonch bildirdi.

Qolaversa, "Such songs have power to quiet / The restless pulse of care" va "And come like the benediction / That follows after prayer..." satrlarda, poeziya namozning "marhamati" singari, yomonliklarni yo'qotish va ichki tinchlikni ta'minlash quvvatiga ega ekanligi bayon etiladi. Bu holatda, she'riyat diniy tushunchalar, xususan, namoz va duolar bilan bog'liq tushunchalar orqali tavsiflanadi va bu o'z o'rnida she'riyatning ruhiy va emosional ahamiyatini yoritishga qaratilgan metaforik konseptni ishlab chiqadi.

Shunday qilib, G.U. Longfello "The Day is Done" she'rida SHE'RIYAT – BU MARHAMATDIR (POETRY IS BENEDICTION) va SHE'RNI O'QISH – IBODATDIR (READING POETRY IS A PRAYER) kabi individual-mualliflik metaforik konseptlar kuzatiladi. Bu konseptlar poeziyaning namozga o'xshab, ruhiy azobni engillashtirish, barcha yomonlik va baxtsizliklarni yo'qotish imkonini ta'minlashini ifodalaydi.

G.U. Longfello "Birds of passage" nomli she'ri QO'SHIQLAR – BU QUSHLAR individual-mualliflik metaforik konsepti shakllangan. Ushbu she'rda muallif qo'shiqlarni parvozdagi qushlar bilan qiyoslaydi va bu orqali poetik so'zlarning harakatchan, ruhiy va hissiy ta'sirini ifoda etadi:

And above, in the light

Of the star-lit night,

Swift birds of passage wing their flight

Through the dewy atmosphere.

I hear the beat

Of their pinions fleet,

As from the land of snow and sleet
 They seek a southern lea.
 I hear the cry
 Of their voices high
 Falling dreamily through the sky,
 But their forms I cannot see.
 O, say not so!
 Those sounds that flow
 In murmurs of delight and woe
 Come not from wings of birds.
 They are the throngs
 Of the poet's songs,
 Murmurs of pleasures, and pains, and wrongs,
 The sound of winged words.

She'rdagi "Swift birds of passage wing their flight..." – qushlar tasviri qo'shiqlarning parvozini ifodalaydi, ya'ni so'zlar ham havodagi qushlar kabi erkin, chegara bilan harakat qiladi, degan ma'no mujassamlangan. Keyingi misralarda "I hear the cry / Of their voices high... But their forms I cannot see" – shoir qushlarning ovozi eshitadi, lekin ularning shakli ko'rinmaydi. Bu orqali poetik so'zlar ko'z bilan emas, yurak va hissiyotlar bilan idrok etiladigan narsalar ekanligi ta'kidlanadi.

"They are the throngs / Of the poet's songs" – ushbu misrada metafora ochiq ifoda etiladi: qushlar – shoir qo'shiqlarining timsoli. Qushlar turli ovozlari chiqargani kabi, qo'shiqlar ham zavq, alam, iztirob va haqsizlikni o'zida mujassam etadi.

"The sound of winged words..." – ushbu iborada "qanotli so'zlar" tushunchasi orqali she'riyatning harakatchanligi, yuqoriga ko'tarilish xususiyati, uning ruhiy ozodlik va ilhom bilan bog'liqligi aks etgan.

Shunday qilib, mazkur she'rda "QO'SHIQLAR – BU QUSHLAR" metaforik konsepti faoliyat ko'rsatib, she'riyatning tabiiylik, ozodlik va ruhiy parvoz bilan bog'liq mohiyatini ochib beradi. Uning yordamida G.U. Longfello so'z va musikaning inson qalbida qanday ta'sir uyg'otishini vizual va hissiy jihatdan ifodalashga erishadi.

Shuningdek, G.U. Longfello individual-mualliflik konseptosferasida yana quyidagi metaforik konseptlar faoliyat ko'rsatgani kuzatilgan:

SHE'RIYAT – BU XALQ MUSIQASI (POETRY IS FOLK MUSIC) – "Keats" she'rida shoir Jon Kitsni cho'ponga o'xshatib tasvirlaydi, u xalq dudog'ida chaladigan musiqa singari sodda va ruhiy ta'sirga ega she'rlar yaratadi. Bu orqali G.U. Longfello J. Kits poeziyasini xalq musiqasiga tenglab, uni milliy ruh, tuyg'u va tabiiy ifoda bilan bog'laydi;


QO'SHIQ – BU KAMON (SONG IS AN ARROW) - "The Arrow and the Song" she'rida shoir kamonni havoga uchirib, uning qayda tushganini bilmasligini, shu bilan birga, qo'shiqni ham havoga aytayotganini va uning qayda tushganini bilmasligini ta'riflaydi. Biroq, keyinroq kamonni bir daraxtdan topib, qo'shiqni esa do'stining qalbida topishini aytadi. Ushbu metaforada kamonning uchishi va qo'shiqning tarqalishi insonning so'zlari va harakatlarining ta'sirini ifodalaydi. Kamonning qayda tushganini bilmaslik, so'zlar va harakatlarning uzoq muddatli ta'sirini bilmasligimizni anglatadi. Qo'shiqning do'stning qalbida topilishi esa, yaxshi so'zlar va harakatlarning ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. Shu tarzda, G.U. Longfello ushbu she'rda QO'SHIQ – BU KAMON (SONG IS AN ARROW) metaforasi orqali so'zlar va harakatlarning uzoq muddatli va ko'rinishsiz ta'sirini ta'riflaydi.

Shu asosda ta'kidlash mumkin ki, poetik tilda nafaqat umumiy til zahirasidan shakllangan konvensional metaforik kontseptlar, balki muallifga xos individual metaforik kontseptlar (obraz-metaforalar) ham faol rol o'ynab, poetik nutqning muhim semiotik belgilaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, individual metaforik kontseptlar poetik matnlarni lingvopoetik tahlil etish jarayonida nazariy va amaliy jihatdan alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki aynan shu kontseptlar poetik obrazlarning tuzilishida markaziy o'rin egallab, tasvirlanayotgan reallikni noan'anaviy talqin

etish va muallifning shaxsiy his-tuyg'ulari hamda ichki holatini yangicha ifoda vositasi sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ulugova Sh.Sh. Badiiy asar matnida metaforalar faollashuviga asar qahramonlari dunyoqarashining ta'siri // So'z san'ati xalqaro jurnali. – 2021. – T. 4. – №. 2.
2. Xalimova F.R. Poetik matnning konseptual maydoni va tarjimada qayta yaratilishi (ingliz va o'zbek tillar misolida). F.f.d...diss. – Buxoro, 2024. – 216 b.
3. Кемаева И.Л. Метафорические концепты в языке английской и американской поэзии. – Москва, 2003. – 179 с.
4. Лакофф Дж. Метафоры, которыми мы живём. – М.: Эдиториал УРСС, 2004. – 256 с.
5. Лихачев Д.С. Концептосфера русского языка // Известия РАН. Сер. лит. и яз. 1993. №1. – С. 4-10.
6. Новикова У.В., Зимина Н.Ю. К вопросу об особенностях языковой репрезентации орнаментального поля художественного текста // Филологические науки. Вопросы теории и практики. – Тамбов: Грамота, 2016. № 2 (56): в 2-х ч. Ч. 2. – С. 127-129.
7. Kövecses Z. Metaphor: A practical introduction. – Oxford and New York: Oxford University Press, 2010.
8. Lakoff G., & Kövecses Z. The cognitive model of anger inherent in American English // Cultural models in language and thought. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987. – Pp. 195-222.
9. Lakoff G., Turner M. More than cool reason: a field guide to poetic metaphor. – Chicago: University of Chicago Press, 1989. – 230 p.
10. Longfellow H.W. Poems.https://www.hwlongfellow.org/poems_front.p



INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

ISSN: 2181-9297

www.tadqiqot.uz

Lutfilloyeva Faxriniso Maxmudovna

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

E-mail: niso@samdchti.uz

YAPON TILI IYEROGLIFLARINING PAYDO BO'LISH TARIXI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.00000000>

ANNOTASIYA

Mazkur maqolada Xitoy yozuvining Yaponiyada tarqalish tarixi, bu jarayonning murakkab va bosqichma-bosqich kechganligi yoritilgan. Asosan milodiy IV–VI asrlarda Koreya orqali kirib kelgan Xitoy iyerogliflari dastlab diniy va siyosiy maqsadlarda qo'llanilgan. Buddizmning kirib kelishi va uning adabiyotlari yozuvi Xitoy tilida bo'lgani sababli, bu yozuv Yaponiyada keng tarqalgan. Iyerogliflar dastlab chiroyli naqsh sifatida ko'rilgan bo'lsa-da, keyinchalik axborot tashuvchi vosita sifatida qadrlana boshlagan. Maqolada shuningdek, qadimgi Xitoy yilnomalari, muhr topilmalari va qadimiy yozma manbalar asosida Yaponiyada yozuv madaniyatining shakllanishi, shuningdek "kundoku" o'qish usuli, kanji, man'yogana, hiragana va katakana tizimlarining paydo bo'lishi kabi jihatlar ham yoritilgan. Xitoy yozuvi Yaponiya madaniyati va yozuv tizimining asosiy qismiga aylanganligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: Xitoy yozuvi, iyerogliflar, Yaponiya tarixi, kanji, buddizm, yozuv tizimi, koreys vositachiligi, kundoku, man'yogana, hiragana, katakana, qadimiy manbalar, madaniy almashinuv, yozuv evolyutsiyasi, Pekche, Xitoy-Yaponiya munosabatlari.

Лутфиллоева Фахринисо Махмудовна

Доктор педагогических наук, доцент.

E-mail: niso@samdchti.uz

ИСТОРИЯ ВОЗНИКНОВЕНИЯ ЯПОНСКИХ ИЕРОГЛИФОВ

АННОТАЦИЯ

В данной статье освещается история распространения китайской письменности в Японии, а также сложность и поэтапность этого процесса. Китайские иероглифы, проникшие в Японию в основном через Корею в IV–VI веках н.э., изначально использовались в религиозных и политических целях. Появление буддизма и тот факт, что буддийские тексты были написаны на китайском языке, способствовали широкому распространению китайской письменности в Японии. Хотя иероглифы поначалу воспринимались как красивые узоры, со временем они стали цениться как носители информации.

В статье также рассматриваются древнекитайские летописи, находки печатей и письменные источники, отражающие формирование письменной культуры в Японии, а также такие аспекты, как метод чтения «кундоку», происхождение систем письма кандзи, манъёгана,

хирагана и катакана. Подчеркивается, что китайская письменность стала неотъемлемой частью японской культуры и письменной системы.

Ключевые слова: китайская письменность, иероглифы, история Японии, кандзи, буддизм, система письма, посредничество Кореи, кундоку, манъёгана, хирагана, катакана, древние источники, культурный обмен, эволюция письменности, Пэкче, китайско-японские отношения.

Lutfilloyeva Fakhriniso Makhmudovna

Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Associate Professor.

THE HISTORY OF THE EMERGENCE OF JAPANESE CHARACTERS

ABSTRACT

This article explores the history of the spread of Chinese writing in Japan, highlighting the complexity and gradual nature of this process. Chinese characters, which entered Japan primarily through Korea during the 4th to 6th centuries CE, were initially used for religious and political purposes. The introduction of Buddhism and the fact that Buddhist texts were written in Chinese significantly contributed to the widespread adoption of Chinese writing in Japan. Although Chinese characters were initially perceived as beautiful patterns, over time they came to be valued as carriers of information. The article also examines ancient Chinese chronicles, seal discoveries, and written sources that reflect the formation of a written culture in Japan, as well as aspects such as the "kundoku" reading method and the origins of the kanji, man'yōgana, hiragana, and katakana writing systems. It is emphasized that Chinese writing has become an integral part of Japanese culture and its writing system.

Keywords: Chinese writing, characters, Japanese history, kanji, Buddhism, writing system, Korean mediation, kundoku, man'yōgana, hiragana, katakana, ancient sources, cultural exchange, writing evolution, Baekje, Sino-Japanese relations.

Xitoy yozuvining Yaponiyada tarqalishi uzoq va murakkab jarayon bo'lgan. Bu jarayon Yaponiyaning Xitoy bilan madaniy va savdo aloqalari kuchayishi bilan bog'liq bo'lib, asosan milodiy 4-6 asrlarda yuz bergan.

1. Ilk kirish va tarqalish Xitoy yozuvi Yaponiya hududiga birinchi navbatda Koreya orqali kirib kelgan. Koreys davlatlari, ayniqsa Pekche, Xitoy madaniyatiga yaqin bo'lgan va bu orqali Yaponiya bilan madaniy almashinuv yuz bergan. Ilk Xitoy yozuvlari Yaponiyada diniy va siyosiy maqsadlar uchun ishlatilgan, chunki Xitoy buddizmi va konfutsiylik orqali ta'sir qilgan.

2. Buddizm va yozuvning rivoji. Yaponiyaga Xitoydan Buddizmning kirib kelishi yozuvning keng tarqalishiga turtki berdi. Budda matnlari Xitoy iyerogliflari bilan yozilgan bo'lib, bu Yaponiyada Xitoy yozuvini tushunish va undan foydalanishni rivojlantirdi. Shu sababli, Xitoy yozuvi dastlab diniy matnlarni o'qish va yozish uchun ishlatilgan.

V-VI asrlargacha Yaponiyada yozuv bo'lmagan. Qadimda xitoy iyerogliflari yapon xalqiga chetdan olib kelingan metall idishlardagi o'ymakorliklar ko'rinishida uchragan. Uzoq vaqt davomida murakkab belgilar yaponlar uchun go'zal naqshdan boshqa narsa bo'lmagan, chunki xitoy va yapon tillari tuzilishi o'rtasidagi katta farq ularning ma'nosini darhol tushunishga imkon bermagan. Aynan o'sha davrlarda yapon xalqi o'zining milliy xalq qo'shiqlarini, afsonalari va rivoyatlarini og'zaki tarzda avloddan-avlodga yetkazib kelgan.

Dastlab yozuvga bo'lgan ehtiyoj bir qancha tarqoq shogunatlarning birlashib yaxlit bir davlat shakliga kelishi bilan boshlangan. Xitoy yozuvini tanlash o'sha davrda eng oqilona qaror bo'lgan, chunki Xitoy geografik jihatdan yaqin va siyosiy jihatdan Sharqdagi eng nufuzli davlat hisoblangan.

Birinchi iyerogliflar

Yaponiyada iyerogliflarning paydo bo'lish vaqtini taxminan 712-yilda yozilgan "Kojiki" matni orqali aniqlash mumkin. Ushbu asarda imperator Ojina haqida so'z yuritiladi va unda koreyalik elchining keltirgan sovg'alari haqida qayd etilgan:

「名和邇吉師、即論語十卷、千字文一卷、并十一卷、付 是人即貢進」 “Uning ismi Vani, va u orqali biz Lunyuyning o‘nta kitobi hamda Qianzi Wen kitobini oldik, jami o‘n birta”. [1.9]

Bu yozuv yaponlar Xitoydan iyerogliflarni qanday o‘zlashtirganliklari va ularni o‘z madaniyatiga qanday moslashtirganliklarini ko‘rsatadi. Vani ismli elchi orqali kelgan bu kitoblar yapon xalqi orasida yozuv madaniyatining paydo bo‘lishiga zamin yaratgan.

“Kojiki” asarida yozilishicha, yuqoridagi matn Pekche qiroli Kunchxo (346–375) davrida yozilgan. Biroq “Qianzi wen” kitobi VI asrning birinchi yarmida yaratilgan, shuning uchun imperator O‘jina bu kitobni Vanidan ololmagan. Bundan tashqari, “Nihon Shoki” (“Yaponiya annallari”, 720 yil) deb nomlangan boshqa bir qadimgi yapon manbasi mavjud bo‘lib, unda Kunchxo hukmronlik qilgan davr, ya‘ni IV asr o‘rtalaridagi Yaponiya tarixi tasvirlangan, lekin unda iyerogliflarning paydo bo‘lishi haqida hech narsa aytilmagan. Ushbu faktlar yuqoridagi versiyani jiddiy ravishda shubha ostiga qo‘yadi.

57-yilda Xitoy manbalarida Yaponiya (Va) dan Xitoyga birinchi missionerlar jo‘natilgan. O‘sha davrda Xitoyni ikkinchi Xan sulolasi hukmronlik qilib boshqarar edi. Taxtda imperator Lyuy Syu (miloddan avvalgi 6 yil – milodiy 57 yil, hukmronlik yillari 25–57) bo‘lgan. Bu voqeani saroy tarixchisi Fan Ye ning (398–445) “Kechki Xan sulolasi tarixi” asarining “Sharqiy varvarlar” kitobida quyidagicha tasvirlab berilgan. “Jianwu Zhongyuan yilida (57-yil) Va davlati elchisi hurmat bajo keltirib, o‘zini Tayfu deb tanishtirdi. Na yerlari Va davlatining janubiy chegarasida joylashgan. Guon U-Ji [Lyuy Syu] elchiga ipli muhr in‘om qildi.”

Bu Xitoy tarixiy yilnomalarida Yaponiyaning eng qadimiy tilga olinishi sanaladi. Afsuski, Fan Ye imperatorning yapon elchisiga qanday muhr berganini aniq ko‘rsatmagan. Gap shundaki, Xitoyda bir nechta darajadagi muhrlar mavjud bo‘lgan: sariq ipli yog‘och muhr, qora ipli bronza muhr, ko‘k ipli kumush muhr va, nihoyat, eng yuqori daraja – binafsha ipli oltin muhr.

1784 yilda Sika-no-Sima orolida dehqonlar dalasini haydayotgan paytda tasodifan qadimiy oltin muhrni topib olishgan. Bu muhrda xitoy tilida 「漢委奴國王」 (“Kan no Va no Na no Kokuo”) degan so‘zlar o‘yilgan edi. XIX asrning oxiriga qadar bu muhr Ito yerining qiroliga tegishli deb hisoblanib, yozuvni “Kan no Ito no Kokuo”, ya‘ni “Xan sulolasiga tegishli bo‘lgan Itoning qirolligi” deb o‘qishgan. Itoning yeri hozirgi Fukuoka prefekturasidagi Ito yarim orolida joylashgan. 1892 yilda Miyake Yonekichi (1860–1929) bu belgilarni boshqacha o‘qib, ularni “Xan sulolasiga tegishli bo‘lgan Va davlatidagi Na yerining qirolligi” deb talqin qilgan. “Yana ham ertaroq — “Uch podshohlik tarixi” yilnomasiga ko‘ra, Na yerlari hozirgi Xakata shahri yaqinida joylashgan edi. Qizig‘i shundaki, hozir ham Xakata portini “Na-no tsu”, ya‘ni “Na yeri porti” deb atashadi. Miyake o‘sha topilgan oltin muhr aynan Na yerining hukmdoriga tegishli deb hisoblagan va bu muhr Fan Ye yozgan muhrning aynan o‘zi ekanligini aytgan. Bugungi kunda yapon olimlarining aksariyati ham shu fikrga qo‘shiladi. Shunday qilib, yaponlar nigohida iyerogliflar ilk bor naqsh sifatida emas, balki axborot tashuvchi belgi sifatida qabul qilingan.

57-yilda bo‘lib o‘tgan tashrifdan so‘ng Yaponiya va Xitoy o‘rtasidagi munosabatlar jadal rivojlana boshladi. Bunga misol qilib, 107-yilda Va davlati Xan sulolasining ikkinchi imperatoriga 160 nafar qullarni sovg‘a sifatida taqdim etdi. Bu vaqtda hokimiyat tepasida An Di (107–126-yillar hukmronlik qilgan) hukmronlik qilgan bo‘lib, u bu sovg‘ani qabul qilgan. Bundan tashqari, “Uch Shohlik Tarixi” asarida yana bir voqea haqida so‘z yuritiladi: 239-yilda Yamatai davlatining hukmdori Himiko o‘z nomidan boy sovg‘alar bilan Xitoy imperatori Minga elchi yuboradi va bularni evaziga Vey davlati tomonidan “Xitoyga do‘stona bo‘lgan Va davlati qirolichasi” (“Син Ги Бао”) unvonini, oltin tamg‘a va yuzta oynani hadya sifatida oladi. Shuningdek, Himikoning elchisi kumush tamg‘a ham olgan. Shundan boshlab, yaponlarning ko‘z o‘ngida iyerogliflar ilk bor naqsh sifatida emas, balki axborot tashuvchi vosita sifatida qabul qilina boshladi.

Xitoy yozuvining Yaponiyada tarqalishi

Shunday qilib, Yaponiyada xitoy iyerogliflari paydo bo‘ldi, lekin savol ochiq qoladi: qancha yaponlar ularni o‘qiy olgan? 57-yilda yapon elchisi Xitoy imperatori Lyuy Syu huzuriga kelganida, elchi a‘zolari imperator huzurida ishonchnoma hujjatlarini o‘qishlari kerak bo‘lgan. Bu, iyerogliflarni o‘qiy oladigan odamning (tarjimon yoki attashe) mavjudligini taxmin qiladi va shu sababli ba‘zi

ensiklopediyalar iyerogliflarning Yaponiyada I asrda paydo bo'lganini ta'kidlaydi. Biroq, bu holat iyerogliflarning yapon jamiyatiga chuqur kirib borishini hali ham isbotlamaydi.

Iyerogliflarning Yaponiyada keng tarqalishi faqat V-VI asrlarda yuz berdi. Koreya va Xitoy qit'alaridan kelgan ko'chmanchilar va ularning farzandlari yapon saroyida xizmat qilib, xalqdan yig'iladigan soliqlarni yozib borish va qo'shni davlatlar (Xitoy, Koreya) bilan aloqalarni boshqarish bilan shug'ullanishgan. Bundan tashqari, turli darajadagi yirik shaxslar o'zlarining avlodiy yozuvlari orqali o'zlaridan iz qoldirishga intilganlar. VI asrda Pekchedan buddizm kirib keldi. Bu hind dinining Osiyo qit'asi bo'ylab sayohat qilishi uchun taxminan ming yil o'tdi, shuning uchun buddizm ko'plab mamlakatlarning madaniyati, diniy fanlari va san'atini o'ziga singdirgan edi. Qadimiy ko'p xudolarni e'tiqod qiluvchi shinto dinidan farqli o'laroq, buddizm markazlashtirilgan hokimiyatni mustahkamlashga yordam berdi va shu sababli imperatorlar uchun bu din juda foydali bo'ldi. O'sha davrda shogun Shotoku (asl ismi — Umayado, 574-622-yillar) buddizmga davlat dini maqomini berdi. Yaponiyada buddizm adabiyotining xitoy va sanskrit tillarida paydo bo'lishi yozuvga bo'lgan qiziqishni oshirishda xizmat qildi. Asta-sekin buddizm ma'badlari ma'rifat markazlariga aylantirildi hamda bo'lajak amaldorlar va zodagon oilalarning bolalari yozuvga o'rgatila boshladi.

Xitoy yozuvi (kanbun)

Yaponiyada xitoy yozuvi yangi paydo bo'lganida, yaponlar grammatika qoidalariga qat'iy rioya qilishar va xitoy tili fonetikasi orqal so'zlarni talaffuz qilishga harakat qilishar edi. Quyida keltirilgan matn xitoy tilida yozilgan bo'lib, muallifi Yaponiyalik imperatorning nabirasi Kadono Okimi bo'lgan. Bu matn yaponlar tomonidan yozilgan xitoy she'riyati to'plamidan olingan — 「飲風」 (Kaifusou).

Oq olxo'ri gullab turibdi.

Go'zal bulbul kuylamoqda...


Maftunkor qo'shiq sehrli oqim kabi taralmoqda... (Muallif tarjimai)

Vaqt o'tishi bilan yapon millati xitoy iyerogliflarini o'zining ona tili matnlarini yozishda, milliy til talabi asosida ifodalashda hamda xitoy matnlarini yapon tili o'qilish usuli qoidalari asosida o'z tillariga mos yo'llarda o'qishni boshlashdi. Masalan, dastlab iyeroglif 春 «bahor» faqat [shun] deb o'qilardi, bu o'sha paytdagi xitoy tiliga mos kelardi, ammo keyinchalik [haru] deb o'qila boshlandi, ya'ni yaqin ma'noli vago (yamato-kotoba) so'zidan foydalanildi. Shuningdek, iyerogliflarning tartibi e'tiborga olinmay, ona tilining grammatikasiga mos ravishda o'qilish boshlandi. Shu tariqa, xitoy tili – kangoda yozilgan matnlarni og'zaki usulda yapon tili leksikasiga asoslanib mutoala qila boshlagan. Yaponlar xitoy matnini yapon tilda o'qishga jarakat qildilar. Bunday o'qish usuli “kundoku” deb atalgan va shu tarzda yapon tilidagi so'zlar va fikrlarni xitoy iyerogliflari bilan yozish tendensiyasi yuzaga kelgan. “Kundoku” usulida o'qishni osonlashtirish uchun turli belgilar qo'llangan, ular umumiy tarzda “kunden” deb atalgan. Xitoy va yapon tillari o'rtasidagi katta farqqa qaramay, Nara davriga (710-794) qadar Xitoy tili Yaponiyada rasmiy yozuv tili sifatida qabul qilingan. Faqat davlat hujjatlari emas, balki shaxsiy xatlar va yozuvlar ham xitoy tilida yozila boshlagan.

Kanji – Xitoy iyerogliflari: Yaponlar Xitoy yozuv tizimini moslashtirishga harakat qildilar. Natijada kanji — Xitoy iyerogliflari Yapon tilida ham qo'llaniladigan yozuv tizimiga aylandi. Kanji tizimi Yaponiya tili uchun maxsus ishlab chiqilmagan bo'lsa-da, u asta-sekin yapon tiliga moslashib, tilni ifodalashda qulaylashgan. Man'yogana va Hiragana, Katakana: Yapon millati faqat Xitoy iyerogliflarini emas, balki fonetik tizimlarni ham rivojlantirdilar. Milodiy 8-9 asrlarda, man'yogana — Xitoy iyerogliflarining fonetik ma'noda ishlatilishi paydo bo'ldi. Bu Yapon yozuvining o'ziga xos shakllari bo'lgan hiragana va katakana yozuv tizimlarining kelib chiqishiga olib keldi. Bu yozuv tizimlari kanjiga qo'shimcha sifatida fonetik tovushlarni ifodalashda foydalanildi. Yaponiyadagi aristokratiya, xususan imperator saroyi, Xitoy yozuvi va adabiyoti bilan faol shug'ullanib, uni yuqori darajada qadrladi. Bu yozuv Yaponiyaga Xitoy madaniy merosini olib kirib, ilm-fan, falsafa va adabiyotning rivojlanishiga katta hissa qo'shdi. Natijada, Xitoy yozuvi Yaponiya madaniyati va yozuvi tizimining asosiy qismiga aylandi va hozirgi kungacha kanji shaklida keng qo'llanilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Альпатов В.М. Язык и общество. -М.: Муравей, 2003. – 208 С.
2. Судо К. Японская письменность от истоков до наших дней. -М.:АСТ: Восток-Запад, 2006. – 139 С.
3. Стаут, Тимоти Г. Японские иероглифы для начинающих / Т. Г. Стаут, К. Хаконэ; пер. с англ. Н. В. Надёжкиной. – Москва: Издательство АСТ, 2019. – 320 с.: ил. – (Школа японского языка).
4. Сыромятников Н.А. Классический японский язык: - М.: Восточная Литература РАН, 2002.-40 с.
5. Стрижак У.П. Система обучения иероглифической письменности (японский язык): Автореф.дис...д-ра пед.наук.- Москва, 2005. – 32 с.
6. Резаненко В.Ф. Семантическая структура иероглифической письменности. - Киев: КГУ, 2002. –132 с.
7. Маевский Е.В. Графическая стилистика японского языка. - М.: Муравей-Гайд, -2010. – 116 с.
8. Карпека Д.А. Грамматика японского языка.-Санкт-Петербург: Восточный-экспресс, 2018. -573 с.
9. Воробьёва Г. Сказки об иероглифах. Часть.1. ОсОО Лакпринт, 2007. -182 с.
10. Konno Shinji. 日本語の歴史.ふくろの本、2015. – 139 P.



INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

ISSN: 2181-9297

www.tadqiqot.uz

Eshanova Zilolaxon Qo'chqarovna,
Andijon davlat universiteti doktoranti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent. E-mail: zeshanova79@gmail.com,

ISTIQLOL DAVRI O'ZBEK SHE'RIYATIDA XALQ ERTAKLARI BADIY SINTEZI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.00000000>

ANNOTATSIYA

Istiqlol davrida ijod qilayotgan shoirlar ijodida folklor sintezi lirik qahramon kechinmalarini ifodalashda va davr muammolari tasvirini berishda ertaklar syujetiga xos epizodlar, mifologik obraz va motivlardan ijodiy foydalanishda ham namoyon bo'lmoqda. Maqolada folklor sintezining namoyon bo'lishidagi ayni shu jihatlari Farida Afro'z, Usmon Azim, Chori Avaz, Gulbahor Ortiqxo'jayeva, A'zam Obidov, Suxrob Ziyov, Najmiddin Ermatov, Feruz Nematullayev kabi shoirlar she'rlari tahlili misolida ochiqqlangan.

Kalit so'zlar: lirika, she'r, ertak, syujet, motiv, sintez, sintezlashgan folklorizm, folklorizm, badiiyat.

Eshanova Zilola Qochqarovna,
Doctoral student of Andijan State University,
Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor.
E-mail: zeshanova79@gmail.com,

ARTISTIC SYNTHESIS OF FOLK FAIRY TALES IN UZBEK POETRY OF THE INDEPENDENCE PERIOD

ANNOTATSIYA

The synthesis of folklore in the works of poets of the independence period is also manifested in the creative use of episodes, mythological images, and motifs characteristic of fairy tale plots, in expressing the state of the lyrical hero and depicting the problems of the time. In the article, these aspects of the manifestation of the synthesis of folklore are revealed on the example of the analysis of the poems of such poets as Farida Afroz, Usmon Azim, Chori Avaz, Gulbahor Artikhodzhaeva, Azam Obidov, Sukhrob Ziyov, Najmiddin Ermatov, Feruz Nematullaev.

Keywords: lyric poetry, poem, fairy tale, plot, motif, synthesis, synthesized folklorism, folklorism, poetics.

Эшанова Зилолахон Кучкаровна,
докторант Андижанского государственного университета,
доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент.
E-mail: zeshanova79@gmail.com,

ХУДОЖЕСТВЕННЫЙ СИНТЕЗ НАРОДНЫХ СКАЗОК В УЗБЕКСКОЙ ПОЭЗИИ ПЕРИОДА НЕЗАВИСИМОСТИ

АННОТАЦИЯ

Синтез фольклора в творчестве поэтов периода независимости также проявляется в творческом использовании эпизодов, мифологических образов и мотивов, характерных для сказочных сюжетов, при выражении состояния лирического героя и изображении проблем времени. В статье раскрываются именно эти аспекты проявления фольклорного синтеза на примере анализа стихотворений таких поэтов, как Фарида Афруз, Усман Азим, Чори Аваз, Гульбахор Ортикходжаева, Аъзам Обидов, Сухроб Зиё, Нажмиддин Эрматов, Феруз Нематуллаев.

Ключевые слова: лирика, стихотворение, сказка, сюжет, мотив, синтез, синтезированный фольклоризм, фольклоризм, поэтика.

KIRISH. Istiqlol davrida ijod qilgan shoirlar folklordan ijodiy foydalanish tamoyiliga asoslanib, she'rlarida folklordagi janr, obraz va motivlarni badiiy sintezlash orqali o'z ijodiy-estetik maqsadiga erishmoqdalar. Mazkur davrda ijod qilgan Farida Afro'z, Usmon Azim, Chori Avaz, Gulbahor Ortiqxo'jayeva, A'zam Obidov, Suxrob Ziyo, Najmiddin Ermatov, Feruz Nematullayev kabi shoirlar ertak janri komponentlarini she'r kompozitsiyasiga sintezlay olgan va folklorga xos sintezni o'zida mujassamlashtirgan betakror asarlar yaratdilar. Ularning she'rlarida folklor sintezi davr muammolari, lirik qahramon ruhiyati va kechinmalari ifodasiga xizmat qilmoqda. Shu o'rinda mazkur davr she'riyatida xalq ertaklari badiiy sintezi qanday namoyon bo'layotganligini ochiqlash zarurati tug'iladi va biz bu masalani ushbu maqolamizda yoritishni maqsad qildik.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. O'zbek hikoyalarida folklor sintezi muammosini o'rgangan G.Imomova o'z tadqiqotida: "... folklor bag'rida, uning tajribalaridan bahramand bo'lib yuzaga kelgan yozma adabiyot o'zining butun taraqqiyoti mobaynida folklorga murojaat etib, uning ilg'or tajribalariga tayanib rivojlanib kelmoqda"[8,104] deydi va o'zbek hikoyalaridagi folklor sintezi bevosita sintezlashgan va qisman stilizatsion folklorizmlar asosida yuzaga chiqayotganligini asoslaydi. Olimaning bu fikriga asoslanib aytishimiz mumkinki, istiqlo davri o'zbek she'riyatida ham folklor sintezi sintezlashgan va stilizatsion folklorizmlar orqali yuzaga chiqmoqda.

Sintezlashgan folklorizmlar tipologiyasi masalasini B.Sarimsoqov, I.Yormatov, L.Sharipova S.Mirzayeva, D.Xoliqova, M.Qo'chqarova, D.Quvvatova, Sh.Davronova, S.Xamdama, N.Tursunovalar o'rganganlar. Sintezlashgan folklorizmlar haqida B.Sarimsoqov: "Afsona, rivoyat, xalq ertagi va qissalari syujeti yozma adabiyot tomonidan o'zlashtirilib, yozuvchi yaratgan syujetga birlashtirilib, singib ketishidan paydo bo'ladi"[11, 37] – deydi. L.Sharipova esa "Biror bir ijodkor folklorga xos syujetni o'z asari syujetiga singdirib yuborsa va bu ikki syujet qorishib, ajralmas holga kelsa, murakkab folklorizmning sintezlashgan folklorizm ko'rinishi yuzaga kelishini"[12,17] ta'kidlaydi. Yuqoridagi olimlarning ishlarida turli adabiy tur janrlarida folklorizmlar tipologiyasi masalasi yoritilgan bo'lsa-da, istiqlo davri o'zbek she'riyatida folklor sintezi, xususan, ertak janri sintezi masalasi ushbu tadqiqotlar obyekti bo'lgan emas.

Maqolada struktural, qiyosiy-tipologik tahlil metodlaridan foydalangan holda istiqlo davri o'zbek she'riyatida folklor sintezi qanday namoyon bo'layotganligi masalasi mazkur davrda ijod qilgan shoirlarning xalq ertaklari badiiy sintezi asosida yaratilgan she'rlarini tahlil qilish orqali ochiqlandi.

NATIJARLAR VA MUHOKAMA. Chori Avazning "Yoriltosh" ertagini o'qib... she'ri lirik syujeti shu mavzudagi ertak ta'sirida yuzaga kelgan lirik kechinma asosida rivojlantirilgan. Bizga ma'lumki, "Yoriltosh" ertagi (Xorazmda "Oltin beshik, Farg'onada "Ochil, ochil qamishlar", Toshkentda "Ochilqamish" deb nomlanadi) o'gaylik syujet motivi asosidagi ertak bo'lib, unda o'z o'gay akasiga turmushga chiqishni istamagan qiz sarguzashtlari hikoya qilinadi. Qiz erksizlik, majburlikdan qochib, toshdan panoh topadi. Ertakdagi ayni syujet motividan shoir o'z davridagi vatan ozodligi bilan bog'liq qarashlarini hamda ayollarning og'ir mehnati bilan bog'liq muammolarni berishda foydalanadi. She'rning eksplitsit tasvirida singil obrazining erksizlikdagi holati turadi, biroq

chuqurroq mushohada qilsak, singil vatan obrazi sifatida keladiki, she'ning imlitsit tasvirida vatan ozodligi bilan bog'liq ijtimoiy mavzu turganini ko'ramiz:

Ipakdek ovozing toshni kesdimi?

Olatasirlardan tosh ham bezdimi?

Toshdanmikin erk epkini esdimi?

Yorildi tosh, yorildi tosh, yoriltosh.[4,9-10]

Bu ertakdagi "...qahramonning toshga yashirinish motivida qadimgi tosh kultiga tegishli tasavvur izlari" mavjudligini aytgan J.Asqarovaning fikriga ko'ra "aslida tosh qizning o'lgan onasi ruhi makon topgan joy" bo'lib, unga "homiy ruhlar makoni sifatida..., makondagi ruhlar xayrixohligining ifodasi sifatida qarash"[9,59] mumkin. Mazkur ertakdagi toshning badiiy talqini homiy ruhlar makoni ekan, unga shoir qanday yondashadi? Shoir toshning ertakdagi badiiy talqinidan ijodiy foydalanadi, biroq ertakdagi talqinga novatorona yondashgan holda individual talqinni beradi. Shoirga ko'ra, tosh nafaqat homiy ruhlar makoni, balki asrlar osha o'z avlodlarini yurt manfaatlari, ozodligi yo'lida birlashtirib, ularni himoyalab kelayotgan Haq qal'asi, xalq qal'asidir.

Ushbu she'rda shoir "Yoriltosh" ertagi syujetidagi ayrim komponentlarni she'rga sintezlaydi. Shoir she'rda lirik subyekt tilidan singilga ("Singilginam, toshga dardingni uqtir, Yorilgay tosh, yorilgay tosh, yoriltosh") murojaat etish orqali uni "Toshlarni uyg'ot"ishga chaqiradi. To'rt misrali besh banddan iborat ushbu she'rning har bandi so'ngida lirik subyektning qizga murojaati ertakdagi "Yoriltosh" qo'shig'i misrasi "Elan, tosh yorilgay: "Yoriltosh, yoril!./ Yorilgay tosh, yorilgay tosh, yoriltosh,/ Yorildi tosh, yorildi tosh, yoriltosh,/ Haq qal'asi, xalq qal'asi – yoriltosh" kabi turli o'zgarishlar bilan beriladi. She'rda "olamning sovuqligi", "toshlarni uyg'otish", "erk epkinining esishi", "toshning yorilishi" kabi metaforalar orqali vatan ozodligi bilan bog'liq kechinmalar tasviri ta'sirchan berilgan.

Bizga ma'lumki, Shukur Sa'dulla (ertak pesa), Rafiq Mo'min asarlari (drama) ayni shu ertak stilizatsiyasi asosida yaratilgan. O'zbek adabiyotida an'anaga aylangan xalq ertaklariga murojaat qilish lirikada ham davom ettirildi, xalq ertaklari sintezi lirik turda qanday amalga oshirildi, uning namoyon bo'lishi epik va dramatik turdagi holatidan nimasi bilan farqlanadi, degan haqli savol tug'iladi. Avvalo, lirika epik va dramatik turdagi asarlardan o'zining ixchamligi, qisqaligi, kechinma tasvirining berilishi bilan farqlanadi. She'riyatda voqelikning ayrim parchalari asosida lirik kechinmaga turtki bo'lgan omillar ochiqqlanadi. She'riyat xalq ertaklari syujetidagi ayrim komponentlarni: epizod, obraz, detal va motivlar asosida ish ko'radi va ushbu unsurlar lirik qahramon ruhiy holati, davr voqeligi va muammolari asosida paydo bo'lgan kechinmalarni berishga xizmat qiladi. Bunday she'rlarda ertak materiali (obraz, detal, syujet motivlari) she'r badiiy strukturasini, g'oyaviy mundarijasini belgilaydi. Ijodkor xalq ertaklari syujetidagi ayrim epizodlarni o'zlashtirib, she'r mohiyatiga singdirib yuboradi, obraz, motivlarni esa stilizatsiya asosida sintezlaydi.

Farida Afro'z "Iltijo" she'rda "Yoriltosh" ertagidagi qizning ta'qibdan qochib toshdan panoh so'rash syujet motiviga murojaat qilgan. Ushbu she'rda ertakdagi "Yoriltosh" qo'shig'i yo'qlov janri mazmun-mohiyati va ritmini stilizatsiyalash orqali sintezlanadi. Yig'i-yo'qlovlar mazmun-mundarijasi marhumning sifatleri va qilgan yaxshi ishlarini yodga olish asosidagi lirik kechinma tasviridan iborat bo'ladi. Bizga ma'lumki, ushbu ertakda qiz otasi va akasini ko'rishni xohlamaydi, shu bois ertakdagi qo'shiq parchasi "Yorilma tosh, yorilma, Men otamni ko'rmayin" tarzida beriladi. Mazkur she'rda esa har bandning ilk misrasida refren tarzida berilgan "Yorilgin, tosh, yorilgin-ey, Men otamni ko'rayin / Yo'qotganim tillomni top" kabi analitik folklorizm ertakdagi ushbu syujet motiviga mohiyatan zid holda shakllantirilgan:

Yorilgin, tosh, yorilgin-ey,

Men otamni ko'rayin

Tuproq to'lgan ko'zlarini

Tilim bilan yalayin. [3,320]

Shoiraning mahorati shundaki, ertakdagi ushbu syujet motiviga parodaksal yondashadi va otasidan ayrilib, himoyasiz qolgan qiz kechinmalari va ruhiyatini berishda ijodiy foydalanadi.

A'zam O'ktamning "Ajdahoh" she'rida esa xalq ertaklaridagi zoomorfik obraz bo'lgan ajdahoh inson obrazi bilan qiyoslanadi. Uch banddan iborat she'r a-b, a-b tarzida qo'fyalangan bo'lib, har bir bandi to'rt misradan iborat:

Aslida ajdahoga

Uchta bosh nega kerak?

O'ljani yutsa biri,

Ikkovi poylar sergak.[1,65]

Ajdarho haqidagi mifologik qarashning ratsional mazmuni shoir g'oyasi, davr muammolari bilan birlashib ketgan. Shoir ilk banddan qadimgi ertaklarda ta'riflangan uch boshli ajdahoh haqidagi ma'lumotni keltiradi. Ikkinchi bandda esa ajdarho boshlarining vazifasini izohlash orqali ajdahodek insonlarning qilmishi – o'ljani o'marishiga ishora qilinadi. Shoir she'rida ajdahoh obrazi haqidagi mifologik qarashlarni sintezlash orqali o'z davridagi xalq mulkini o'marayotgan insonlarning umumlashma obrazini yaratadi va davr muammolarini yoritadi.

O'zbek she'riyatida an'anaga aylangan xalq ertaklariga murojaat qilish, xalq ertaklari syujetini sintezlash istiqloq davrida ijod qilayotgan yosh shiorlar ijodida ham davom ettirilmoqda. Gulbahor Ortixo'jayevaning "Ertakka aylandim..." she'rida lirik syujet ertakona motivlar asosida rivojlantirilgan. Daryo ramzi folklor asarlarida chegara, ayriliq kabi talqinlarda keladi. Shoir she'rning lirik kirish vazifasini bajaruvchi "Oramizda daryo bor, Taroq tashlab bo'lmaydi"![6,81] baytlarida taqdiriga sevgan yori bilan ayriliq tushgani haqidagi axborotni beradi. Lirik subyekt va uning yori orasida daryoning borligi ayriliqni, daryoga taroq tashlab bo'lmasligi esa uddalab bo'lmas vazifani anglatadi.

Ma'lumki, ertak qahramonlari taroq fetishistik detali orqali o'rmon, tikanli to'siqni paydo qilib, ta'qibdan qutilgan yoki daryoga tashlangan taroq esa ma'lum tepaliklarni paydo qilgan. Bunday fetishizm bilan bog'liq sehrli buyumlar qahramonga epik homiylar tomonidan berilib, qahramonning g'ayrioddiy xislatlarini yuzaga chiqaradi va unga oldiga qo'yilgan vazifalarni, sinov shartlarini bajarishda, o'z maqsadiga erishishda yordam beradi[5,58]. Shoir she'rida xalq ertaklaridagi taroq tashlab, maqsadga yetish syujet motivini stilizatsiyalash orqali amalga oshirmaydi, balki uning ertakdagi funksional vazifasiga zid qo'llash orqali ijodiy foydalanadi. Daryo ramzi bu o'rinda o'zga dunyo talqinida keladi. V.Ya.Propp u dunyo bilan bog'liq tasavvurlar rus folklorida olovli daryo, bog' va tog' shaklida namoyon bo'lishini ta'kidlaydi [14]. Demak, lirik subyektning yoriga yetisha olmasligining sababi uning o'zga dunyoga ketgani. Yorining vafot etishi sabab ko'ngli "sehrli nay"ga, "yolg'iz xayolining yovvoyi oqqush" aylanishi kabi takrorlanmas tasvirlar orqali shoir lirik subyekt iztiroblarini beradi va ruhiy holatning betakror ifodasini beradi. Lirik subyektning sadoqati "Ishonuvchan sog'inchim Susambilni ko'zlaydi", "Bir kun uchar gilamda Huzuringga boraman!"[6,81] kabi baytlarda ertak janriga xos unsurlardan ijodiy foydalanish orqali tasvirlanadi. She'rida folklor sintezi xalq ertaklaridagi epik va mifik makonlar nomini (borsa kelmas, daryo, Susambil) keltirish, uchar gilam, taroq kabi fetishistik detal obrazlarini qo'llash orqali amalga oshirilgan. She'rdagi folklor sintezi lirik qahramonning taqdir sabab "borsa kelmasga ketgan" yori hijronida chekkan iztiroblari, kechinmalarini berishga xizmat qildirilgan.

Gulbahor Ortixo'jayevaning yana bir she'rida ham xalq ertaklariga xos syujet motivlarini funksional vazifasiga zid qo'llash orqali ijodiy foydalanish asosida ayol qalbi ruhiyati va kechinmalari tasviri berilgan. Lirik subyektning "orzu degan ulkan qasri peshtoqiga yuragining taqvimini ilib qo'yishi" atrofidagi odamlarning mehrsizligi, loqaydligi va undan ham "mehrining qurbonlikka so'yish"ni so'rashi sabab bo'lmoqda. Insoniy tuyg'ular qadrsizlangan, mehrsizlik, loqaydlik kuchaygan jamiyatda esa ulug' maqsadlar, orzular bo'g'iladi. Shoir ayni shu badiiy g'oyani ertak janriga xos unsurlar sintezi asosida beradi. Bu sintez esa ertakka xos fetishistik detal motivlarni "uchar gilamning osmonga ucholmasligi", "ochil dasturxonning ochilmasligi" kabi paradoksal qo'llash asosida yuzaga chiqqan:

Bu odamlar ertaklarga ishonmaydi,

Osmonlarga ucholmaydi uchar gilam.

Ochilmaydi endi ochil dasturxon ham,

Begonaga hatto ko'ngil yozib bo'lmas. [6,82]).

A'zam Obidovning "Ertak" she'ri "Zumrad va Qimmat" ertagi syujeti sintezi asosida yaratilgan. She'rda o'tinni bahona qilib, qizini o'rmonda yolg'iz qoldirgan otaga murojaat qilish orqali qizning o'rmon quchog'ida chalajon qolgani haqidagi axborot beriladi. Shoir she'rda davr muammolarini xalq ertagi bilan real hayotiy voqelikni sintez qilish orqali beradi:

Sehrgar momojon, qayoqda eding?

Zumradga kelmasin endi havasi

Otajon, otajon, keltirgin o'tin,

Sovqotib ketdiku uning bolasi. [2,35]

Suxrob Ziyoning "Ertakchi" she'rda ertakni bolalarni uyg'otish uchun aytish motivi (A'zam O'ktamning "Mening ertagim" she'ridagi kabi) rivojlantiriladi. She'rda shoir ertak syujetiga xos Qorabotir, Kenja botir obrazlariga ishora qiladi, uchar gilam, chiroqdagi jin kabi fetishistik detallarga paradoksal yondashadi. "Uchar gilamning sholchaga aylanishi", "jinning eski chiroqqa sig'may qolishi" hech qaysi ijodkor ijodida uchramagan topilma. Shoir ertakdagi bu motivlarni stilizatsiya qilmaydi, balki o'z ijodiy niyatiga moslab, modifikatsiyalash asosida qo'llaydi:

Hammasi chalkashdi, xotirim mulzam,

Kim u Qorabotir, Kenja botir kim,

Sholchaga aylandi u uchar gilam,

Eski chirog'iga sig'may qoldi jin. [13,117]

Ma'lumki, uchar gilam ertaklarda qahramon bajarishi kerak bo'lgan olamshumul ishni bajarishda yordamchi, ertakdagi epik vaqtni qisqartirishga, uzoq masofani yaqinlashtirishga xizmat qiladi. Chiroqdagi jin mifologik obrazi ham o'zining ozod qilinganligi evaziga ma'lum shartlarni bajaradi va ertak qahramoniga o'z oldiga qo'yilgan missiyasiga erishishida yordam beradi. Lirik qahramon Qorabotir, Kenja botir kabi ertak qahramonlarining unutilishi, ertakdagi qahramonliklarga o'quvchining ishonmasligiga ertaklarni bolalarni aldash uchun aytilgani sabab bo'lgan, deb hisoblaydi. She'rda shoir ertak mudroq bolalar qalbini uyg'otishga xizmat qiladigan g'oyalar asosida yaratilish kerakligi haqidagi falsafiy umumlashmani beradi. She'rdagi sintezning o'ziga xosligi unda ertaklarga xos mifologik detal va personajlarning shoirni iztirobga solgan kechinmalar tasvirini berishga xizmat qilganligi bilan xarakterlanadi.

Jontemir Jondorning "Simurg", senga berar etim qolmadi" deb boshlanuvchi she'ri xalq ertaklaridagi Semurg obrazi vositasida qahramonning qahramonlik ko'rsatishi va o'z missiyasini amalga oshirishi syujet motivi sintezi asosida yaratilgan. Lirik subyektning ertak qahramoni kabi amalga oshirishi kerak bo'lgan maqsadi bor, "bu millat kindigin kesgan qo'rquvni qo'porib tashlash" va o'zi izlagan yurtga erishish:

Simurg, senga berar etim qolmadi,

Ertagim tugadi, quridi sillam.

Ko'zinga qararga betim qolmadi,

Mensiz yetajaksan chog'i manzilga.

Semurg xalq ertak va dostonlarida qahramonga biror maqsadga erishishida yordam beradi, uning oldiga qo'yilgan sinov va shartlarni bajarishda, amalga oshirishi lozim bo'lgan vazifani uddalashda maslahatlar beradilar. Semurg epik homiy sifatida ikki olamni bog'lovchi mifologik qush bo'lib, epik qahramonni yerosti dunyosidan yorug'lik dunyosiga olib chiqib qo'yishda yordam beradi [5, 51-54]. She'rning lirik subyekt ham o'z maqsadiga yetishish uchun Semurg qushga minib, maqsadi sari harakat qilmoqda. Shoir bu maqsadni amalga oshirishga kuchi yetmayotganidan yozg'irgan lirik subyekt kechinmalari orqali o'z davri ijtimoiy muammolarini mahorat bilan beradi.

Najmiddin Ermatov ijodida ham davr she'riyatiga xos bo'lgan baxshi va ertakchi momolarga murojaat qilish usuli orqali davr bilan bog'liq muammolarni, millat dardi bilan bog'liq kechinmalar tasvirini berish mavjud. Uning "Xoldona momom xotirasiga" qaydi qo'yilgan epigraf bilan boshlanuvchi she'rda ertakchi momoga murojaat qilish usulidan foydalanilgan. Shoirning momodan so'ragan "ertaklarga ketganmikan-a, yo ajdarho yutganmikan-a, dostonlarda bitganmikan-a, oy chiqmasdan botganmikan-a, shaytonlarga sotganmikan-a, ertaklarga ketsammikan-a?" [10,76] kabi ritorik so'roqlari har bandning so'nggida takrorlanadi. Shoir ertaklardagi ideal hayot, parilarni qidirib

qahramonning uzoq safarga chiqishi va uni olib kelib baxtli yashashi kabi syujet motivlari sintezi orqali o'z davrida ko'ngilning, go'zal tuyg'ularning qadrsizlanishi, ishq va vafoning arzon bo'lgani, haqiqatning yo'qligi, kutgan yaxshi kunlarining kelmayotgani haqidagi iztirobli kechinmalarini beradi.

N.Ermatovning “Surnayning bo'g'ziga kishanlangan sas” deb boshlanuvchi she'rida xalq ertak va dostonlariga xos motivlar stilizatsiyasidan foydalanilgan:

Gul parini yutgan uch bosh ajdaho,
Bahodirin kutgan ul ko'zi shahlo,
Tashqarida dunyo – tashqari ro'yo,
Ro'yolig'ning unutilig' dostoni ichindamiz.[10,12]

N.Ermatov she'rlarida ko'ngilning turfa xoli, kechinmalarning betakror tasvirini ko'rish mumkin. Uning “Sen yoqtirgan yomg'irlar yog'di” deb boshlanuvchi she'rida “Tilla baliq” ertagidagi baliqchi chol, oltin baliqni tutish, teshik tog'oraga tikilgan kampir kabi syujet motivlari lirik syujetni rivojlantirishga va shoirning ishq, hijron iztiroblari kabi kechinmalarini berishga xizmat qilgan:

To'r tashlab o'tirdim baliqchi cholday,
Bisotimda qolgan xo'ragim jondir.

.....

Teshik tovog'iga tikilib uyda
Umidvor kutadir qarimsiq kampir.[10,40]

Samariddin Sayyidzodning “Hazil she'r”i yumoristik xarakterda. Ushbu she'r ham “Tilla baliq” ertagi syujeti sintezi asosida yaratilgan bo'lib, bu jarayon real voqelik bilan ertakning o'zaro uzviy bog'lanishi orqali amalga oshirilgan:

Oltin baliq tushdi bugun qarmog'imga,
Mendan tilak so'ray ketdi bechorahol.
Uy beeshik...

Tog'oram ham teshik edi,
Shoshib qoldim ertakdagi men o'sha chol [7]

Shoir she'rida folklor sintezi orqali o'z davridagi voqealarga munosabatini kinoyaviy tarzda ifodalaydi.


Feruz Nematullayevning “O'rdakka o'xshasam...” deb boshlanuvchi she'ri “Irkit o'rdakcha” adabiy ertagi syujeti ta'sirida yaratilgan. She'r lirik syujeti ayni shu ertak syujeti bilan qorishib, organik butunlik hosil qilgan va shoir g'oyaviy maqsadini yuzaga chiqargan.

XULOSA. Folklor va adabiyot sintezi, xususan, she'r va ertak sintezi murakkab badiiy hodisa bo'lib, uni amalga oshirish shoirdan yuksak badiiy mahoratni talab qiladi. Istiqlool davrida ijod qilgan Farida Afro'z, Usmon Azim, Chori Avaz, Gulbahor Ortiqxo'jayeva, A'zam Obidov, Suxrob Ziyoy, Jontemir Jondor, Najmiddin Ermatov, Samariddin Sayyidzod, Feruz Nematullayev kabi shoirlar bu vazifani mahorat bilan uddalay olganlar. Mazkur davrda yaratilgan she'rlardagi ertak sintezining o'ziga xosligi shundaki, ushbu shoirlar ertak syujetiga xos epizodlar, obraz, motivlarni real hayotiy voqelikdagi muammolar ta'sirida yuzaga kelgan kechinma tasvirini berishda ijodiy foydalanganlar; xalq ertaklariga xos syujet motivlari, obraz va detallarni ertakdagi funksional vazifasiga zid qo'llab, paradoksal yondashganlar va ularning modifikatsiyalarini yaratganlar.

Adabiyotlar:

1. A'zam O'ktam. She'rlar va tarjimalar. – T., 2019. – B.65.
2. A'zam Obidov // Yoshlar kitobi:nazm, nasr, tarjima. 2008. – Toshkent: Sharq, 2008. – B.35-38.
3. Bo'tayeva Farida Afro'z. O'sha kun – bugundir. – T:Sharq, 2013. – B.320.
4. Chori Avaz. Tortilgan kamon. She'rlar. – Samarqand:Adabiyot va san'at, 1990. –39 b.
5. Eshanova Zilolaxon. O'zbek xalq dostonlarida mifologik obrazlar / O'quv qo'llanma. – Namangan, 2021. – 148 b.
6. Gulbahor Ortiqxo'jayeva // Yoshlar kitobi:nazm, nasr, tarjima. – Toshkent: Sharq, 2008. – B.81-86.

7. <https://kh-davron.uz>› uzbek / Samariddin Sayyidzod. Yangi she’rlar.
8. Imomova G. O‘zbek hikoyalarida badiiy sintez shakllari va ijodkorning poetik kontseptsiyasi. Filol. fanlari doktori (DSc) ... diss. – Toshkent, 2021. – 253 b.
9. Jamila Asqarova. “Yoriltosh” ertagi xususida // O‘zbek tili va adabiyoti, 2024-yil, – № 2. – 58-61.
10. Najmiddin Ermatov. Turon sog‘inchi. She’rlar. – Toshkent: Akademnashr, 2024. –144 b.
11. Sarimsoqov B. Folklorizmlar tipologiyasi masalasiga doir // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1990. – № 4. – B. 37-45.
12. Sharipova L. XX asrning ikkinchi yarmi o‘zbek she’riyati badiiy taraqqiyotida folklor. Filol. fanlari doktori (DSc) ... diss. avtoref. – Toshkent, 2019 – 73 b.
13. Suxrob Ziyo. Daryo. She’rlar. – Toshkent: Akademnashr, 2024. –144 b.
14. Пропп В.Я. Исторические корни волшебной сказки. – Л., 1986. – С. 364.



INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

ISSN: 2181-9297

www.tadqiqot.uz

Халмурадова Зебинисо Шавкатовна

Старший преподаватель, соискатель

Самаркандского государственного института иностранных языков

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ АНТРОПОНИМОВ В ТЕКСТАХ АНГЛОЯЗЫЧНОЙ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ



<https://doi.org/10.5281/zenodo.00000000>

АННОТАЦИЯ

Настоящая статья посвящается анализу антропонимов в текстах художественной литературы. Автор приводит классификацию онимов, среди которых особое внимание уделяет антропонимам, т.е. именам людей. Теоретическое содержание статьи подтверждается многочисленными примерами – контекстами, выбранными из романа известного английского писателя Оскара Уальда «Портрет Дориана Грея». Для достоверного анализа использования антропонимов и других онимов, автор сравнивает текст оригинала и версию перевода, выявляя недочёты в тексте перевода. Приводятся также и положительные комментарии к контекстам с удачным переводом.

Ключевые слова: художественный текст, оним, антропоним, имя собственное, экстралингвистическая информация, адекватный перевод.

Xalmuradova Zebiniso Shavkatovna

Samarqand davlat chet tillar instituti katta o'qituvchisi, tadqiqotchi

INGLIZZABON BADIY ADABIYOT MATNLARIDA ANTROPONIMLARING QO'LLANILISHI

ANNOTATSIYA

Mazkur maqola badiiy adabiyotda qo'llanilgan antroponimlar tadqiqiga bag'ishlangan. Muallif onimlarning tasnifini keltirib, asosiy e'tiborini inson ismlariga, ya'ni antroponimlarga bermoqda. Maqolaning nazariy qarashlari mashhur ingliz yozuvchi Oskar Uayld qalamiga mansub "Dorian Grey portreti" romanidan parchalarni misol sifatida keltirilgan. Antroponimlar va boshqa onimlarning ishonarli tahlili uchun muallif atoqli otlar qo'llanilgan asliyat matnlarni ularning tarjima varianlari bilan qiyoslab, tarjima matnlardagi kamchiliklarni aniqlagan. Adekvat tarjimaga erishgan tarjima matnlarga esa ijobiy tavsiflar keltirilgan.

Kalit so'zlar: badiiy matn, onim, antroponim, atoqli ot, ekstralingvistik ma'lumot, adekvat tarjima.

Khalmuradova Zebiniso Shavkatovna

Senior teacher, researcher of Samarkand State Institute of Foreign Languages

THE USE OF ANTOPONYMS IN THE TEXTS OF ENGLISH LITERATURE

ABSTRACT

The present article is devoted to analysis of antroponyms in the texts of literature. The author presents classification of onyms, paying main attention to the analysis of antroponyms, i.e. names of people. Theoretical content of the article is proved by numerous contexts selected from the novel "The Picture of Dorian Gray" by famous English writer Oscar Wilde. For approved analysis of antroponyms and other onyms the author compares original texts with translation version, thus defining lacks and faults in translation. Positive comments are given to extracts with successful translation.

Key words: literary text, onym, antroponym, proper name, extra-linguistic information, adequate translation.

Имя собственное или оним представляет собой слово или словосочетание, которое указывает на наименование конкретного объекта [Суперанская 2012: 67]. В отличие от обычного слова, имена собственные не требуют перевода [Ермолович 2001: 43], но в актуализации семантического значения они подчиняются языковым закономерностям [Власова 2001: 212-213].

Проблема имени собственного является одной из актуальнейших проблем современной лингвистики. С одной стороны, своеобразие имени собственного, а, с другой стороны, обретение качеств имени нарицательного, приводит к научным спорам среди лингвистов по поводу отнесения их к группе имён собственных или имён нарицательных. Исследование имён собственных, их взаимосвязь с другим единицами языка выделяет особое место онима в корпусе языка [Cook 2004: 120].

Имя собственное может выражать обычное номинативное значение, которое выражает любое другое имя нарицательное. К примеру, английское имя собственное Criton в структуре фразеологизма *admirable Criton* обозначает умного человека, знатока или мудреца. Имя Dora во фразеологизме *Dumb Dora* означает глупую, наивную девушку. В узбекском выражении *Ashir tarnov* имя Ashir номинирует высокого мужчину.

Значит, имя собственное может придавать качества и характеристики, которые присущи именам нарицательным. Они обычно используются для характеристики различных объектов и явлений окружающего мира. Многие лингвисты считают, что несмотря на номинативную функцию имён собственных, их нельзя отнести в общей нарицательной лексике [Обруева 2011: 22].

Имена собственные обладают лексическим значением не в устной речи, а в языке. Лингвист объясняет это тем фактом, что для обретения лексического значения в устной речи имени собственному требуется дополнительное содержание.

Имена собственные подразделяются на группы: антропонимы – имена собственные людей, топонимы – названия мест, гидронимы – названия морей, рек и океанов, космонимы – названия небесных тел и планет, фитонимы – названия растений, зоонимы – названия животных и т.п.

Среди заимствованной лексики в художественном тексте встречается множество имён собственных:

"Yes", he continued, "I am less to you than your ivory Hermes or your sister Faun. You will like them always..." [Wilde "The Picture of Dorian Gray": 47]. В данном контексте имя собственное связано с греческой мифологией: Гермес, согласно греческой мифологии, покровитель торговли, Фавн – покровитель лесов и пастбищ, он изображается в виде человека с рогами, козлиными ногами и бородой. В тексте перевода также используются данные имена собственные, однако они приводятся без комментариев и объяснительных замечок:

- Ha, ha, - deb davom etdi Dorian. Sizning kumush Favningiz yoxud fil suyagidan ishlangan Germesingiz menga qaraganda siz uchun o'n chandon qadrliroq [Uayld "Dorian Greyning portreti": 43].

Приведём ещё один контекст с использованием антропонимов:

So the lad was looking rather sulky, as with listless fingers he turned over the pages of an elaborately-illustrated edition of Manon Lescaut that he had found in one of the bookcases [Wilde “The Picture of Dorian Gray”: 79]. Manon Lescaut – «Манон Леско» - это роман французского писателя, аббата Антуана Франсуа Прево.

В тексте перевода данное имя приводится, однако без комментариев и пояснений. Если даже читатель не знаком с романом “Манон Леско”, контекстуальное описание создаёт впечатление о нём. Такие лексемы, как “varaqlab o‘tiribdi”, “bu kitobga”, “kitob javonlarining biridan” помогают читателю понять о чём идёт речь:

U hamma joyga kechikib borishni o‘ziga odat qilib olgan edi. Dorian ranjigan bir ahvolda qovog‘ini uyib, parishonxotirlik bilan “Manon Lesko”ni varaqlab o‘tiribdi. Bu kitobga juda chiroyli rasmlar ishlangan bo‘lib, Dorian uni kitob javonlarining biridan topib oldi [Uayld “Dorian Greyning portreti”: 69].

Антропонимы зачастую непосредственно связаны с историческими личностями и определённой исторической эпохой:

The formal monotonous ticking of the Louis Quartorze clock annoyed him. Once or twice he thought of going away [Wilde “The Picture of Dorian Gray”: 79]. Louis Quartorze clock – часы периода правления короля Людовика XIV (1638-1715).

В тексте перевода упоминается имя корля:

Lyudovik o‘n to‘rtinchi uslubidagi soat bir maromda chiq-chiq yurib turibdi. Lekin bu ham Dorianning g‘ashiga tegyapti [Uayld “Dorian Greyning portreti”: 70].

Проанализируем ещё один пример:

There was a rather heavy bill, for a chased silver Louis-Quinze toilet-set, that he had not yet had the courage to send on to his guardians, who were extremely old-fashioned people and did not realise that we live in an age when unnecessary things are our only necessities [Wilde “The Picture of Dorian Gray”: 158]. Chased silver Louis-Quinze toilet-set – серебрянный набор инструментов для парфюмерии во времена правления короля Людовика (XV век).

Именно такое значение сохраняется и в переводе:

Dorian yaqinda nasiyaga Lyudovik XV uslubidagi kumushdan ishlangan pardoz-andoz buyumlarini xarid qilgandi. Ular shu qadar qimmat ediki, pul qog‘ozini Dorian vasiylariga jo‘natishga botinmadi [Uayld “Dorian Greyning portreti”: 141].

В нижеследующем отрывке приводится большое количество антропонимов, они связаны с изобразительным искусством, архитектурой, философией, археологией, искусством и литературой:

It was such love as Michael Angelo had known, and Montaigne, and Winckelmann, and Shakespeare himself [Wilde “The Picture of Dorian Gray”: 200]. Michael Angelo – Микеладжело Буонаротти (1475-1564), итальянский скульптор, художник, архитектор и поэт. Montaigne – Майкл де Монтэн (1533-1592), французский философ. Winckelmann – Иоганн Винкелман (1717-1768), немецкий археолог и историк-исследователь античного искусства.

В тексте перевода эти имена встречаются в оригинальной форме, однако никакой дополнительной информации не приводится:

Bu muhabbatni Mikelanjelo ham, Monten ham, Vinkelman ham, Shekspir ham kuylab o‘tishgan [Uayld “Dorian Greyning portreti”: 180].

В художественных произведениях изображаются исторические события и географические места [Yo‘ldoshev 2021: 160].

She had all the delicate grace of that Tanagra figurine that you have in your studio, Basil [Wilde “The Picture of Dorian Gray”: 130]. Tanagra figurine – маленькие статуэтки, найденные во время раскопок в городе Танара в Греции.

В версии перевода вместо топонима используется другое слово:

Uning navniholdek nozik qaddi-qomati sizning studiyangizda ko‘rganim inja haykalchani eslatardi [Uayld “Dorian Greyning portreti”: 115].

В англоязычных художественных текстах часто используются итальянские антропонимы:

When the invention of oil-painting was to the Venetians, the face of Antinous was to late Greek sculpture, and the face of Dorian Gray will some day be to me [Wilde “The Picture of Dorian Gray”: 20-21]. Здесь под словом Venetians имеются в виду представители венецианской школы изобразительного искусства; Antinous – Антиной, замечательный юноша, грек, любимчик императора Адриана (117-138). После смерти Антиноя Адриан приказал смастерить его памятник и чеканить монеты с его изображением. Далее Антиной превратился в символ красоты.

В переводческой версии данные слова представлены следующим образом:

Bir vaqti-soati kelib Dorian Greyning ham chehrasi men uchun juda katta qimmat kasb etishga aminman. Venesiyaliklar uchun tasviriy san’atda moybo’yoqning kashf etilishi yoki yunon hakaltaroshligi uchun Antinoyaning qiyofasi juda muhim bo’lgani kabi [Uayld “Dorian Greyning portreti”: 18].

В следующем оригинальном тексте названия растений даются на латинице:

After a time the bee flew away. He saw it creeping into the stained trumpet of a Tyrian convolvulus [Wilde “The Picture of Dorian Gray”: 43]. Tyrian convolvulus – название растения-сорняка. Переводчик не сохраняет латинского названия этого растения и предлагает перевод:

Oradan ko’p o’tmay ari nariga uchib ketdi. Dorian uning uchib borib, chirmovuq guliga qo’nganini ko’rdi [Uayld “Dorian Greyning portreti”: 39].

В следующем тексте встречается латинское название научной теории:

Mysticism, with its marvelous power of making common things strange to us, and the subtle antinomianism that always seems to accompany it, moved him for a season; and for a season he inclined to the materialistic doctrines of the Darwinismus movement in Germany, ... [Wilde “The Picture of Dorian Gray”: 223]. Darwinismus – дарвинизм.

На основе калькирования название данной научной теории адекватно представлено в тексте перевода:

Mistisizmning juda ajib bir qobiliyati bor – u oddiy, jo’n narsaga sirlilik baxsh eta oladi, uni ajoyib-g’aroyib bir narsa qilib ko’rsatadi. Unga xos bo’lgan murakkab mulohazalar zanjiri ham Dorianga ma’qul ko’rsatdi. Hayotining boshqa bir davrida Dorian nemis darvinizmining materialistik nazariyalariga moyillik ko’rsatdi [Uayld “Dorian Greyning portreti”: 200].

В нижеследующем отрывке приводятся латинские названия драгоценных камней:

The garnet cast out demos, and the hydropicus deprived the moon of her colour. The selenite waxed and waned with the moon, and the meloceus, that discovers thieves could be affected only by the blood of kids [Wilde “The Picture of Dorian Gray”: 229]. Hydropicus – (лат.) гидрофан или опал; meloceus – (лат.) мелоцей.

В тексте перевода названия драгоценных камней не приводятся на латинице. Переводчик использует словосочетания “bir tosh”, “boshqa bir tosh”:

Yana bir tosh bor emishki, oy to’lganda zo’rayib, oy qaytganda zaiflasharmish. Boshqa bir tosh esa o’g’rini fosh etarmish. Bu tosh uloqning qoniga botirilgandagina kuchini yo’qotarmish [Uayld “Dorian Greyning portreti”: 205].

В процессе чтения художественных произведений читатель приобретает экстралингвистические знания и расширяет свой кругозор. К примеру, в следующем отрывке представлена информация о Brantome – Пьер Брантом (1540-1614), французский писатель:

When the Duke de Valentinois, son of Alexander VI, visited Louis XII of France, his horse was loaded with gold leaves, according to Brantome, and great light [Wilde “The Picture of Dorian Gray”: 231].

В переводе антропонимы представлены в оригинальной форме:

Brantomning yozganlariga ishonadigan bo’lsak, Aleksandr VI ning o’g’li gersog Valentinua Lyudovik XII ning huzuriga mehmon bo’lib kelganda, uning oti boshdan oyoq oltin bezaklar bilan yasatilgan edi [Uayld “Dorian Greyning portreti”: 206].

Приведем другой пример:

He read of the room that was prepared at the palace at Rheims for the use of Queen Joan of Burgundy, and was decorated with “Thirteen hundred and twenty-one parrots, made in broidery, ...

[Wilde “The Picture of Dorian Gray”: 235]. Queen Joan of Burgundy – Иоанна Бургундская, супруга французского короля Филиппа VI.

Переводчик правильно передал данный французский антропоним:

Dorian Reym qasrida qirolicha Ionna Burgundskaya uchun tayyorlab qo'yilgan xonaning tavsifini o'qidi. Devorlarga ilib qo'yilgan ipak gilamlarda bir ming uch yuz yigirma bitta to'tiqush va besh yuz oltmish bitta kapalakning surati naqsh qilingan [Uayld “Dorian Greyning portreti”: 208-209].

В следующем отрывке также говорится об исторической личности:

Edward II gave to Piers Gaveston a suit of red-gold armour studded with jacinth, a collar of gold roses set with turquois-stones, and a skull-cap parseme with pearls [Wilde “The Picture of Dorian Gray”: 232]. Piers Gaveston – Пьер Гавестон, любимчик короля Эдуарда II.

Сравним с переводом:

Edvard Ikkinchi Pirs Geyvstonga sof oltindan yasalgan sovut sovg'a qilgan ekan. U ko'pgina javohirlar bilan bezatilgan ekan. Sovg'alar ichida oltin atirgullardan yasalgan to'g'nag'ich ham bo'lib, uning har joy-har joyiga feruza toshlar qadalgan ekan [Uayld “Dorian Greyning portreti”: 207]. В тексте перевода французское слово “parseme” переводится как “bezatilgan” (украшенное).

Нижеприведённые заимствования передают историческую информацию:

Where, the huge velarium that Nero had stretched across the Colosseum at Rome, that Titan sail of purple on which was represented the starry sky, and Apollo driving a chariot drawn by white gilt-reined steeds? [Wilde “The Picture of Dorian Gray”: 233]. Velarium – материал, используемый для навеса от дождя в амфитеатрах. Nero – Нерон (37-68 гг.), римский император. Colosseum – Колизей, исторический памятник в Италии.

Приведём версию перевода:

Neronning buyrug'i bilan Kolizey ustidan tortilgan velarum qani? Bu velarum haddan tashqari katta qizil matodan iborat bo'lib, unda yulduzli samoning surati va oltin jabduqli oq otlar yeldirib borayotgan arava ustidagi Appolon tasvirlangan edi [Uayld “Dorian Greyning portreti”: 208]. В тексте перевода французские заимствования приводятся в оригинальной форме, однако никакого пояснения не приводится. С другой стороны, контекст создаёт семантическую опору и вносит ясность в описываемые объекты [Shodikulova 2021: 423].

В художественных текстах антропонимы могут передавать информацию политического характера:

Catherine de Medicis had a mourning-bed made for her of black velvet powdered with crescents and suns [Wilde “The Picture of Dorian Gray”: 235]. Catherine de Medicis – Екатерина Медичи (1519-1589), супруга французского короля Генриха II, которая стала управлять страной после его смерти вместе в несовершеннолетним сыном.

Отрывок из версии перевода:

Yekaterina Medichining jasadi solingan tobut ustiga qora duxoba yopilgan bo'lib, u hilol va quyosh suratlari bilan bezatilgan [Uayld “Dorian Greyning portreti”: 208].

Топонимы играют важную роль в художественном тексте поскольку создают реальную атмосферу и картину действий и происшествий:

After a few years he could not endure to be long out of England, and gave up the villa that he had shared at Trouville with Lord Henry, as well as the little white walled-in house at Algiers where they had more than once spent the winter [Wilde “The Picture of Dorian Gray”: 239]. Trouville – курортный город во Франции.

Обычно топонимы сохраняют своё название в тексте перевода:

Bir necha yil o'tgach, Dorian Angliyadan boshqa hech bir joyda uzoqroq muddat turlolmaydigan bo'lib qoldi. U lord Genri bilan Truvilda bir qasrni ijaraga olgan edi – bundan voz kechdi [Uayld “Dorian Greyning portreti”: 211]. Как видно, переводчик разбил одно длинное предложение на два простых предложения в тексте перевода.

Рассмотрим ещё один контекст с топонимом:

He showed me a letter that his wife had written to him when she was dying alone in her villa at Mentone [Wilde “The Picture of Dorian Gray”: 261]. Mentone – Ментона, курортный город Франции.

В переводе топоним сохранил свою форму:

Uni Glosterning хотини Mentondagi qasrida uzilay-uzilay deb yotganida, o‘limi oldidan yozib yuborgan ekan [Uayld “Dorian Greyning portreti”: 211].

В следующем контексте приводятся имена монархов и известных людей: Here was Philip Herbert, described by Francis Osborne, in his Memoires on the Reigns of Queen Elizabeth and King James, as one who was Caressed by the Court for his handsome face, which kept him not long company [Wilde “The Picture of Dorian Gray”: 243]. Philip Herbert – Филипп Герберт, граф Монтгомери и четвёртый граф Пемброк (1584-1650), король Яков I. Francis Osborne – Френсис Осборн (1593-1659), английский писатель, автор морально-нравственных памфлетов.

Сравним с версией перевода:

Mana Filipp Gerbert. Uning to‘g‘risida Frensis Osborn “Qirolicha Yelizaveta va qirol Iakov hukmronlik qilgan yillar haqida xotirotlar” kitobida yozgan. Uning yozilishicha, Gerbert “o‘z husni tavajjuhi vajidan saroyda ardoqli odamlardan biri bo‘lgan, biroq bu husn unga vafo qilgan emas” [Uayld “Dorian Greyning portreti”: 215]. В переводе сохраняются двойное “п” в имени Филипп. Переводчик вносит изменения в структуру предложения и даёт комментарий к именам известных личностей.

Таким образом, антропонимы в текстах художественной литературы придают повествованию реальную атмосферу и передают знания экстралингвистического характера, связанного с историей, географией, наукой, литературой, искусством, образом жизни и т.п.

Литература:

1. Власова Н.А. Современное фразеогнездообразование в русле антропологической парадигмы. // Фразеология в аспекте науки, культуры, образования. Тезисы докладов международной научно-практической конференции. – Челябинск, 2001. – С.211-216.
2. Ермолович Д.И. Имена собственные на стыке языков и культур. – Москва: Р. Валент, 2001. – 200 с.
3. Обруева Г.Х. Фразеобразовательные возможности ономастики в современном английском языке (семантико-структурный и функциональный анализ): Дисс. ... канд. филол. наук. – Самарканд, 2011. – 151 с.
4. Суперанская А.В. Общая теория имени собственного. – Москва: Либроком, 2012. – 366 с.
5. Cook G. Discourse and Literature. – Oxford: Oxford University Press, 2004. – 340 p.
6. Oscar Wilde. The Picture of Dorian Gray. – Санкт-Петербург: Издательство Каро, 2012. – 400 с.
7. Oscar Uayld. – Dorian Greyning portreti (Ozod Sharafiddinov tarjimasi) – Toshkent: Zabarjad media, 2023. – 336 b.
8. Shodikulova A. Matnda kogeziya xodisasining voqelanishi // Buyuk ipak yo‘lida umuminsoniy va milliy qadriyatlar: til, ta’lim va madaniyat. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Samarqand-Shanxay, 2021. – B. 422-424.
9. Yo‘ldoshev U. Badiiy matnda qo‘llangan allyuziyalarni tarjima qilish strategiyalari (latifalar tarjimasi misolida) // Buyuk ipak yo‘lida umuminsoniy va milliy qadriyatlar: til, ta’lim va madaniyat. – Samarqand-Shanxay, 2021. – B. 159-162.

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

8 ЖИЛД, 1 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 8, НОМЕР 1

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 8, ISSUE 1

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000